


M.M. QALANDAROV

# O'RMONCHILIK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M.M. QALANDAROY

# O'RMONCHILIK

*O'rmonchilik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun  
o'g'uv go'llanma*

Toshkent "Yangi nashr" 2008

634,9  
Q 18


*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik  
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi  
Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

6  
Taqrizchilar: A.X. SHARIPOV — O'zbekiston Respublikasi FA  
Botanika ilmiy ishlab chiqarish markazi va  
Botanika bog'i laboratoriya mudiri, biologiya  
fanlari nomzodi;

G'Q. QUMZULLAYEV - Toshkent Davlat agrar  
universiteti O'rmonchilik kafedrasida dotsenti,  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi;

U. NORALIYEV — Qibray agrotijorat qishloq  
xo'jaligi kolleji direktori;

A. G'ANIYEV — kollejning maxsus fan  
o'qituvchisi.



Ushbu o'quv qo'llanmada o'rmonlarning o'sib rivojlanishi, ko'payishi, o'rmonlar turi va respublikamiz o'rmon fondning joylanishi, o'rmonlarda daraxt turlarining o'zaro almashinuvi, o'rmonning tuproq muhiti va o'rmonga bo'ladigan ta'sirlar, shuningdek, o'rmonlarda kesish ishlari va uning texnologiyasi to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma o'rmonchilik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy ta'limning agrar sohasi talabalari va respublikamiz o'rmon xo'jaligi ishchi-xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-330-21-4

D«Yangi nashr», 2008-y.

## KIRISH

Bugungi kunda yer yuzida ekologik muvozanatni ushlab turishda o'simlik olami asosiy o'rinni egallaydi. Ular atmosfera havo haroratini bir neç yorda tutib turishda, suv manbalarini toza tutishda va, eng asosiysi, havo tarkibini tozalashda muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan «O'rmon to'g'risida» gi qonunda ona-Vatanimiz hududida ekologik vaziyatni yanada yaxshilashda har xil turdagi yaproq va nina bargli daraxt turlaridan yashil olam barpo etish, mavjud o'rmon daraxtlarini asrab-avaylash, kelajakda ular o'rmiya yanada chiroyli ko'rinishga ega bo'lgan daraxtzorlar barpo etish, ulaming sifat darajasini yaxshilash, undagi faunani asrab qolish va o'rmon boyliklaridan oqilona foydalanish, uni qo'riqlash, har xil kasallik va zararkunandalardan himoya etish kabi asosiy vazifalar ilgari suriladi. Masalan, «O'rmon to'g'risida» gi qonunning 9-va 12- moddalarida o'rmonlarning vazifalari va ularni qo'riqlash, 21- moddasida o'rmondan doimiy foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, 41-moddasida o'rmonlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ularni takroriy ko'paytirishni moliyalashtirish hamda iqtisodiy rag'batlantirish kabi muhim vazifalar o'rmon xo'jaligi ishchi-hodimlari, mutaxassislari oldiga asosiy dastur etib qo'yilgan edi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rmon fondi 8 mln 392 ming gektardan iborat. Shundan o'rmon bilan qoplangan yer maydonlari 2 mln 251 ming gektarni tashkil etadi.

Respublikamizda o'rmonlar tarqalishi bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- qum va cho'l o'rmonlari — 7105 ming gektar (84,6%);
- tog' o'rmonlari — 1211 ming gektar (14,4%);
- to'qay o'rmonlari — 34 ming gektar (0,4%);
- ihota daraxtzorlari — 42 ming gektar (0,5%).

Xalq xo'jaligidagi ahamiyatini va himoya o'rmonlari bo'lganligini e'tiborga olsak respublikamiz o'rmonlari I guruhga kiritilgan va ular quyidagicha himoya qilish xususiyatiga ega:

- ◆ suv saqlash va uni himoya qilish funksiyasini bajaruvchi o'rmonlar — 8200 gektar;
- ◆ himoya qilish xususiyatini bajaruvchi ihota o'rmonlari — 4832 gektar;
- ◆ yuvilish va nurashning oldini oluvchi o'rmonlar — 991 ming gektar;
- ◆ sanitar-gigiena va sog'lomlashtirish xususiyatini bajaruvchi o'rmonlar — 24 ming gektar;

◆ maxsus maqsadlar uchun rejalashtirilgan o'rmonlar — 205 ming gektar.

O'rmon bilan qoplangan yer maydonlari quyidagicha taqsimlanadi:

- ◆ saksovulzorlar — 1234 ming gektar;
- ◆ archazorlar — 200,2 ming gektar;
- ◆ boshqa daraxt turlari — 76 ming gektar;
- ◆ yaproq barglilar — 25 ming gektar;
- ◆ nina barglilar — 12 ming gektar;
- ◆ butazorlar — 278 ming gektar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil aprel oyidagi XIV sessiyasida «O'rmon to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda o'rmon xo'jaligi mutaxassislari oldiga respublika o'rmonlarini har tomonlama himoya qilish, uning maydonlarini ko'paytirish, o'rmon mahsuldorligini oshirish, o'rmon xo'jaligi yer maydonlarida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan plantatsiyalar barpo qilish, tez o'suvchi yog'ochbop daraxtzorlar bazasini yaratish, shuningdek, o'rmon boylıklaridan oqilona foydalanish vazifalari qo'yildi.

Shuning uchun ham o'rmon xo'jaligi sohasi bo'yicha mutaxassis bo'lish uchun o'rmonning hayot qonunlarini bilish, uning rivojlanishi, qayta tiklanishi (ko'payishi), yetishtirish, o'rmonni parvarish qilish, o'rmonning hosildorligini oshirish va boshqalar talab qilinadi. O'rmon xo'jaligi bilan bog'liq barcha masalalar qatori, yuqorida ko'rsatilgan muhim savollarga ham o'rmonchilik fani javob beradi.

Fan ikki qismga bo'linadi. Birinchi qism o'rmonshunoslik deb ataladi yoki o'rmonning biologiyasi, bunda o'rmon hayotining

qonunlari o'rganiladi, ya'ni o'rmon bilan atrof muhit orasidagi o'zaro bog'lanish.

Ikkinchi qismi — amaliy o'rmonchilik — o'rmonni kesish usuli bilan parvarishlash va boshqa turdagi kesishlarni yoritadi, undan tashqari, o'rmonning yog'ochdan tashqari mahsuloti.

Ikkala qism bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

O'rmonlar yog'och ishlab chiqaruvchi asosiy manba sifatida xalq xo'jaligining hamma sohalarida keng qo'llaniladi. Qurilish, qog'oz va mebel sanoati uchun yog'ochdan 2000 gacha har xil materiallar olinadi. Yog'ochga bo'lgan talab yildan-yilga ortib borayapti. Dunyo miqiyosida yog'ochga bo'lgan talab 2010-yilga borib 3 marotaba oshadi.

Yog'ochdan tashqari, o'rmonlar oziq-ovqat olish uchun ham xizmat qiladi (yong'och, xandon pista, bodom, Sivers olmasi va boshqalar) va shifobaxsh xom ashyo sifatida xizmat qiladi (na'matak, chirg'anoq, eman, safora va boshqalar). Undan tashqari, 500 ga yaqin shifobaxsh o'tlar bizning tog' mintaqamizdagi o'rmonlarda o'sadi va ulardan foydalaniladi.

O'rmonlar — odamlar uchun dam olish maskanidir, ular zararli gaz, changlami ushlab qoladi, mikroiklimni vujudga keltiradi, tuproqni eroziyadan saqlaydi. Tuproqning ustidan oqib ketayotgan yog'in- sochin suvi o'rmonning ichidan o'tayotib mikroorganizmlardan tozalanadi. Shu ma'lum bo'lganki, o'rmon ichidan oqib o'tgan suvning 1 litrida 9 ta oshqozon chuvalchangi bo'lib, o'rmondan o'tmagan suvda esa 18 ta bo'lgan, ya'ni ikki marotaba ortiq.

Nihoyat o'rmon — bu ov qilinadigan joydir, undan tashqari, ularda asalarichilikni rivojlantirish mumkin.

Yer kurrasida o'rmonlar bir tekisda joylashgan emas. O'rmon maydonlarining yarmi tropik mintaqaga to'g'ri keladi, qolganlari o'rtacha mintaqqa, shimoliy yarim sharda joylashgan (Rossiya, Kanada, AQSh va boshqa). 1 kishi hisobiga olganda Rossiyada 5—8 ga, Lotin Amerikasida 5, Kanadada 4 ga, Afrikada 2,4 ga maydon to'g'ri keladi.

O'zbekistonda o'rmonlarni tashkil etuvchi asosiy tur bo'lib archazorlar hisoblanadi. Archazorlar — tuproqni muhofaza qiladi, suvni himoya qiladi va uni tartibga soladi.

Bizning tog' mintaqamizda archaning uch turi uchraydi: Qora archa (zarafshon archasi), saurarcha (yarimsharsimon archa), o'rik archa (turkiston archasi). Ular bir-birlaridan tashqi ko'rinishi, vertikal tuzilishi bilan farq qiladilar. Archadan keyin tog'larda tabiiy ravishda yong'oqzorlar o'sadi: xandon pista 600-1700 m balandlikda, grek yong'og'i 1000 — 1500 m, bodom 800-1600 m va mevali daraxtzorlar (olma, olxo'ri, do'lana, nok

va boshqalar). Tog'larda kichik guruh bo'lib (karkas) uchraydi, daryolar yonida xurmo, zarang, olcha uchraydi.

O'zbekistonda tabiiy o'rmonlardan tashqari, kichik o'rmonzorlar ko'rinishda, qishloq xo'jalik ekinlar atrofida o'rmon ihotazorlari, kanallar, suv omborlari, avtomobil yo'llari atrofida sun'iy daraxtzorlar mavjud. Bu yerda har xil daraxt, buta o'simliklari uchraydi, bizning sharoitimizga moslashib qolgan introduksiya qilingan turlar o'sadi. Ularning ko'pchiligi (eman, qayrag'och, oq akas, sofora, teraklarning ayrim turlari) bizda tezroq o'sadi (o'z vataniga nisbatan), issiq iqlim, havoning quruqligiga yaxshi chidaydi.

Qumli cho'l mintaqasida qora va oq saksovol o'sadi, ulardan tashqari, cho'ra, qandim, cherkez, daryolar chetida yulg'un, turang'il o'sadi. Bu o'rmonlar O'zbekiston o'rmonzorlarining 70 % ni tashkil etadi va qumli mahkamlovchi sifatida ishlatiladi va chorva mollari uchun em-xashak vazifasini o'taydi. O'zbekistonning uchinchi o'rmon tashkil etuvchi mintaqasi — bu to'qayzorlardir. Ular daryolarga yaqin joylashgandir, qirg'oqni yuvilib ketishdan himoya qiladi, suvni tartibga soladi. Ularga turang'il, tol, jiyda turlari kiradi, tog'larda kamroq ravishda qayin, so'g'diona shumtoli uchraydi.

O'zbekistonda o'rmonlar maydoni Respublika umumiy maydonning 5 % ni tashkil qiladi. O'rmonchilarning asosiy vazifasi

— o'rmonlarni barpo qilish, o'rmonlarni o'stirish va shu o'rmonlarni himoya qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham o'rmon xo'jaliklarining asosiy vazifasi urug'ini sifatli tayyorlash, ko'chatlar ekib o'rmonzorlar barpo qilish hajmini oshirish, yangi fan yutuqlari va tavsiyalaridan unumli foydalanish hisoblanadi. O'rmonlarni qayta tiklash va sun'iy o'rmonzorlar barpo etish Respublikamizda xalq xo'jaligining asosiy vazifasi bo'lganligi sababli soha yo'nalishining ish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Ayniqsa, tuproq eroziyasi, qum ko'chishlari va sellarning oldini olishda, yangi o'rmonzorlar barpo etib, himoya qilish ishlari yo'nalishida, Orol muommosini yechishda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Yangi o'rmonzorlar barpo etishda Respublikamiz boshqa O'rta Osiyo mamlakatlari orasida oldingi salmoqli o'rinni egallab turibdi. Bu ishlar yiliga har xil mintaqalarda 30—35 ming gektar maydonda amalga oshiriladi. 2001-yilgacha shirkat, jamoa, fermer xo'jaliklari yerlarida 40 ming gektardan oshiqroq maydonda ihota daraxtzorlari barpo etildi. Ular qishloq xo'jaligi ekinzorlarini har xil tabiiy ofatlardan saqlaydi va ekinlar hosildorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rmon xo'jaliklari o'zlarini va boshqa idoralar, tashkilotlar, korxonalar,

qishloq xo'jaligi tarmoqlarini har xil mevali, manzarali va o'rmon ko'chatlari bilan ta'minlash maqsadida 770 gektardan ortiq maydonda ko'chatxonalar tashkil qilgan. Ushbu ko'chatxonalarda haryili 30 — 35 mln dona ko'chatlaryetishtiriladi.

Atrof-muhit ekologik muvozanatini jilovlashda, mo'tadillikni saqlashda sun'iy o'rmonlar alohida o'rin tutadi va ularning o'rmini biron bir boshqa tadbir bilan almashtirib bo'lmaydi. Minglab gektar maydonda inson qo'li bilan ekilib, parvarishlanib yetishtirilgan sun'iy o'rmonlar tabiiy yaxshi sifat belgilari, ko'rsatkichlari bilan tabiiy o'rmonlardan ajralib turadi.

Ma'lumki, o'rmon o'stirish, o'nlab yillar bilan o'lchanadigan uzoq jarayondir. Shuning uchun o'rmon mutaxassislari sun'iy o'rmonzorlar barpo etish, o'stirish, parvarish qilish tajribasi ilmiy asoslarini yaxshi bilishlari kerak.

O'rmonchilik fani «O'rmon taksatsiyasi», «O'rmonlardan foydalanish texnologiyasi», «O'rmonlarni loyihalash», «O'rmon yetishtirish», «O'rmonlarni qo'riqlash va himoya qilish», «O'rmon tuzish», «Botanika», «Dendrologiya», «Muhandislik geodeziyasi» va «Tuproqshunoslik» kabi fanlar bilan uzviy bog'lanib talabalarga yetkaziladi. Ushbu fanni o'qitish mobaynida fanga oid har xil jadvallar, davriy chizmalar, rangli albomlar, o'rmon xo'jaligining karta sxemalari, daraxt va buta turlari bo'yicha gerbariyalar, urug' namunalari, shuningdek o'rmon to'g'risidagi kinofilm hujjatlaridan to'liq foydalaniladi. Talabalar bu fandan bilim olishda har bir mavzuni Respublikamizning «O'rmon to'g'risida» gi qonuni, «Yer haqidagi qonuni» va «O'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va qo'riqlash qonuniyatlari» bilan bog'lab olib borishi zarur. Bu fanni o'qitishdan maqsad o'rmonlar hosildorligini oshirish, oziqlan-tirishni, o'sib rivojlanishini, parvarishlashni, sifatli yog'och mahsuloti olishni o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, ushbu fanni o'rgangan mutaxassis olgan bilimlariga suyanib daraxtlarga shakl berish, ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish, parvarishlash, kesish ishlarini o'tkazish va zarur bo'lgan hujjatlarni to'ldirib borish malakasiga ega bo'lishi lozim.



### 1.1. O'rmenlarning tuzilishi, kelib chiqishi va ko'rinishlari

#### O'rmon haqida tushuncha va uning tabiati

O'rmon — bu o'simliklarning asosiy turi hisoblanib, uning tarkibida barcha daraxtlar, butalar va o'rmon osti o'simlik dunyosi, shuningdek, hayvonot olami va tuproq orasidagi o'zaro bog'langan hayotiy jarayon tushuniladi. O'rmonning o'ziga xos xususiyati shundaki, undagi barcha o'simliklar bir-biriga uyg'un tarzda rivojlanadi va atrof-muhitga asosan ijobiy ta'sir ko'rsatib turadi.

O'rmonning hajmi, shakli, miqdori va mohiyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, vaqt, iqlim va inson faoliyati ta'sirida o'zgarib turishi mumkin.

Ammo daraxtlar bilan tarqoq holda qoplangan yoki yakkam- dukkam daraxtlar joylashgan joylar o'rmon bo'la olmaydi. Bunday joylar bog<sup>1</sup>, alleya, yakkam-dukkan daraxtlar bilan qoplangan dasht bo'lishi mumkin. Daraxtlar ko'p joyni o'rmon deb atash uchun ularning miqdoridan tashqari sifat ko'rsatkichlari ham bo'lishi kerak.

O'rmonda o'sadigan daraxtlar yakka holda o'sadigan daraxtlarga qaraganda shakli, tanasining katta-kichikligi, shox-shabbasining joylashishi hamda shoxlardan tozalanish darajasi bilan farqlanib turadi.

O'rmonlardagi daraxtlar asosan bo'yiga baland, tik, tanasi silindr shaklida hamda shox-shabbalari daraxtning yuqorigi qismidagina joylashgan bo'ladi.

Ochiq joyda o'sadigan daraxtlar esa shox-shabbalari tarqoq yoki sharsimon va ko'pincha yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'ladi. Bunday daraxtlardan yaxshi, sifatli yog'och materiallari chiqmaydi. Daraxtzorlar qanchalik qalin bo'lsa, ularning shox-shabbasi shunchalik kam bo'ladi. Shuning ta'sirida daraxt tanasining hajmi va sifati yaxshi bo'ladi. Bu esa o'rmon mahsulotining eng yaxshi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ochiqlikda rivojlanayotgan daraxtlar ko'p hosil beradi, urug'lami shamol yordamida katta-katta masofalarga tarqatadi. Ularning shox-shabbalari quyosh nuridan yaxshi foydalanadi.

O'rmon ichida o'sib, rivojlangan daraxtlar hayoti butunlay boshqacha o'tadi. Ularning tanasi to'g'ri, shox-shabbalardan tozalanagan, shakli piramidasimon tuzulishda, navdalari ingichka bo'ladi.

Daraxtzorlarning yetarli ravishda quyosh nuri bilan ta'minlanmasligi, kun va tun haroratining, havo va tuproq namligining ta'siri ostida o'rmonga xos sharoit yuzaga keladi. Daraxtlar quyoshga intiladi. Ozuqa moddalar

daraxt tanasida bir xilda taqsimlanadi. Shamolning yoʻqligi, yozning salqinligi, qishning yumshoqligi - oʻrmon muhitiga xos sharoitdir.

Yoʻllar chetlaridagi sunʼiy ravishda ekib koʻkartirilgan allevalar va toʻp-toʻp daraxtzorlarni oʻrmon deb boʻlmaydi. Chunki bu yerlarda oʻrmon muhiti — sharoiti paydo boʻlmaydi.

Misol uchun, biz ikki xil sharoitda oʻsayotgan daraxtlarni olaylik. Ochiq va oʻrmon ichidagi sharoitda daraxtlar hajmi har xil boʻladi. Agar oʻrmonlar ichida bunday daraxtlar gektaridan  $600 \text{ m}^3$  gacha yogʻoch bersa, ochiq joylarda bir gektardan atigi  $330 \text{ m}^3$  olinadi, xolos. Oʻrmon sharoitida daraxtlarning bir-biriga taʼsiri ostida pastki shox-shabbalar asta-sekin qurib, sina boshlaydi va buni tabiiy tozalanish (saralanish) jarayoni deyiladi.

Vaqlar oʻtib bu jarayon natijasida oʻrmondagi daraxtlar soni borgan sari kamaya boradi. Oʻrmon oʻzining shaxsiy muhitini yaratadi. Oʻrmon tabiati oʻzi yaratgan muhitga taʼsir etishdan tashqari dalalarga, oʻtzorlarga, daryolarga, qishloq va shaharlarga, hayvonot dunyosiga, iqlimga ham taʼsir koʻrsata boshlaydi.

Oʻzbekiston diyorida rang-barang va bebaho daraxtlar oʻsadi va ular oʻziga xos oʻrmonzorlarni tashkil qiladi. Ilmiy izlanishlar natijasida oʻrmonlarning iqlimga katta taʼsir koʻrsatuvchi, suv jilovlovchi, tuproqni yemirilishidan, yer koʻchishi, sel kabi ofatlardan saqlovchi, sanitar-gigienik, rekreatsion va boshqa ijtimoiy ahamiyatlari toʻla tasdiqlangan.

Togʻ mintaqalaridagi oʻrmonzorlar tuproq yuvilishlari, sel jarayonlari va joʻshqin suv oqimlarining oldini oladi, daryolardagi suv zaxirasini yozning jazirama davrida koʻpaytiradi.

Dasht va choʻllardagi daraxtzorlar iqlimni yumshatadi, qum koʻchishlarini toʻxtatadi, xalq xoʻjalik obyektlarini qumlar bilan koʻmilishdan saqlaydi, mahalliy yoqilgʻi manbai boʻlib xizmat qiladi va choʻl yaylovlarining hosildorligini oshirishda koʻmaklashadi.

Daryo boʻylaridagi toʻqayzorlar esa qirgʻoqlarni yuvilishdan saqlaydi, suv oqimini jilovlab turadi, har xil yogʻoch va oʻtin mahsuloti beradi va har xil qushlar uchun oziqlanish manbai boʻlib xizmat qiladi.

Sugʻoriladigan maydonlardagi daraxtzorlar dalalami, yoʻllarni, kanallarni, suv omborlarini, aholi yashaydigan joylarni gamseldan, suv va shamol croziyasidan saqlaydi.

Oʻzbekiston oʻrmonzorlari bebaho ozuqabop va shifobaxsh mahsulotlarga boy. Grek yongʻogʻi, handon pista, shirin bodom, yowoyi olma, olcha, doʻlana, nok, zirk kabi mevalar shular jumlasidandir. Daraxtlar orasida, soylarda har xil maymunjonlar, zira, qoʻziqorinlar terish mumkin.

Umuman, daraxtzorlar har xil va rang-barang hayvonlar va qushlar

uchun ozuqa manbai va yashash manzili bo'lib xizmat qiladi. O'rmonlarning yana bir asosiy xususiyati shundan iboratki, ular daryolarni loyqalar bilan to'lib qolishdan saqlaydi, tog' yon bag'irlarini yuvilib ketishdan, sellardan va qor ko'chishlaridan, qumlamli siljishdan saqlaydi.


O'rmonlar namlik va tuproqni saqlash manbaidir. Ular iqlimni yumshatib, havoni tozalashdan tashqari tuproqning suv rejimini yaxshilaydi, daryolarni qurib qolishdan saqlaydi, qishloq xo'jaligi dalalarining unumdorligini oshiradi, qumlar ko'chishining oldini oladi, jarliklar paydo bo'lishiga va ularning kattalashishiga to'siq bo'ladi.

O'rmonlar daryolarga oqib tushadigan suvlar rejimini tartibga soladi. Oqayotgan suvlar hajmi qorlar eriganda ham, yomg'ir yoqqanda ham deyarli bir xil tarzda bo'ladi. Sug'oriladigan yerlarda, daryo yoqalarida joylashgan daraxtzorlar ta'siri natijasida yer osti suvlari ko'tarilmasdan bir xil me'yorda turadi.

### **Toza va aralash daraxtzorlar, oddiy va murakkab o'rmonlar**

Shakli bo'yicha daraxtzorlar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Sodda turdagi daraxtzorlar o'zining tuzulishi bo'yicha bitta yarusni tashkil qiladi. Aralash o'rmonlar har xil daraxtlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston o'rmonlarining asosiy qismi urug'laridan, ildizlaridan va to'nkalaridan tabiiy ravishda paydo bo'ladi.



*1-rasm. Aralash daraxtzorlarning ko'rinishi.*



*2-rasm. Toza nina bargli daraxtzorlar.*

Toza va oddiy daraxtzorlar o'rmonchilik va iqtisodiy ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan tarkibi aralash, shakli murakkab ekinlardan pastroq bo'lib, ular faqat maqsadli ishlatilganda samara beradi. Toza o'simlik daraxtlarining faqat bir ma'lum, chidamli navi o'sayotgan ekstremal o'rmon o'simliklari sharoitida o'stiriladi.

Tarkibi aralash, shakli murakkab daraxtlar tabiiy sharoitda o'stiriladi va natijada ular samaraliroq bo'ladi. Ko'p yarusli o'simliklar bir yarusli o'simliklarga qaraganda quyosh energiyasini ko'proq oladilar. Ildizi tuproqqa chuqur ketgan daraxtlar (eman, mayda bargli jo'ka) ildiz tizimi tuproqning ustki qatlamida joylashgan daraxtlarga (oddiy shumtol, o'tkir bargli zarang) nisbatan ozuqa moddalarni va namni ko'proq oladilar.

Aralash ekinlarni barpo etganda daraxtlar tarkibini yaxshi tanlash kerak. Qayin, oq akas, gledichiya va shunga o'xshash keng shoxli va kumushsimon zarang emanga mos kelmaydi.

Tarvaqaylab ketgan shox-shabbali daraxtlar ostida xazon to'shamasi hosil bo'lmaydi va yer chimlanib ketadi. O't o'sgan joylarda yuqori transpiratsiya xususiyatiga ega bo'lgan boshqoli o'tlar ko'proq o'sadi. Natijada, yerda namlik kam bo'lib, daraxtlar o'sishiga salbiy ta'sir etadi.

Aralash daraxtzorlarda daraxtlarning bir-biriga ta'siri daraxtlar o'sish sharoiti, ularning tarkibi va naviga bog'liq.

Aralash daraxtzorlarda daraxtlar yorug'lik, nam, ozuqa uchun raqobatda bo'ladi. Daraxtzor barpo etishda bir-biriga ijobiy ta'sir etuvchi daraxt navlarini tanlash lozim.

Biokimyoviy o'zaro ta'sir daraxtlarning yuqori qismi va ildizlaridan chiqqan turli xil moddalar natijasida sodir bo'ladi.

Biofizik o'zaro ta'sir tashqi muhit o'zgarganda yuzaga keladi. Masalan, tepa yon bag'ridan soya hosil bo'lganda yorug'lik kam tushadi. O'simliklar tuproqdan ozuqa olib va uni qaytarish natijasida biotrof ta'sir yuzaga keladi. Turli xil daraxt tana va shoxlari bir-biri bilan ishqalanish natijasida shikastlar paydo bo'ladi, ya'ni mexanik ta'sir yuzaga keladi. Bir xil navli daraxtlarda ba'zida organ (ildiz, shox, tana) lari bir-biri bilan yopishib birga o'sadi. Bunday holatlarda ozuqa moddalari va nam bir daraxtdan boshqa daraxtga o'tishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sir fiziologik ta'sir deyiladi.

Alohida turlarga birinchi yarusdagi butalar va daraxtlar, birinchi va ikkinchi yaruslarning bir-biriga bo'lgan ta'sirini alohida ta'sir turiga ajratish mumkin. Turli xildagi butalar daraxt navlarining holati va o'sishiga bir xil ta'sir etmaydi. Bu yerda sariq akas va o'rmon yong'og'i o'ziga xos xususiyati borligini ta'kidlash lozim. Sariq akasning ildiz tizimi plastik bo'lib, sharoitga qarab tuproqning yuqori qatlami yoki 2 m gacha bo'lgan

chuquriikda joylashishi mumkin. Eman, qarag'ay, shumtol, barxat o'sadigan quruq va yangi tuproqlarda akasning ildiz tizimi tuproqning yuqori qismida joylashib, boshqa daraxtlar ildizlarini pastki, ozuqa kam bo'lgan qatlamlarga o'sishga majbur qiladi. Tuproqda sariq akasning ildizlari ko'pligi, uning kuchli transpiratsion (o'rmon yong'og'idan 2,5 marta ko'p) negizidagi tuproq chimlanishi namni qochiradi, daraxtlar o'sishi uchun sharoit yomonlashadi.

Oddiy o'rmon yong'og'i boshqa daraxtlarga o'zgacha ta'sir qiladi. Uning ildiz tizimi tuproqning yuqori qatlamlarida joylashib qarag'ay, eman, shumtol va barxat daraxtlar ildizlarini tuproqning pastki qatlamlariga o'sishga majbur etmaydi. O'rmon yong'og'ida transpiratsion hususiyatlari kam. O'rmon yong'og'idan tushgan organik moddalar jo'ka, skumpiya va boshqa turlardan tushgan organik moddalardan ko'p bo'lib, eman bargi, qarag'ay ninali- barglariga nisbatan ohagi (barg chirindisi) ko'proq bo'ladi. O'rmon yong'og'i o't o'simliklarni rivojlantirmaydi, birinchi yillarda asosiy navlarning yon bag'irlaridan soya beradi, qarag'ay va eman qoldiqlarining organik parchalanishiga ko'mak beradi, hazon to'shamasida saqlaydi. O'rmon yong'og'i bilan birga eman va qarag'ay sof ekinzorlarga nisbatan yaxshi rivojlanadi. Qumloq tuproq va oddiy qora tuproq yerlarda oddiy shumtol va emanning bir-biriga ta'siri ushbu daraxt navlarining ko'p-ozligiga bog'liq.

Vegetatsiya davrining birinchi yarmida shumtol ildizlari azot va fosforni ko'proq olsa, ikkinchi yarmida esa ushbu ozuqalarni birinchi yil eman daraxtlar ildizlari ko'proq oladi. Natijada shumtol eman daraxti o'rtasida ozuqa uchun raqobat yuzaga kelmaydi. Shumtol bilan eman daraxtining aralash o'sishi hazon to'shamasining tez chirishiga olib keladi, tuproqning yuqori qatlamlarini azot bilan boyitadi, gidrologik kislotani miqdorini kamaytiradi, tuproq eritmasi reaksiyasini bartaraf etadi. Biroq o'simliklarning 30%i shumtol bilan birga sekin rivojlanadi. Chunki shumtol rivojlanib o'sganda shoxlari tarvaqaylab ketib, tuproq qotib ketadi. Bundan tashqari u kuchli transpiratsion xususiyatiga ega bo'lishi natijasida nam qochadi, boshqa o'simliklar o'sishi uchun sharoit yomonlashadi. Tuproqning yuqori qatlamlarida shumtol ildizlari ko'p bo'lganligi tufayli 5 yoshdan keyin bo'yi emanga nisbatan baland bo'ladi va yaxshi rivojlanadi.

Eman-shumtolzorlarda 30% shumtolga to'g'ri kelsa, bir tekis hazon to'shama hosil bo'ladi, o'tlar kam o'sadi, eman yaproqlarida fotosintez tezlashadi. Bunday sharoitlarda shumtol tuproq va hazon to'shamiga ijobiy ta'sir qiladi va natijada har bir navning o'sishi uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Lekin 20 yoshdan keyin eman bo'yi shumtol bo'yiga qaraganda

balandroq bo'ladi. Nam tuproqli daraxtzorlarda eman va shumtol ildiz tizimlari yuqori qatlamlarda joylashadi, biroq shumtol ildizlari fiziologik jihatdan faol bo'lishi tufayli eman daraxtidan tezroq rivojlanadi.

### **Savollar**

1. Qanday daraxtzorlar aralash daraxtzorlar hisoblanadi?
2. Murakkab daraxtzorlar nima?

### **Niholxona tashkiliy-xo'jalik ishlarini tashkillashtirish tadbirlari**

Niholxonalar maxsus tashkiliy-xo'jalik rejaları asosida tashkil qilinadi. Rejani tuzishdan avval niholxona uchun ajratilgan yer maydonini tekshirishdan o'tkaziladi, uning xaritasi chiziladi, tuproq, gidrologik sharoitlari, o'simlik dunyosi, hasharotlar bilan zararlanganligi va boshqalar o'rganib chiqiladi. Shundan keyingina tashkiliy-xo'jalik rejasi tuzishga kirishiladi.

Tashkiliy-xo'jalik rejaları quyidagi qismlardan iborat:

1. Niholxonalarning asosiy ko'rsatkichlari hududini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital mablag'lar, ishlab chiqarish quvati, ko'chat yetishtirish uchun sarflanadigan mablag'lar.

2. Umumiy qism — iqlim, yer tuzilishi, tuproq sharoiti, niholxona uchun ajratilgan yer qismining tuzilishi va shu yerlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan tadbirlar.

3. Ishlab chiqarish quvati va yetishtiriladigan ko'chatlarning turlari.

4. Niholxona territoriyasini tashkil qilish.

5. Ko'chatlarni yetishtirish agrotexnikasi (almashlab ekish dalalari, yemi ishlash, o'g'itlash, har xil kasallik va zararkunanda hasharotlarga qarshi kurash, mashina va mexanizmlardan foydalanish, sug'orish).

6. Ko'p yillik daraxtlar, ihota daraxtzorlari, plantatsiyalarga bo'lgan talablar.

7. Ishni tashkil qilish — kadrlarga, mashina va mexanizmlarga bo'lgan talablar.

8. Niholxonaning idora va boshqa kerakli yordamchi inshootlarini qurish va ta'mirlash.

9. Boshqaruv va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari.

10. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar. Tashkiliy-xo'jalik rejasiga 1:500 yoki 1:250 masshtabdagi yer tuzilishi sxemasi, agrokartogramma, sug'orish shaxobchalari loyihasi, texnologik hisob kartalari ilova qilinadi.

Har xil xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan maydonlardan va

mexanizmlardan oqilona foydalanish maqsadida uning hududini qismlarga bo'lish kerak. Yangi niholxona tashkil qilish vaqtida, avvalo uning tashqari chegarasi aniqlab olinadi. Uning tashqi chegaralari 1 m chuqurlikda 30 sm dan 1,25-1,75 m gacha kenglikda zovur qazib o'raladi. Qo'shimcha ravishda niholxona tikanli sim, yog'och qo'ralar bilan ham o'raladi. Shundan keyin ko'chatxona alohida qismlarga bo'inadi, yoilar va sug'oriladigan ariqlar o'tkaziladi. Xo'jalikning idorasi esa ko'pincha ishlab chiqarish qismlaridan tashqarida joylashtiriladi. Urug' sepilgan bo'lim unumli, tekis va yaxshi sug'oriladigan yerlarga joylashtiriladi. Mashina va mexanizmlardan unumli foydalanish maqsadida dalalar maydoni 300 — 500 x 4 — 120 m bo'lishi yoki qo'l kuchidan foydalanilganda 20 — 40 x 20 — 40 metrni tashkil etishi kerak. Yo'llar niholxonaning hamma bo'limlariga bemaol borish sharoitini hisobga olib quriladi.

Niholxonalarda sug'orish va tuproq holatini yaxshilash tadbirlari ham olib boriladi:

1. Yerni haydashdan oldin sug'orish (shudgor qilish uchun tuproqni yumshatish maqsadida).
2. Zaxiraviy sug'orish kuz-qish paytida yerdagi namlikni oshirish, uning uzoq vaqt saqlanishini ta'minlash uchun.
3. Urug' sepishdan oldin — tuproq namligini oshirish uchun.
4. Vegetatsion — o'simlikning o'sishi va rivojlanishini tezlatish uchun.
5. Yerni sho'rdan tozalash.

### *1-judval*

#### **Yerni haydashdan oldin va qo'shimcha sug'orish me'yori va muddatlari, (kub m/ga)**

| Tuproq kategoriyalari                         | Yerni haydashdan va urug' sepishdan oldin sug'orish | Zaxira sug'orish |
|---|---|------------------|
| Yengil tuproqlar, lyoss                       | 500   | 800-900          |
| Yengil qumloq tuproqlar, toshloq joylarda     |   |                  |
| O'rtacha tuproq - lyossda va toshloq joylarda | 500-600   | 900-1000         |
| Og'ir tuproqlar                               | 600-700   | 1000-1200        |

Yerlarni sho'rdan tozalash sug'orish ishlarini, asosan, sentabr oyining



oxiridan dekabrgacha bo'lgan muddatda, yer osti suvlari juda ham pastda joylashgan vaqtda amalga oshirish kerak.

Sho'mi yuvish uchun quyidagi suv me'yorlari tavsiya etiladi (kub m/ga): kam sho'rlangan yengil tuproqlar uchun —1500 — 2000; kam sho'rlangan og'ir tuproqlar uchun —2000—2500; o'rta sho'rlangan yengil tuproqlar uchun —3000 — 4000; o'rta sho'rlangan og'ir tuproqlar uchun - 4000 — 5000; kuchli sho'rlangan yengil tuproqlar uchun —3000 — 4000; kuchli sho'rlangan og'ir tuproqlar uchun —4000 — 6000. Agar yangi o'zlashtirilgan yerlar bo'lsa, unda ko'rsatilgan suv me'yorlari 1,5 — 2,0 barobar ko'p bo'ladi. Quyidagi jadvalda ko'chatxonalarda tuproqqa ishlov berish texnologik sxemasi misol tariqasida keltirilmoqda.

Nihollarni o'stirish tajribasida quyidagi urug' sepish muddatlari qo'llaniladi.

Ko'klamdagi urug' sepishda: bir yil avval yoki qishda tayyorlangan urug'lar sepiladi. Qayrag'och, go'zal katalpa, kumushrang zarang, chinor, sharq archasi, yapon tuxumagi (saforasi), qrim qarag'ayi, xurmo, tutlar, oq akas, oddiy zarang, kashtan, eman, shirin va achchiq bodom, yong'oq, tog' olcha, oq va qora saksovul, eldar qarag'ayi shular jumlasidandir.

*2-jadval*

**Tog' sharoitlarida ko'chatxonalarda tuproqqa ishlov  
berishning texnologik sxemasi**

| Ish turlari  | Agregat tarkibi |                                    | Bajarish muddati, oy |
|--|-----------------|------------------------------------|----------------------|
|  | Traktor turi    | Qishloq xo'jalik mashinasi markasi |                      |
| 1  | 2               | 3                                  | 4                    |
| 1. Maydonni tekislash                                  | DT - 75M        | PA-3                               | III - IV             |
| 2. Yerni 60 sm chuqurlikda haydash                     | DT- 75M         | PPN - 40                           | IX-X                 |
| 3. Gerbitsidlar sepish                                 | T - 28XUM       | OV-28                              | II - III             |
| 4. Yerni 25-27 sm chuqurlikda haydash                  | DT - 75M        | PLN-4-35                           | II-III               |
| 5. Tuproqni 8-12 sm chuqurlikda yumshatish             | DT - 75M        | KRT-3                              | V                    |
| 6. Urug' sepish oldidan baronalash va yerni yumshatish | DT - 75M        | ChKU.4AKB-ZTS - 1, 0               | X                    |
| 7. Urug' sepish egatlarini tayyorlash                  | DT - 75M        | ChKU-4A                            | X                    |

Kech ko'klamda va erta yozda yangi terib olingan urug'lar sepiladi: tollar, kumushrang zarang, teraklar, qayrag'ochlar va tutlar. Yozgi va erta kuzgi paytlarda hani ba'zi daraxt urug'larini sepish mumkin.

Kuzgi urug' sepishda: — ular oldindan sepishga tayyorlanmasdan ishlataveriladi: oddiy o'rik, do'lana, yapon behisi, qandim, achchiq va shirin bodom, jirg'anoq, olmalar, yashil so'g'diona shumtollari.

Ko'pchilik holatlarda urug'lar bir qator qilib sepiladi (qatorlarning kengligi 4 — 5 sm), urug'larijuda maydabo'lgan (chinor, qayrag'och) hamda igna bargli daraxtlar urug'lari keng qatorli (12 — 15 sm) qilib ekiladi, urug' egatlarning o'rtasiga sepiladi. Urug'lari mayda bo'lgan va nozik nihollar beradigan daraxt va buta turlari urug'larini kuzda sepish tavsiya etilmaydi.

Urug' sepish me'yori, asosan umg'ning 5ifat sintiga uiamni'g . massasiga va sepish tizimiga bog'liq<jlir. Utem^R^roqtfa^i^tti^halik chuqur yo (yoki yuza) sepish, lasosan, ularning hajmlari,

ИНВ № МБЯ

ТлтиЛДУ ТдпГАУ

mintaqaning iqlim sharoiti, tuproqning fizik-mexanik xossalari, sepish muddati va ko'chatlarning o'stirish agrotexnikasiga bog'liq.

Nihollarni parvarish qilish usullari, asosan, sug'orish, soyabonlar bilan

berkitish, yovvoyi-begona o'tlardan tozalash, tuproqni yumshatish va o'g'it berishdan iborat. Urug'lar sepilgandan so'ng ariqlar ichidagi tuproqdan olib, urug'lar usti ko'miladi. Shundan so'ng egatlar ustini yengil yog'ochdan ishlangan doirasimon yopqichlar yoki yog'och (kengligi — 30 sm, uzunligi — 50 sm) taxtachalar bilan yengilgina bosib qo'yiladi. Ba'zi bir daraxt va buta urug'lari ekilgandan keyin ustiga 3 — 5 sm qalinlikda qoplamalar sepiladi (yog'och qipig'i, bug'doy somoni, qamish, o'tlar qoldig'i va boshqalar). Urug'lar juda qalin bo'lib unib chiqsa, albatta, uni yagona qilish kerak va qatorning 1 metrida 35 — 40 dona qarag'ay, 120 — 150 donagacha virgin archasi va biota, 50 — 70 donadan chinor, tut va qayrag'och nihollarini o'stirishga qoldirish lozim.

Ayniqsa, yovvoyi o'tlarni olib tashlash, tuproqni yumshatish bilan urug'iaming unib chiqishi, rivojlanishi, o'sishi uchun yaxshi sharoit tug'diriladi. Bu begona o't-o'lanlardan tozalangan niholxonalarda namlik ko'proq saqlanadi, ozuqa moddalar faqat ko'chatlar tomonidan is'temol qilinadi.

Nihollarni sug'orish asosiy o'stirish tadbirlaridan biri hisoblanadi. Urug'<sup>1</sup> sepishdan bir necha kun oldin 600 — 800 kub m /ga miqdorida suv beriladi, sepilgandan to nihollar yalpi unib chiqqunga qadar 2 — 4 marotaba bir gektarga 600 — 800 kub m miqdorda sug'oriladi. Sho'rlangan sariq (och-kulrang) tuproqlarda barpo etilgan niholxonalarda yetishtirilayotgan ko'chatlarni me'yorida parvarish qilish maqsadida 8 — 9 marta vegetasion sug'orish kerak (may oyida —1 — 2, iyunda -2, iyulda -2 — 3, avgustda -2—3 marta). Yer osti 30 — 40 sm toshloq bo'lgan och kulrang, kulrang yoki qo'ng'ir tuproqli yerlarning sug'orish me'yori bir gektarga 400 — 500 kub m ni tashkil qilishi kerak. Ammo sug'orishni may oyidan keyin qator oralari kultivatorlar yordamida 10-15 sm chuqurlikda yumshatiladi. Nihollar o'sish davrida qatorlarni yumshatish va begona o't-o'lanlardan tozalash ishlari 3 — 4 marotaba qaytariladi. Ayniqsa, unib chiqadigan nihollarni nozik (chinor, ba'zi igna bargli) bo'luvchi daraxt va buta ko'chatlarini saqlashda Respublikamiz sharoitida ko'pincha yog'och qipig'i, somonlar, qamishlar, barg qoldiqlaridan 3 — 5 sm qalinlikda qoplama to'shalishi ma'qul. Ayniqsa, oddiy qarag'ay, tyanshon archasi, tilog'och, jo'ka, chinor, kashtan kabi daraxtlar urug'lari sepilgandan keyin nihollar unib chiqqan birinchi yili ularni soyabonlar yordamida berkitib qo'yiladi. Natijada parvarishlash yaxshi samara beradi.

### Savollar.

1. Niholxonalar qanday sharoitda tashkillashtiriladi?
2. Tabiiy holda o'sadigan nihollarni aniqlash usullari qanday?

### Sun'iy o'rmonzorlar barpo qilish usullari

Daraxtlar o'stirish maydoni, bu — sun'iy o'rmonzorlar barpo etish uchun ajratilgan uchastkalardir.

O'zining kelib chiqishi va holatiga qarab daraxt o'stirish maydonlari har xil toifani tashkil qiladi, bu toifalarning yig'indisi esa o'rmon o'stirish fondini

Inv № 371245

hosil qiladi.

O'rmon o'stirish maydonlarini quyidagilar tashkil qiladi.

O'rmon bilan qoplangan maydonlar:

1. O'rmonlar tagidagi maydonlar.

2. Unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan butazorlar va daraxtzorlar.

O'rmon bilan qoplanmagan maydonlar:

3. Daraxtlari kesilgan yerlar.

4. Yongan va daraxtlari qurigan joylar.

5. O'rmonlar ichidagi ochiq bo'sh yerlar.

6. Daraxtlari juda ham siyrak joylashgan yerlar.

7. Eski haydaladigan maydonlar.

8. Ochiq usul bilan tog' qazilmalari olingan maydonlar.

9. Qumlar va sahrolar.

10. Jarliklar va soylar.

11. Iyota va himoya daraxtzorlari barpo qilish uchun ajratilgan qishloq xo'jalik yerlari.

Respublikamizda o'rmon o'stirish fondining asosiy qismini o'rmon bilan qoplanmagan bo'sh yerlar, tog' qiyaliklari, qumlar, sahrolar hamda eroziyaga duchor bo'lgan maydonlar tashkil qiladi.

Mamlakatimiz o'rmon fondi yerlari umumiy maydoni — 8392000 gektarga teng bo'lib, shu jumladan, o'rmon bilan qoplangani — 2251000 ga, tarqoq o'rmonzorlar — 1603 400 ga, qurigan o'rmonzorlar — 2 123 ga, qirqilgan o'rmonzorlar — 10 633 ga, o'rmonzorlar ichidagi bo'sh yerlar — 565 533 ga, yaylovlar — 1140 305 ga, qumliklar — 251 006 ga, har xil yerlar — 2337 821 ga ni tashkil etadi va hokazo. Bog'lar va uzumzorlar esa 2 116 ga, o'rmon ko'chatxonalari — 771 gektarni tashkil qiladi.

Shuning uchun ham o'rmonzorlarni qayta tiklashning asosiy usullari bo'lib ko'chat ekib yoki urug'lar sepib tiklash hisoblanadi. O'rmon fondining ochiq yerlarida sun'iy o'rmonzorlar barpo etish o'z samarasini bermoqda.

Mamlakatimizning qumli mintaqalarida sun'iy o'rmonzorlar (80- 90%) urug'larni sepish, tog' mintaqalarida va sug'oriladigan yerlarda daraxtzorlar ularning ko'chatlarini ekish yo'li bilan baqo etilmoqda. Ushbu usulda ekish ishlari amalga oshirilganda ko'chatlar birinchi yillari urug'idan o'sib chiqqan nihollarga qaraganda birmuncha tezroq o'sadi. Ular begona va yowoyi o'tlar raqobatidan kamroq ta'sir ko'radi va ko'p urug' talab qilinmaydi. Bundan tashqari, ekilgan ko'chatlar qushlar va g'ajuvchi sichqon va kalamushlar tomonidan kam zarar ko'radi.

Ammo urug'idan ekib tashkil qilingan o'rmonzorlar ko'proq yashaydi va biologik tomondan ancha chidamliroq bo'ladi. Bunday o'rmonzorlar tashkil qilish uchun alohida niholxonalar barpo etish kerak emas va urug'ni sepish ko'chat ekishga qaraganda ancha engil ish hisoblanadi. Lekin urug'idan sepib daraxtzorlar barpo etish ko'p jihatdan ob-havo sharoitiga bog'liq.

Sun'iy o'rmonlar baqo etish o'rmonni qayta tiklash ishlarini o'z ichiga oladi. O'rmon o'stirish degan so'z awal o'rmon bilan qoplangan joylarga (dalalar, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan maydonlar, qumliklar, jarliklar), o'rmonlar oralaridagi bo'sh yerlarga, qirqilgan yerlardan ozod

bo'lgan maydonlarga, yong'in natijasida o'rmonlar yo'q bo'lib ketgan hamda ekilgan ko'chatlar ko'karmagan maydonlarda hamda yaylovlarda ko'chat ekib yoki urug'ini sepib, o'rmon barpo qilish ma'nosini beradi.

O'rmon o'stirishning asosiy maqsadi tog', cho'l, sug'oriladigan mintaqalarda har xil ihota daraxtzorlari, yoilarni, dalalarni, kanallarni himoya qiluvchi o'rmonlar, jarliklarda, suv omborlari qirg'oqlarida, shahar va qishloqlarda, ishchilar qo'rg'onlarida yashil to'siqlar tashkil qilishdir. Cho'l, yaylovlar unumdorligini oshiruvchi, qumliklarni ko'chishdan saqlovchi yashil qalqonlar hamda har xil plantatsiyalar yaratishdan iboratdir.

O'rmonzorlarni sun'iy ravishda tiklash ishlari urug' sepish yoki ko'chat ekish hamda qalamchadan, ildizidan ko'paytirish yo'llari bilan olib boriladi.

Ko'chatlar yoppasiga (yalpi) va qisman ayrim ajratilgan joylarda ekish yo'li bilan barpo etiladi. Ko'chatlar yalpi ajratilgan joyga bir tekisda joylashtiriladi hamda o'rmonlar orasidagi bo'sh joylariga ekish yo'li bilan olib boriladi.

Asosiy ekiladigan daraxtlar va ularning tarkibiga qarab faqat bir daraxt turidan iborat bo'lgan daraxtzorlar hamda aralash daraxtzorlar barpo etish mumkin. Daraxtzorlar tashkil etishda ekiladigan ko'chatlar asosiy, yordamchi va butalardan iborat bo'ladi. Asosiy daraxtlar — ular o'rmonning eng yuqori qismini tashkil qiladi va asosiy mahsulotni beradi (vog'och, yong'oqlar, mevalar). Yordamchi daraxtlar — ular asosiy daraxtlarning turlarini o'rmonning yuqorigi qismini egallab olishida katta ahamiyatga ega, tuproqning ustki qatlamiga soya beruvchi daraxtlardir.

Butalar tuproqni va uning qatlamlaridagi namlikni saqlovchi hamda yerning fizik xossalarini yaxshilovchi funksiyalarni bajaruvchi qo'shimchalardir.

Odatda aralash daraxtzorlar faqat yakka-yu yagona daraxt turidan barpo etilgan o'rmonga qaraganda ancha mahsuldorroq bo'ladi. Chunki ular tuproq muhitida, quyosh energiyasidan yaxshi va to'la foydalana oladi hamda har xil noqulay iqlim sharoitlariga, hasharotlar va kasalliklarga bardosh bera oladi. So'ngra bunday daraxtzorlar tuproqni va namlikni saqlash xususiyatlariga ega. Yorug'sevar va tez o'sadigan daraxtlarning orasini sekin o'suvchi va soyaga chiday oladiganlarga qaraganda kengroq masofada ekish tavsiya etiladi. Bir xil iqlim sharoitida tuprog'i kimyoviy moddalarga kambag'al tuproqlarga ko'chatlarni tuprog'i unumdor yerlarga qaraganda bir-biriga jipsroq joylashtirish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, yowoyi o'tlar ko'payib ketmasligi uchun ham ko'chatlarni bir-biriga yaqinroq ekish kerak.

O'rmon o'stirish uchun ajratilgan fondga quyidagi kategoriyadagi yerlar kiradi:

a) qirqilgan daraxtlardan bo'shagan maydonlar hamda eski o'rmonlar, bir necha yil davomida o'z-o'zidan ko'paymagan uchastkalar;

b) yong'in natijasida o'rmonlari yo'q bo'lib ketgan hamda ekilgan ko'chatlar ko'karmagan maydonlar;

v) o'rmon umuman o'smagan ochiq va bo'sh yerlar;

g) zichligi 0,1 — 0,2 bo'lgan o'rmon maydonlari;

d) qimmatbaho bo'lmagan o'rmon maydonlari;

e) qumlik, jarlik va boshqa tabiiy iqlim sharoiti o'rmon yaratishga imkon beruvchi yerlar.

Bu fondga yuqoridagilardan tashqari, qurib ketgan yoki yetarli ravishda saqlanib qolmagan yangi ekilgan daraxtzorlar maydoni ham kiradi. O'rmon o'sish sharoitlarini e'tiborga olgan holda o'rmon o'stirish fondi namlik darajasiga, tuproqning mexanik tarkibiga, yerlarning sho'rlanish tasnifiga (xarakteriga), qiyaliknin nishabi va boshqalarga qarab guruhlariga bo'linadi. Shundan keyin yerlarni (tuproqlarni) ko'chat ekish uchun tayyorlash yo'llari aniqlanadi va belgilanadi.

Ko'pincha tuproqqa ishlov berish sun'iy o'rmonlar yaratishda asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning ko'karishi, saqlanishi va birinchi yilda rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

O'rmon xo'jaliklarining ko'pchiligida yerni mexanizmlar yordamida tayyorlash 90 — 95 % ni tashkil qiladi.

Yerga ishlov berishdan asosiy maqsad uning fizik xossalarini, namlik va issiqlik rejimini, mineral oziqlanishini yaxshilash va yovvoyi o'tlardan tozalashga qaratiladi. Ushbu ishlar yuqori agrotexnik darajada amalga oshirilsa, aibatta chidamli va yuqori mahsulotli o'rmonzorlar yaratilishiga zamin tayyorlanadi.

Birinchi navbatda tuproqqa ishlov berishda barcha ishlar respublikamizning mintaqalarida suv tanqisligini e'tiborga olgan holda namlikni yig'ishga va saqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ko'pchilik tajribalar tuproqqa har xil ishlov berish, ekilgan ko'chatlarga asosan 10—15 yoshgacha ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Yerlarni yalpi tayyorlash asosan, tekis maydonlarda, qiyaliklar nishabi 5° dan osimagan maydonlarda qo'llaniladi. Bu usuldan yong'oq, mevali bog'lar, uzumzorlar, kashtan, qarag'ay, o'rmon urug'lik bog'larini va tez o'sar daraxtlar, plantatsiyalarini baqo qilishda foydalaniladi. Yerlarni yalpi tayyorlash daraxt, buta to'nkalaridan tozalashni, yerni haydashni, ko'klamgi boronalashni, ekish oldi kultivatsiyasini va namlikni berkitish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yer haydashning har xil turlari bor: erta ko'klamgi baravariga boronalab haydash, yerni chuqur haydash, erta bahorgi va kuzgi shudgor.

Tuproq o'rtacha 15 — 30 sm chuqurlikkacha haydaladi, chuqur haydashda 30 — 40 sm, plantaj haydashda 50 sm va undan ham chuqurroq haydash tushuniladi.

Yoz paytida yerlarni 2 — 3 marotaba kultivatorlar yordamida tekislanib, yumshatiladi, ko'klamda esa 3B3CT-1 yoki 3BTY-1,0 boronalari bilan ishlov beriladi va ko'chat ekish oldidan kultivatsiya qilinadi.

O'rmon xo'jaliklarida ko'pincha yerni chuqur maydonga, uzun chiziq shaklida tayyorlanadi va shu tariqa ular umumiy maydonning 10 — 50% ga to'g'ri keladi. Tuproqni qisman tayyorlashning yana bir usuli terrasa yoki zinapoya shaklida tog' yonbag'irlarida tayyorlashdir.

Maydonchalar o'lchami, uzun chiziq (polosa) shaklida yer tayyorlash tuproq namligiga, iqlim sharoitiga qarab belgilanadi. Agar iqlim sharoiti issiq bo'lsa,

ularning o'lchamlari kattaroq bo'ladi. Maydoncha shaklida tayyorlangan yerlarning o'lchami 1 — 4 m<sup>2</sup> ga, ga ba'zi hollarda 10 m<sup>2</sup> gacha yetadi. Respublikamiz tog<sup>1</sup> mintaqalarida asosan 2x1, 2x2 m<sup>2</sup> o'lchamlardagi maydonchalar tayyorlanadi. Mahalliy tabiiy sharoitlar e'tiborga olinganda ular kvadrat, uzunchoq, to'rt burchak shakllarda bo'ladi. Tuproqni 35

— 40 sm gacha yumshatiladi, so'ngra ko'chat ekiladi. Maydonchalarni ПН-1-0,8 (Т-74 traktoriga ulangan holda), ОПН-1 (ДТ-75 К traktoriga ulangan holda) kabi maxsus moslamalar yordamida ham tayyorlash mumkin.

## Savollar

1. Sun'iy usulda daraxtzorlar barpo etish nima?
2. Qanday agrotexnika usullaridan foydalaniladi?

## Urug'idan ko'payuvchi daraxtzorlar

Ular maxsus daraxtzorlar bo'lib, ko'p yillar davomida uzluksiz ravishda urug'lar terib olish uchun moslashtirilgan. Urug' beruvchi daraxtzorlardan qalamcha va payvandlash uchun ko'zlar olinadi. Urug' tayyorlanadigan o'rmon daraxtzorlarini bafo qilishning asosiy usullaridan biri payvand qilingan ko'chatlarni ekishdir. Ammo ularni hosildor va urug'ining yaxshi sifati bilan ajralib turgan daraxtlardan terib olingan urug'larni sepish hamda yovvoyi turlarining niholxonada yetishtirilgan ko'chatlariga yaxshi turni «naycha» yoki «iskana» payvandlash yo'llari bilan ham bafo qilish mumkin. Ko'chatlarni payvandlash vaqti ularning davriy rivojlanish fazasiga hamda mavjud iqlim sharoitiga bog'liqdir. Respublikamiz janubida bu ishlar anchagina barvaqt, ya'ni navdaniy tanasidagi po'stlog'i ajralishi bemolol bo'lgan (aprel) ko'klam oylaridan boshlanadi. Urug' beruvchi daraxtzorlar yer sharoiti yaxshi va sug'orishga moslashgan joylarda tashkil etilishi kerak. Urug' beruvchi daraxtzorlarda ko'chatlarni siyrak joylashtirish kerak, ya'ni bir gektar maydonga 200 — 400 donadan oshmasligi lozim.

Ko'pchilik holatlarda, urug'ini yoppasiga terishdan oldin, kasalliklarga duchor bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlash lozim. Yaxshi sifatli urug'lar olish niyatida daraxtzorlarni aylanib chiqish tavsiya etiladi. Bu jarayonda nazorat uchun daraxtlarning yuqorigi, o'rta va pastki qismlaridan urug'lar teriladi hamda xo'jalik tekshiruvidan o'tkaziladi. Natijasi bo'yicha 3 nusxada dalolatnoma tuziladi. Uning bir nusxasi o'rmon urug'chilik stansiyasiga yuboriladi, qolganlari esa urug' tayyorlangan xo'jalikda saqlanadi.

Urug'larni ko'p yillar davomida terish uchun doimiy urug' terish uchastkalarini (DUTU) tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bular eng ko'p hosil beradigan tabiiy yoki sun'iy barpo etilgan maxsus o'rmonzorlar bo'lishi kerak. Doimiy urug' terish uchastkalari tekis maydonlardan tanlanadi. Tog'li yerlarda esa iloji boricha shimol va shimoli-g'arbiy yo'nalishdagi tog' yonbag'irlarida joylashtiriladi. Bunday uchastkalarining umumiy maydoni 5 gektardan kam bo'lmasligi va transport vositalari yurishi uchun yo'llar ajratilishi kerak.

Tanlab olingan uchastkalarda daraxtlarning tez va yaxshi o'sishi bilan bogliq bo'lgan barcha chora va tadbirlar amalga oshiriladi (tuproq yumshatiladi, o'g'itlar beriladi, har xil yovvoyi hayvonlardan va yong'indan saqlash choralarini ko'riladi).

Xo'jaliklarda vaqtinchalik urug' terish uchastkasi ham bo'lishi mumkin. U o'rmon o'rta maydoniga bo'lagi bo'lib, maxsus urug' terish uchun mo'ljallanadi. Bunday uchastkalardan doimiy urug' terish uchastkalari tashkil etilguncha foydalanib turiladi.

O'rmonlarni urug' terish uchun rayonlashtirish nisbatan tabiiy omillari bir xil bo'lgan hududni bir necha aniq genotipik tarkibiy qismlarga bo'ladi. Bu yerlarda o'simliklarning muayyan turi o'sa oladi va ushbu tadbirning asosiy maqsadi o'simlik turlarining tabiatda tarqalishini o'zgartirmasdan oqilona foydalanib, yuqori hosilli va chidamli o'rmonlar tashkil qilish demakdir.

2. Energiya bilan ta'minlanish; energiyasiz hech qanday tizim ishlay olmaydi. Quyosh energiyasi hisobiga o'simliklar o'sadi va ular yangi organik moddalar barpo qiladi.
3. Quyosh energiyasi yordamida bir xil kimyoviy moddalar boshqa tur moddaga aylanadi. Bunday o'zgarishni yashil o'simliklardagi xlorofill va fermentlar quyosh nuri yordamida bajaradi. Bu yagona energiya tufayli yer sharidagi barcha o'simliklar va o'rmonlarning o'sishi va hayoti ta'minlanadi.

Daraxtlarning ichkarisiga joylashgan barglar 2-8 marta kam yorug'lik bilan ta'minlanadilar. Quyosh nurlarining atigi 1 - 2 foizgina organik moddalar barpo etishda ishtirok etadi.

Yorug'lik kunlarning yoz paytida uzoq vaqtga cho'zilishi daraxt va butalar hayotida katta rol o'ynaydi. Bu jo'g'rofiy kenglik va yilning fasliga bog'liq.

Fotoperiodizm. Daraxt va butalarning yorug'lik kunlarining cho'zilishiga boigan reaksiyasiga fotoperiodizm deyiladi. Agar biz janub o'simliklarini shimolda o'stiradigan bo'lsak, ularning yillik o'sishi ko'payadi. Ammo ular yoz faslining qisqaligi tufayli hosil bermasligi mumkin, tanasining yog'ochi yetilmaydi.

Nur ta'sirida ba'zi o'simliklar, shuningdek, daraxt va butalar ham, o'z tanalarini egishi va aylanma harakat qilishlari mumkin.

Kun va tunning almashishiga yoritishning takrorlanishi deyiladi.

Daraxt turlarining yorug'likka talabi bir iqlim mintaqasida ham har xil omillar: masalan, daraxtlarning yoshi, kelib chiqishi, tuprogi, yilning fasli, rivojlanish davrining uzunligi, shamol rejimi va boshqalar ta'sirida o'zgarishi mumkin.

## Savollar

1. Fotoperiodizm xodisasi nima?
2. Yorug'lik o'rmonga qanday ta'sir o'tkazadi?
3. Yorug'likning o'spirin daraxtzorlarga ta'siri qanday?

O'rmonlarning hayoti suv bilan bogliq bo'lishiga qaramay, ular namlik rejimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'rmon yog'ingarchilikning kelishiga, tarqalishiga va taqsimotiga bevosita o'zgartirishlar kiritadi. O'rmonlar suvning akkumlatsiya bo'lishiga, ajralishiga va parchalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Daraxtlar tomonidan qilinadigan namliklar, ular uchun ozuqa bo'lib, assimillatsiya jarayonida foydalaniladi va ro'y beradigan fotosintez jarayonida qatnashadi. Suv to'qimalarva hujayralar uchun qurilish materiali hisoblanadi. Ular plazmani me'yoriy holatda ishlashini ta'minlaydi hamda ildizlar orqali yordam beradi. Ba'zi daraxtlar ildizlari orqali suvni 120 metrgacha ko'tarish qobiliyatiga ega ekanligi tasdiqlangan. Suvning tanqisligi esa o'rmonzorlarning o'sishini sekinlashtiruvchi, mahsuldorligini pasaytiruvchi omilga aylanib qolgan. Umuman, suvlarning atigi 0,001 foizigina daraxtlarning oziqlanishi, qolgan qismi esa, transpiratsiya hamda ularni issiqlikdan saqlash uchun sarf qilinadi.

O'simliklar uchun asosiy namlik manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: havodan yog'adigan yogingarchiliklar — yomgir, qor, do'z; kondensatsion shaklidagi yogingarchiliklar — tuman tomchilari, qirov, shudring — tuproq qatlamlaridagi namlik va yer osti suvlari; daryolar va shirin suv havzalari — koilar.

Maiumki, suv qattiq, suyuq va gazsimon holatda mavjud. Dunyo suv zaxirasining 2,15% i qattiq, ya'ni muz holatidadir. Daryolar, koilar va tuproqdagi chuchuk suvlar umumiy suv zaxirasining atigi 0,635 foizini atmosferadagi suv 0,001 foizini, okeanlardagi suv esa 97,2 foizini tashkil etadi.

Tirik organizmlar tarkibining 70 — 80 foizini suv tashkil qiladi. Umuman, ular suvsiz hayot kechirolmaydi. Masalan, bodring, qulpunay, pomidor, tarvuz va qovun kabi mahsulotlarda suv miqdori 92 — 95 foizdan iborat.

Yer sharidagi suvning 98 foizi sho'r suvlardan iborat. Sho'r suvlarni, maiumki, o'simliklar ham, hayvonlar ham is'temol qilmaydi. Ichimlik suvlari esa atigi 0,066 foizdan iborat. Shuning uchun ham hozirgi paytda ko'pchilik mamlakatlarda suv tanqisligi sezilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligining ham, sanoatning ham rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin va shunday bojiyapti ham. Bu ahvol ke'rajakda yana ham keskinlashishi mumkin. Ko'p

niamlakatlarda esa hozirning o'zidayoq aholini ichimlik suv bilan ta'minlashi murakkab muammoga aylanmoqda. Shuning uchun ichimlik suvlarini saqlash, jilovlash hamda tejab borishda o'rmonzorlarning ahamiyati beqiyosdir.

Dunyoning turli mamlakatlarida inson talablari uchun kishi boshiga bir yilda 60 — 220 tonna suv ishlatiladi. Yer yuzining jami aholisi uchun esa bu raqam bir yilda 400 kubokilometr hajmni tashkil etadi.

Olimlarning hisoblashicha, yer shardagi aholining uchdan ikki qismi toza ichimlik suvi yetishmasligidan, uning iflosligidan qiynalishar ekan.

Iflos suv iste'mol qilish natijasida har yili 500 mln dan ortiq kishi kasallanar va 5 mln dan ortiq bolalar vafot etar ekan. Suvning ifloslanishi va yetishmasligining asosiy sabablaridan biri o'rmonlarning ko'p miqdori kesilib ketishi hisoblanadi.

Janubiy yo'nalishdagi katta nishabga ega bo'lgan qiyaliklarda, hatto, ko'p miqdorda yog'ingarchilik bo'lgan taqdirda ham tuproq unchalik namlikka ega bo'lmaydi. Xuddi shunday sharoitdagi pastliklarda namlikning ko'pligi seziladi. Suvlar daraxtlarning shox- shabballari, barglari orqali o'tib, o'zining kimyoviy tarkibini o'zgartirib, tuproqni boyitadi. Masalan, G'arbiy Sayan tog'idagi yaproqli o'rmonlar ichidan o'tgan yomg'ir suvlarida ochiq joylardagiga qaraganda SaO (uch marotaba), MgO (to'rt marotaba) ko'pligi aniqlangan.

O'rmonlarning bir yilda qancha suv talab qilishi to'g'risida har xil mulohazalar bor. Olimlarning fikricha, o'rmonlarga kerakli namlik 250 — 170 ga teng. Bunday sharoitda o'rmonlar yashay oladi. Ammo Skandinaviyada igna bargli o'rmonlar 300 mm, Sharqiy Sibirda esa 200 mm yog'ingarchilik miqdorida ham yashamoqda, o'fsmoqda, rivojlanmoqda.

Eng yaxshi o'rmonlar Markaziy Yevropada. Bu yerda yog'ingarchilik miqdori 600 — 700 mm ni tashkil etadi. Ammo, o'rmonlar uchun kerakli namlik miqdori (250 — 175 mm) dan qolgan qismi esa bug'lanishga, daraxt barglarida ushlanib qolishga hamda yerning pastki qatlamiga shimilib ketishga sarf bo'ladi.

Yosh nihollarning o'sish paytida namlik yetarli darajada bo'lishi kerak. Shunda ularning saqlanib qolishi ta'minlanadi.

Yoqqan yomg'ir va qorlar o'simliklar uchun kerakli ozuqani (azot kislotasi, ammiak) tuproq orqali yetkazib berdi.

Qishda yoqqan qorlar fizik ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijobiy ta'siri — tuproqning ustki qatlamini va nihollarni saqlaydi, salbiy ta'siri — daraxtlar sinishi, navdalarni esa sovuq urishi mumkin.

Agar qor qalinligi 15 — 20 sm bo'lsa, uning ustki va pastki qatlami o'rtasidagi farq 15 — 20 °C ni tashkil etadi. Qor qalinligi 30 — 50 sm bo'lganda Avstriya tog'larida tuproqning yuqorigi qatlamida harorat 0 °C darajaga teng bo'lgan.

Qorlar ta'sirida ko'pchilik daraxt urug'lari stratifikatsiya (sibir yong'og'i, grek yong'og'i, olcha, olma) holatini bermalol o'tadi. Ammo bahorning oxirlarida yoqqan qorlar yosh nihollarning umumiy ahvoriga, gullashiga, meva berishiga, katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suv balansi kirish qism (yoqqan yog'ingarchilik) va sarflanish qism (bug'lanish), yer ustida suvlarning oqishi, infiltratsiya (tuproqning pastki qatlamlarida namlanish), fitotsenoz bilan akkumlatsiya qilinishi va tuproqdagi mikroorganizmlarning namlikdan foydalanish miqdoridan iborat

**O'rmonlarning yog'ingarchilik miqdorida ta'siri.** Bu masalaning ikki tomoni bor: birinchisi — o'rmonlarning yog'ingarchilik miqdoriga ta'siri bo'lsa, ikkinchisi — o'rmonlarning yog'ingarchilikning taqsimlanishiga ta'siridir.

Horizantal yog'ingarchilik turlariga tuman, shudring, qirov kabilar kiradi.

O'rmonda yog'ingarchilik har xil miqdorda taqsimlanadi. Ko'pchilik yog'ingarchilik miqdori daraxtlarning shox-shabbalari, barglari, tanasida ushlanib qoladi va bug'lanib atmosferaga ko'tariladi. Masalan, shox-shabbalari va barglarida oq qarag'ay - 70 — 80, oddiy qarag'ay — 30, tilog'och esa 15 foiz yog'ingarchilik miqdorini ushlab qoladi.

Daraxtzorlarning pastki qavatida, ya'ni butalarda bu ko'rsatkich 6 %, archazorlarda esa 12 - 20 foizni, yong'oqzorlarda 2-4 foizni tashkil qiladi.

Yoqqan qorning erish ko'rsatkichlari ham o'rmonli va o'rmonsiz joylarda har xil bo'ladi. O'rmonlarda qor erishi 15 — 28 kungacha cho'zilishi bilan farq qiladi.

Demak o'rmonlar yoqqan yog'ingarchilikni qavta taasimlavdi Yog'inlarning 1 — 16 foizi o'simlik yoki daraxt tanasidan oqib tushadi.

O'rmonlarda nisbiy namlik ochiq joylardagiga qaraganda doimo ancha ko'proq bo'ladi va bu farq 5 — 10 foizdan iborat bo'ladi. Havo namligi har doim bug'lanish ko'rsatkichiga ta'sir qiladi.

Tuproqdagi namlik turlari gravitatsion, kapillar, kolloid, plyonkasimon, gidroskopik namliklardan iborat.

Tuproqda namlikning o'tishiga qarab tabiatdagi mavjud muhitlarni,

niamlakatlarda esa hozirning o'zidayoq aholini ichimlik suv bilan ta'minlashi murakkab muammoga aylanmoqda. Shuning uchun ichimlik suvlarini saqlash, jilovlash hamda tejab borishda o'rmonzorlarning ahamiyati beqiyosdir.

Dunyoning turli mamlakatlarida inson talablari uchun kishi boshiga bir yilda 60 — 220 tonna suv ishlatiladi. Yer yuzining jami aholisi uchun esa bu raqam bir yilda 400 kubokilometr hajmi tashkil etadi.

Olimlarning hisoblashicha, yer sharidagi aholining uchdan ikki qismi toza ichimlik suvi yetishmasligidan, uning iflosligidan qiynalishar ekan.

Iflos suv iste'mol qilish natijasida har yili 500 mln dan ortiq kishi kasallanar va 5 mln dan ortiq bolalar vafot etar ekan. Suvning ifloslanishi va yetishmasligining asosiy sabablaridan biri o'rmonlarning ko'p miqdori kesilib ketishi hisoblanadi.

Janubiy yo'nalishdagi katta nishabga ega bo'lgan qiyaliklarda, hatto ko'p miqdorda yog'ingarchilik bo'lgan taqdirda ham tuproq unchalik namlikka ega bo'lmaydi. Xuddi shunday sharoitdagi pastliklarda namlikning ko'pligi seziladi. Suvlar daraxtlarning shox-shabbari, barglari orqali o'tib, o'zining kimyoviy tarkibini o'zgartirib, tuproqni boyitadi. Masalan, G'arbiy Sayan tog'idagi yaproqli o'rmonlar ichidan o'tgan yomg'ir suvlarida ochiq joylardagiga qaraganda  $\text{SaO}$  (uch marotaba),  $\text{MgO}$  (to'rt marotaba) ko'pligi aniqlangan.

O'rmonlarning bir yilda qancha suv talab qilishi to'g'risida har yil mulohazalar bor. Olimlarning fikricha, o'rmonlarga kerakli namlik 250 — 170 ga teng. Bunday sharoitda o'rmonlar yashay oladi. Ammo Skandinaviyada igna bargli o'rmonlar 300 mm, Sharqiy Sibirda esa 200 mm yog'ingarchilik miqdorida ham yashamoqda, o'smoqda, rivojlanmoqda.

Eng yaxshi o'rmonlar Markaziy Yevropada. Bu yerda yog'ingarchilik miqdori 600 — 700 mm ni tashkil etadi. Ammo, o'rmonlar uchun kerakli namlik miqdori (250 — 175 mm) dan qolgan qismi esa bug'lanishga, daraxt barglarida ushlanib qolishga hamda yerning pastki qatlamiga shimilib ketishga sarf bo'ladi.

Yosh nihollarning o'sish paytida namlik yetarli darajada bo'lishi kerak. Shunda ularning saqlanib qolishi ta'minlanadi.

Yoqqan yomg'ir va qorlar o'simliklar uchun kerakli ozuqani (azot kislotasi, ammiak) tuproq orqali yetkazib berdi.



Qushda yoqqan qorlar fizik ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijobiy ta'siri — tuproqning ustki qatlamini va nihollarni saqlaydi, salbiy ta'siri — daraxtlar sinishi, navdalarni esa sovuq urishi mumkin.

Agar qor qalinligi 15 — 20 sm bo'lsa, uning ustki va pastki qatlami o'rtasidagi farq 15 — 20 °C ni tashkil etadi. Qor qalinligi 30 — 50 sm bo'lganda Avstriya tog'larida tuproqning yuqorigi qatlamida harorat 0 °C darajaga teng bo'lgan.

Qorlar ta'sirida ko'pchilik daraxt urug'lari stratifikatsiya (sibir yong'og'i, grek yong'og'i, olcha, olma) holatini bema'lol o'tadi. Ammo bahorning oxirlarida yoqqan qorlar yosh nihollarning umumiy ahvoriga, gullashiga, meva berishiga, katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suv balansi kirish qism (yoqqan yog'ingarchilik) va sarflanish qism (bug'lanish), yer ustida suvlarning oqishi, infiltratsiya (tuproqning pastki qatnalarida namlanish), fitotsenoz bilan akkumlatsiya qilinishi va tuproqdagi mikroorganizmlarning namlikdan foydalanish miqdoridan iborat.

**O'rmonlarning yog'ingarchilik miqdorida ta'siri.** Bu masalaning ikki tomoni bor: birinchisi — o'rmonlarning yog'ingarchilik miqdoriga ta'siri bo'lsa, ikkinchisi — o'rmonlarning yog'ingarchilikning taqsimlanishiga ta'siridir.

Horizontaal yog'ingarchilik turlariga tuman, shudring, qirov kabilar kiradi.

O'rmonda yog'ingarchilik har xil miqdorda taqsimlanadi. Ko'pchilik yog'ingarchilik miqdori daraxtlarning shox-shabballari, barglari, tanasida ushlab qoladi va bug'lanib atmosfera ga ko'tariladi. Masalan, shox-shabballari va barglarida oq qarag'ay - 70 — 80, oddiy qarag'ay — 30, tilog'och esa 15 foiz yog'ingarchilik miqdorini ushlab qoladi.

Daraxtzorlarning pastki qavatida, ya'ni butalarda bu ko'rsatkich 6 %, archazorlarda esa 12 - 20 foizni, yong'oqzorlarda 2-4 foizni tashkil qiladi.

Yoqqan qomning erish ko'rsatkichlari ham o'rmonli va o'rmonsiz joylarda har xil bo'ladi. O'rmonlarda qor erishi 15 — 28 kungacha cho'zilishi bilan farq qiladi.

Demak o'rmonlar yoqqan yog'ingarchilikni qavta taasimlavdi. Yog'ingarchilikning 1 — 16 foizi o'simlik yoki daraxt tanasidan oqib tushadi.

O'rmonlarda nisbiy namlik ochiq joylardagiga qaraganda doimo ancha ko'proq bo'ladi va bu farq 5 — 10 foizdan iborat bo'ladi. Havo namligi har doim bug'lanish ko'rsatkichiga ta'sir qiladi.

Tuproqdagi namlik turlari gravitatsion, kapillar, kolloid, plyonkasimon, gidroskopik namliklardan iborat.

Tuproqda namlikning ortishiga qarab tabiatdagi mavjud muhitlarni,

agar tuproq unumdorligi bir xil bo'lsa, quyidagi gigrog<sup>em</sup> tartibda ko'rsatish mumkin: juda quruq, quruq (toza, yangi), r<sup>im</sup> va xo'i. Bu tartibning cimentlarini o'rmonshunoslikda gigrotfiplsi deyiladi.

## Savollar

1. Namlikning o'simlik hayotiga ta'siri qanday?
2. Tuproqdagi namlik turlarini ta'riflab bering.
3. Yaproq va nina bargli daraxtlarning namlikka bo'lg<sup>an</sup> munosabati qanday?

## Daraxtlarning suvga bo'lgan talabi bo'yicha guruhlarga bo'linishi

Daraxtlarning namlikka munosabatini o'rgangan rus oli<sup>m</sup>i G.F.Morozov daraxtlarning namlikka bo'lgan ehtiyoji (talabi) va muhtojlik kabi ko'rsatkichlarga aniqlik kiritishni taklif etgan.

Ehtivoi, zaruriyat yoki talab bu — muhtojlikning ajralmas qismi bo'lib, o'simlik to'qimalarining turgor holatini, fotosifl<sup>ez</sup> jarayonining normal borishi, nafas olishini kerakli namlik bil<sup>an</sup> ta'minlash demakdir.

Muhtojlik — o'simlikning namlik sharoitiga — muhitga bo'lg<sup>an</sup> munosabati va shu sharoitidan kerakli namlikni tortib (so'rib) oli<sup>h</sup> demakdir. Masalan, sho'rxok va namlik joylarda o'sadigan yulg<sup>un</sup> butasi quruq joylarda umuman o'sa olmaydi, chunki bu o'sim<sup>^</sup> namlikka muhtojdir. Qarag'ay va archaning namlikka zarurati xil bo'lsa ham, ehtiyoji har xil, bir-birlaridan butunlay farq qiladi.

Namlikni yaxshi ko'rishiga qarab, daraxtlarni quyidagich joylashtirish mumkin.

Ultrakserofitlar (qurg'oqchilikka o'ta chidamli) — maks<sup>ovul</sup>, handon pista, bodom, qandim, cherkez, na'matak, cho'l akasi-

Kserofitlar (qurg'oqchilikka chidamli) - qrim qarag'ayi, oc!<sup><</sup>Y qarag'ay, aylant, jiyda, skumpiya, abrikos, mayda bargli qayrag<sup>o'm</sup>, tog' olcha, doiana. Bular namlik yetishmaydigan joylarda o'<sup>sa</sup> oladigan va suv tanqisligiga moslashgan o'simliklardir.

Mezokserofitlar (oʻrta guruh oʻsimliklar) — eman, nok, zarang, gledichiya (tikon daraxti), gilos, olma.

Mezofitlar (namlik va issiqlikka oʻrta talabchan) — joʻka, shumtol, yongʻoq, tilogʻoch, buk, kashtan, qayin, amur barxati, keng yaproqli qayragʻoch, leshina, buzina. Bular qisqa muddatli va uncha kuchli boʻlmagan qurgʻoqchilikka chidamli oʻsimliklardir.

Mezogigrofitlar (namlikka talabchanlar) - tol, behi, terak.

Gigrofitlar (namlik sevuvchilar) - botqoq kiparisi, qora olxa, butasimon oq qayin, jirgʻanoq. Bu tarkibga kiruvchi koʻpchilik oʻsimliklar eng yuqori havo namligi va nam tuproqlarda oʻsadigan va oʻz toʻqimalarida 80 foizdan ortiq namlikka ega turlardir.

Yogʻingarchilik miqdori va oʻrmonlarning tarqalishi. Yogʻingarchilik miqdori nafaqat oʻrmonzorlarning oʻsishiga, balki tarqalishiga ham taʼsir koʻrsatadi.

Oʻrmonlarning tarqalishi, umuman olganda, iqlimning qurgʻoqchilik bilan aniqlanadi, bu koʻrsatkich yillik yogʻingarchilik miqdorining bugʻlanishiga munosabatidan kelib chiqadi. Oʻsimliklarning qurgʻoqchilikka chidamliligini oshirishda koʻpincha ularning ildiz tizimining joylanishi ham alohida ahamiyatga ega. Tarqoq gorizontil ildiz tizimi asosiy ildizlarning rivojlanishiga koʻmaklashishi bilan birga qaragʻay, eman, joʻka, grek yongʻogʻi kabi daraxtlarning qurgʻoqchilikka boʻlgan chidamliligini oshiradi.

Tuproqning ustki qatlamidan bugʻlanish. Daraxt shox-shabbalari orasidan oʻtib, tuproq qatlamiga yetgan namlik bugʻlanish natijasida yana atmosferaga qaytadi. Tuproq ustki qatlamidan bugʻlanish quyidagi omillarga bogʻliq: oʻrmon turi, toʻlaligi, shakli, tuproq ustidagi oʻtlar va butalarning rang-barangligi va shular bilan bogʻliq boʻlgan havoning namligi, shamol, quyosh radiatsiyasi, yer osti suvlarining joylanishi, tuproqning mexanik tarkibi va hokazo. Umuman olganda, oʻrmonlar ostidagi tuproqlar, ochiqdagi tuproqlarga qaraganda namni kam bugʻlatadi.

Yoqqan yogʻingarchilik miqdorining bir qismi oʻrmonlardagi tuproqlardan jarliklarga, daryolarga, keyinchalik esa dengiz va okeanlarga borib quyiladi. Respublikamizda katta daryolar unchalik koʻp boʻlmasa ham, shuningdek oʻrmon bilan qoplangan maydonlar ham oz boʻlsada, lekin togʻ jilgʻalaridan, soylaridan suvlar oqib tushib daryolarga yoki suv omborlariga quyiladi.

Albatta, oqib tushadigan suv miqdori tuproqning holatiga, yomgʻirning yogʻishi va qor erishining tezligiga, qiyalik nishabiga va boshqa koʻpgina omillarga bogʻliqdir.

Yogʻingarchilik miqdorining daraxtlarning shox-shabbalarida ushlab qolingan bir qismi energiya va havoning harakati natijasida bugʻsimon

ma'lumot beradi va shu asos^ shamol kuchini aniqlash shkalasi ishlab chiqilgan.

Shamolning harakatiga o'rmonlar ta'siri 250 m masofada^ o'rmondan qarshi tomonga harakatida esa, 1500 m dan bilij^ boshlaydi. O'rmon ichida shamol tezligi 1 m/s dan oshmaydi. Shuning uchun ham o'rmonlarning ushbu xususiyatida, foydalanish niyatida respublikamizning sug'oriladigan va lal^j yerlarida ihota daraxtzorlari barpo etiladi. Yozning jazirama issiq kunlarida issiq, garmsel, quruq shamollarni to'sish, g'o^l^a ko'chatlarini saqlash, qayta ekishlar oldini olish niyatida ekilgan ihota daraxtzorlarining samarasi katta boimoqda.

### Savollar.

1. Shamolning o'rmonga ta'siri qanday?
2. O'rmonning tabiiy ko'payishida shamol qanday o'rin tutadi?

### O'rmon va edafik omillar

Tuproq (yer) o'simliklar hayotida muhim vazifani o'taydi. (j suv va boshqa har xil moddalarning asosiy manbaidir. Tuproq unumdor va unumsiz boiishi mumkin, unumdor tuproq daraxt va butalarning, umuman barcha o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Unumdor yerda daraxtlar yaxshi o'sadi, ildiz sistemasi yaxshi rivojlanadi va yerga chuqur kirib boradi. Daraxtlar unumdor yerni sevadi. Ayri^ daraxtlar unumsiz yerda ham o'saveradi. Ularni yer unumdorligiga boigan talabiga qarab quyidagi guruhlariga boiish mumkin.

Yer tanlavdisan mecatrof o'simliklar. Bu guruhga kiradigan, o'simliklar faqat unumdor yerlarda o'sadi, unumsiz yerlarda o'sj olmaydi, o'rtacha unumdor yerda ular yaxshi o'smaydi va rivojlanmaydi. Unumdor yerda o'sadigan mecatrof o'simliklarga o'tkir bargli zarang, yavor, grab, qoraqayin, dala zarangi, oq qarag'ay, qayrag'och, amur barxati, oq va sinuvchan tollar, berest, shumtol, yong'oq va boshqalar kiradi.

Yer tanlamavdican oligotrof o'simliklar. Bu guruh o'simliklari unumsiz yerda ham o'saveradi. Ular tuprog'i bo'lmagan yoki oz boigan, tog'jinsiari ochilib yotgan joylarda ham o'sadi. Shubhasiz oligotrof o'simliklar unumdor yerda juda yaxshi o'sadi. Banks va oddiy qarag'ay, qayin, archa va boshqalar oligotrof o'simliklardir.

O'rtacha unumdor yerda o'sadigan mezotrof o'simliklar. Bu guruhga kiradigan o'simliklar o'rtacha unumdor yerlarda tarqaladi. Shubhasizki, unumdor yer ular uchun eng yaxshi sharoit boii, unumsiz yerda yaxshi

o'smaydi va rivojlanmaydi. Masalan, togierak, chetan, qayin, echkitol, qizil eman, qoya emani va oddiy eman, qora qandag'och, mevasi yeyiladigan kashtan, qoraqarag'ay, sibir tilog'ochi, arg'uvon va oq akas o'rtacha unumdor yerlarda o'sadigan mezarot daraxtlardir. Bu uchala guruhga kiradigan o'simliklarning yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun tuproq aeratsiyasi va xarorat rejimi normal boiishi zarur.

O'simliklar yerning unumdorligidan tashqari, ayrim oziq moddalarga talabchan boiishi mumkin. Ba'zilar azotni juda yoqtiradi. Shu sababli ular nitrofil o'simliklar deb ataladi (masalan, berest, qayrag'och, teraklar, shumurt, buzina va boshqalar). Dukkaklilar oilasiga kiradigan daraxtlar, shuningdek, jiyda, qandag'ochning ildizida tuganaklar hosil boiib, ulardagi tuganak bakteriyalari vositasida havodagi erkin azot yerda to'planadi. Daraxt va butalar uchun kalsiy elementi ham muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik yaproqli va ninabargli daraxtlar kalsiyga katta ehtiyoj sezadi, uni o'z tanasida yig'adi, biroq kalsiy o'simliklar uchun oziq modda hisoblanmaydi. U tuproqning fizikaviy va kimyoviy xossalariga, undagi mikrobiologik jarayonlarga ta'sir etib, o'simlik uchun qulay sharoit yaratadi. Agar yerda kalsiy kam boisa, muhit kislotali boiadi. Kalsiy tuzlari tez erimaydigan fosfatlar bilan almashinish reaksiyasiga kirishib, ulami o'zlashtirish mumkin boigan fosfat tuzlariga aylantiradi. Kalsiy tuproqning strukturasi va fizikaviy xossalarini yaxshilaydi.

Tuproq muhiti (rN) daraxtlarning o'sishiga turlicha ta'sir etadi. Masalan, qoraqarag'ay, o'rmon qoraqayini, qayin, chetan, mevasi yeyiladigan kashtan, grab kislotali tuproqda o'sgani holda, buning aksicha, eman, shum, o'tkir bargli zarang ishqorsiz va kam ishqorli tuproqlarda yaxshi o'sadi. Ayrim tuproqlarda uchraydigan turli tuzlar (natriy xlorid, soda, natriy sulfat, kalsiy va magniy) o'simliklariga salbiy ta'sir etadi. Dasht va choi hududlarida zararli tuzlarga boy boigan maydonlar ko'p. Bu yerlarda o'sadigan daraxt va butalar, sho'r va sho'rxok tuproq sharoitiga moslashgan boiib, bemalol o'saveradi.

Daraxt va butalarning sho'rga chidamliligi har xil turlarda birday emas. Masalan, yulg'unning ayrim turlari sho'rxok tuproqlarda bemalol o'saveradi, chunki assimilatsiya qiluvchi hujayralari orqali tuzni tashqariga chiqarib yuborish xususiyatiga ega. Qora saksovul, oq changal butalari, ingichka bargli jiyda, turanga teraklari, zangor tol kuchsiz sho'rxok tuproqli yerlarda o'sadi. Turang'il teraklariga nisbatan oq va qora teraklar sho'rxokga kamroq chidamli. Bularga nisbatan gledichiya, ayniqsa, sulfatli tuproqqa chidamli. Tuproqning qisman sho'rxoklanishiga ko'p turlar chidamli boiadi. Tuproqning sho'rxoklanishiga qirgiz qayini, so'galli va tukli qayinlar, tog'terak, eldar

qarag`ayi, uch ninabargli oddiy qarag`aylar ham bardosh beradi.

Yer ustining tekis yoki notekis tuzulishi uning relefidir. U yerning dengiz sathidan turli balandlikda boiishini, tog` qiyaliklarining tikligini, ularning yo`nalishi va boshqalarni o`z ichiga oladi. Relif o`simliklarga bevosita ta`sir etmasa-da, ekologik omillarga, jumladan, iqlim va tuproq qatlamiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Ular o`z navbatida o`simliklarga ta`sir etadi. Dengiz sathidan yuqoriga ko'iarilgan sayin har 100 m da havo harorati

0, 6 — 1,0 °C gacha pasayadi, namligi ortadi, juda baland ko'iarilgan sari bunday o`zgarishlar natijasida tog` o`simliklari paydo bo'la boshlaydi, ular tundra o`simliklariga o'xshab ketadi. Turli balandliklarda o`simliklarning tarkibi har xil boiadi va vertikal zonallik vujudga keladi. Ekologik omillarning turlicha taqsimlanishi o`simliklar hayotida ayniqsa katta rol o'ynaydi. Masalan, janubiy qiyaliklarda harorat shimoliy qiyaliklarga nisbatan issiqroq, lekin tuproq qatlami yupqa boiadi. Bu yerda o`sadigan o`simliklar issiqqa moslashgan boiadi. Shimoliy qiyaliklarda esa buning aksicha, tuproq qatlami qalin, lekin harorat biroq past boiib, o`simliklar o'rtacha namlikka talabchan boiib shakllanadi.

#### **Savollar.**

1. Edafik omillar nima?
2. Oligotrof o`simliklar nima?
3. Megatrof o`simliklar nima?

#### **Tuproq muhiti. O`rmon va biotik omillar**

Tuproq — suv, havo va turli organizmlarning birgalikdagi ta`siri natijasida tog` jinslarining tabiiy holda o`zgargan tashqi qatlamidir. Tuproqning muhit sifatida organizm uchun ko`rsatadigan asosiy xususiyatlariga uning tabiiy va kimyoviy tarkibi hamda unda moddalarning aylanib turishi, ya`ni gazlar, suv, organik va mineral moddalarning ion holdida aylanishlari kiradi. Shu bilan birga, tuproqda yashovchi o`simlik va hayvon turlari uning tabiiy- kimyoviy xususiyatlarining o`zgarishiga ham sababchi boiadi.

Tuproqdagi muhitning o`zgarishi organizmlarning bir qatlamdan ikkinchi qatlamga ko`chib oiishiga sabab boiadi. Undagi asosiy organik moddani o`simlik tashkil etadi. O`t o`simliklar ildiz tizimlari tuproqda chirib gumus moddasini hosil qiladi, hayvonlar esa ularni maydalab kimyoviy o`zgarishga hamda ushbu organik qoldiqlarga tezda mikroorganizmlarning kelib hayot kechirishiga sharoit yaratib beradi. Tuproqdagi organizmlar har xil oichamga ega va turli muhit hosil qiladi. Shuning uchun tuproqda tarqalgan o`simlik va hayvonlar oichamiga

qarab, ya'ni kichik oichamdagilar *mikroflora* va *mikrofauna* (0,002 — 0,2 mm), o'rtacha kattalikdagi *mezofauna* (0,2 — 2,0 mm), *mikrofauna* (2 — 20 mm) hamda *megafauna* (20 — 200 mm) kabi guruhlarga ajratiladi. Tuproq mikroflorasini tashkil etishda bakteriyalar, aktinomitsedlar, zamburug'lar va suv o'tlari ishtirok etadi. Xivchinlilar, soxta oyoqlilar, infuzoriyalar tuproq mikrofaunasi hisoblanadi. Ular tuproq zarrachalari yuzasida suv bilan toigan bo'shliqlarda yashaydi.

O'rmon o'sish sharoitlari ikkita turga bo'inadi, ya'ni biotik va abiotik. Biotik sharoitlar o'simliklar, hayvonlar va mikro-organizmlar tomonidan barpo qilinadi. O'simliklar o'rtasidagi aloqalar (munosabatlar) foydali bo'lib, ularning rivojlanishiga yordam berishi yoki aksincha, qarama-qarshi, ya'ni antagonistik raqobat asosidagi aloqa bo'lishi ham mumkin. O'rmonlarning tuproqdagi ozuqa moddalaridan foydalanishda mikroorganizmlarning roli katta, ular ko'pincha ildizning rizosfera qismida joylashgan bo'лади. O'simliklar va mikroblarning birgalikda yashashiga simbioz deyiladi. Ammo oimonlarda ko'proq parazit hayot kechirish uchrab turadi, ya'ni birga yashagan bir parazit boshqasining ozuqa moddalari hisobiga hayot kechiradi. O'rmon abiotik sharoitlariga iqlim va edafik omillar kiradi. Iqlim omillarga: issiqlik, namlik, yorug'lik, havo, shamol va tuproq kabilar kiradi. Edafik omillar: tuproq sharoiti (mexanik tarkibi, namligi, harorati, har xil kimyoviy moddalar tarkibi), yeming tuzilishi va boshqalar.

Biotik munosabatlar yoki biotik omillar deyilganda, barcha tirik organizmlarning yashash jarayonida o'zaro bir-biriga nisbatan ma'lum munosabatda bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Bu organizmlar o'z hayot jarayonlari davomida normal yashash, hayot kechirish, urchish, tarqalish uchun tashqi muhit bilan ham ma'lum munosabatda bo'лади. Natijada organizm o'sadi, rivojlanadi, nasi qoldiradi va hayotining so'nggi bosqichida halok bo'лади. Shunday qilib, biotik omillar quyidagi hollarda: 1) o'simliklarning o'simliklarga; 2) o'simliklarning hayvonlarga; 3) hayvonlarning o'simliklarga; 4) hayvonlarning hayvonlarga; 5) mikroorganizmlarning o'simlik va hayvonlarga; 6) o'simlik, hayvon va mikroorganizmlarning o'zaro bir-biriga ta'sirida yaqqol namoyon bo'лади. Bu xildagi ta'sirlar bilan birma-bir tanishib chiqamiz.

O'simlikning o'simliklarga ta'siri deyilganda, bir turning ikkinchi turga ta'siri yoki bir turga kiruvchi individlarning, populatsiyalarning bir-biriga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi. Bunday ta'sir natijasida ular o'sadi, rivojlanadi. Urug'-meva (yoki spora) hosil qilib, kengroq tarqaladi. Demak, avvalo, har bir o'simlik yashash uchun kurashadi.

Bunday kurash jarayonida o'simliklar hayotida parazitlik (tekinxo'rlik), simbiozik (o'zaro hamkorlik), neytrallik kabi munosabatlar vujudga keladi.

O'simliklarning hayvonlarga ta'siri ba'zi zaharli o'simliklar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Tarkibida zaharli moddalar mavjud bo'lgan o'simliklar (zaharli aviqtovon, kampirchopon, qirqbo'g'im, kakra, bangidevona, mingdevona va hokazolar) hamda 500 ga yaqin o'simliklar (rosyanka, aldrovanda, venerin pashshatutari, nepentes, puzirtachka, suv qaroqchisi, saprasheniya) ning hayvonlar bilan oziqlanishi fanga ma'ium.

**Savollar:**

1. Edafik va biotik omillar nima?
2. O'rmondagi mikrofauna nima?
3. O'rmon tuproqlarining qanday turlari bor?

### **Daraxt va faunaning bir-biriga bog'liqligi. Antropogen omillar**

O'rmon, bu — daraxtlar uchun o'sib-rivojlanish makoni, shu joydagi o'simliklar va hayvonlarning bir-biriga moslashuvi va birgalikda rivojlanishi uchun mos makondir. Yer qoplanidagi o'simliklar dunyosining jo'g'rofiy mintaqalarida yuz beradigan o'zgarishlar o'rmon faunasi tarkibiga ta'sir ko'rsatadi.

Qushlar, hayvonlar hamda mikroorganizmlar o'rmon komponentlari hisoblanadi. Daraxtzorlar, o'tlar, butalar ozuqa hisoblanishi bilan bir qatorda fauna uchun yashash joyi hamdir. Ular o'rmonlarda uya quradilar, sovuq va issiqlikdan hamda yirtqich hayvonlardan saqlanadilar.

Boshqacha qilib aytganda, o'simliklar organik moddalardan ozuqa sifatida foydalanib, hayvonlar bu moddalarning parchalanishi va minerallashishiga olib keladi.

Hayvonlarning ko'pchiligi yer usti tabiiy tuproq qatlamini o'z harakatlari bilan o'zgartirib, har xil mikroreleflar sodir qilib, tuproqning qayta taqsimlanishiga olib keladi, suv o'tkazish, bug'lanish ko'rsatkichiga ijobiy ta'sir etadi. Ayniqsa, qushlar o'rmonning har xil zararkunandalardan forig<sup>1</sup> bo'lishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamiz geografik mintaqalariga qarab, o'simlik dunyosining o'zgarishi bilan fauna o'zgarib boradi. Masalan, qo'ychilik cho'l mintaqasidagi tabiiy o'sha yer va joyning iqlim sharoitiga moslashgan: (sayg'oqquyon), shuningdek, tog' mintaqasining o'ziga xos hayvonot dunyosi bor, chunki bu yerdagi hayvonlar uchun yilning hamma faslida ozuqa topish imkoniyati bor. Umuman o'lganda, hayvonot dunyosining tarqalishida, yashashida asosiy rolni o'simliklar o'ynaydi, chunki ular



iqlim o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.

O'rmon hayotida chuvalchanglarning roli katta. Ularning ko'pligi natijasida daraxtlar tagida barglar, o't-o'lanlar va boshqa daraxt qoldiqlarining chirish jarayoni tezlashadi, tuproq azot bilan boyiydi. Ular o'z organizmlari orqali bir gektar yerdagi 40l ga yaqin tuproqni o'tkazib, uni yuqori qatlamga chiqaradi. Natijada tuproqning xossalari yaxshilanadi.

Fauna o'rmon hayotida ikki xil vazifani bajaradi, ya'ni foydali va zararli. Bu holat o'rmonlarning turiga, tarkibiga, yoshiga, yilning fasliga bevosita bog'liqdir.

Yerning o'simlik qatlami o'zgarishi bilan jug'rofiy mintaqalarda yashaydigan hayvonlar, umuman fauna o'zgaradi. Tundranning sovuq iqlimida shimol bug'ulari bemalol yashayveradi. Rossiyaning shimol o'rmonlarida ayiqlar, bo'rsiqlar, tulkilar, norkalar (qora quzan), suvsarlar, yonotsimon itlar juda ko'p. Bu yerlarda ko'pdan- ko'p los to'dalari, yowoyi cho'chqalar bor.

Taygada ham har xil hayvonlar ko'p. Bu yerda qora qarag'aylar va oq qayin o'rmonzorlari juda ko'p qushlar bilan toia. Bo'rilar, bug'ular, ayiqlar tayganing asosiy hayvonlari hisoblanadi. Aralash o'rmonlarda esa o'rmon suvsari, qora sassiq, kiyiklar, yevropa yowoyi mushugi, daraxt qurbaqasi, kaltakesaklar, oq tumalar yashaydi. Ayrim joylarda zubrlar podasini uchratish mumkin.

Rossiyaning janubiy mintaqalarida esa daryo bo'ylaridagi o'rmonlarda har xil g'ajuvchilar va yirqich qushlar uchraydi va yashaydi. Dashtda esa sayroqlar hayot kechiradi. Burgutlar uchrab turadi. O'rmonlarda yomg'ir chuvalchanglarning ko'payishi tuproq unumdorligidan dalolat beradi. Masalan, bir gektar emanzorlar tagidagi tuproqning yuqorigi qatlamida 7,0 mln, qum tuproqli yerlardagi qarag'ayzorlarda esa atigi 100 ming donagacha chuvalchanglar uchraydi.

O'rmonlarda ko'plab mollyuskalar hayot kechiradi. Ko'pgina O'rgimchaklar har xil zaharli qurtlarning lichinkalarini o'ldiradilar. Ayniqsa, asalarilar o'rmonlarga ko'p foyda keltiradi, ular ko'plab o'rmon o'simliklarining changlanishini ta'minlaydi. Chumolilar esa zaharli hasharotlarni yo'q qiladi. Ularning bir koloniyasi bir kunda 100 donagacha hasharotni, yoz fasli davomida esa 5,0 mln donagacha yo'q qiladi.

Umuman, hayvonot dunyosining ta'sirida biologik muvozanat paydo bo'ladi.

## Savollar:

1. Antropogen omillar nima?

### Daraxtlarning o'sish tezligi va uning sinflanishi

O'rmonlarning o'sishi — uning balandligi, diametri, hajmi va og'irligining ortishidan iborat. Daraxtlar soni yoki bitta daraxt yoki umuman daraxtzor hajmining ortishi (ko'payishi) o'sish deyiladi. 1 Bir yil davomida bo'lsa, yillik o'sish deyiladi. Ma'lum bir necha yillar davomida o'sishi esa davriy o'sish deyiladi. Daraxtning o'rtacha arifmetik umri davomida o'sishi o'rtacha o'sish deyiladi.

Daraxtlarning balandligiga qarab o'sishi, ularning yoshlik vaqtida har xil bo'adi. O'sish darajasiga qarab tez va sekin o'suvchi daraxtlar 1 turlariga bo'linadi. Uaig'idan katta bo'layotgan daraxtlarga nisbatan parheshlanib va to'nkasidan ko'payayotgan o'simliklarning o'sishi tezroq bo'ladi. Lekin asta-sekinlik bilan urug'idan rivojlanayotgan daraxtlar o'z ko'rsatkichlari bo'yicha vegetativ usul bilan yetishtirilayotganlariga yetib olib, keyinchalik ulardan o'zib ketadi. ]

Tez o'suvchi daraxtlar 30 — 50 yoshlarida o'zining eng yuqori balandligiga yetadi, undan keyin esa o'sishi sekinlashadi yoki umuman to'xtaydi. Sekin o'suvchi daraxtlar 5 — 20 yil mobaynida juda ham sekin rivojlanadi, eng yuqori balandligiga esa 80 — 120 yoshida yetadi. Umuman olganda, daraxtlarning o'sish tezligi quyidagi holatlarga bog'liq:

- a) daraxtlarning biologik xossalari;
- b) o'sish joylarining sharoitlari va xususiyatlari;
- d) daraxtlarning kelib chiqishi;
- e) ichki muhit (qo'shni daraxtlar, ular o'rtasidagi raqobat va boshqalar) ta'siri;
- f) daraxt yoshi, o'sish tezligiga qarab daraxtlar quyidagicha taqsimlanadi: terak, tol, oq akas, tilog'och, oq qayin, qora olxa, qayrag'ochlar, qarag'ay, zarang, shumtol, qora yong'oq, grek yong'og'i, eman, grab, qora qayin, tog' archazorlarining barcha turlari, tyan-shan archasi, tiss.

Daraxtlarning o'sish tezligi ularning yoshi bilan bevosita bog'liqdir.

Daraxtlarning ichida yoki o'rmonsiz maydonlarda yosh nihollarning paydo bo'lishiga — o'rmonning tabiiy tiklanishi deyiladi. Bu jarayon tabiiy va sun'iy yoki aralash bo'lishi mumkin. Tabiiy sharoitda

o'rmonlar tiklanishida inson aralashmaydi. Sun'iy daraxtzorlarni yaratish esa inson tomonidan maxsus daraxt urug'ini sepish yoki ko'chatlarni ekish (o'tqazish) yo'li bilan amalga oshiriladi. Daraxtlarning urug'idan va vegetativ ko'payish va ko'paytirish usullari mavjud.

Tuproq, atmosfera va daraxtzor o'rtasida o'zaro uzilmas ko'p qirrali harakat jarayoni hukm suradi. Shu bilan birga, bir vaqtning o'zida, daraxtzor tuproqqa va atmosferaga ma'lum miqdorda boshqa sifatda energiya qaytaradi. Daraxtlar o'rmonzorlarda o'zaro munosabatda harakat qiladi va bu harakat shakli har xil bo'lishi mumkin.

Aralash o'rmonlarda daraxt va butalarning uch turdagi o'zaro munosabatlari aniqlangan:

1. Birinchi yarusdagi alohida daraxt turlari o'rtasida;
2. Birinchi yarus daraxtlari va ikkinchi (uchinchi) yarusdagi boshqa daraxtlar o'rtasida;
3. Birinchi yarus daraxtlari va butalar o'rtasidagi munosabatlar.

Daraxtlar va butalar o'rtasidagi bu o'zaro munosabatlar o'sish sharoitlari, qalinlik va daraxtzor yoshi bilan aniqlanadi. Albatta, raqobatbardoshlikka chidamli daraxt yoki butalar yashash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman, o'rmonshunoslikda bir necha o'zaro munosabat turlari aniqlangan. Ular geneologik, fiziologik, biotrofik, biofizik, mexanik va alelopatik turlardan iborat.

Daraxtzorlarda ba'zi daraxtlar quriydi, nobud bo'ladi. Ammo o'rmon, umuman olganda, avlodlarning uzluksiz almashinishi natijasida yashayveradi.

Umuman, daraxtzorlarning 6 ta o'sish va rivojlanish bosqichi bor:

1. Nihollik davri — bir yoshgacha;
2. Yoshlik davri — yumshoq barglilarda — 10 yoshgacha; igna barglilarda — 20 yoshgacha;
3. Balog'atga yetgan davri — igna barglilarda — 21 — 40 va keng yaproqlilarda 11 — 20 yoshgacha;
4. O'rta yoshli bosqich — igna barglilarda — 41 — 60 yosh, keng yaproqlilarda 21 — 30 yosh;
5. Daraxtlarning pishib yetilgan davri;
6. Daraxtlarning qarilik davri — 40 yoshdan oshiq (igna barglilar uchun), 61 yosh — keng yaproqli daraxtlar uchun.

O'rmon rivojlanishi, deb o'rmonlarning o'sish va shakllanish jarayonida bo'ladigan sifat o'zgarishlarga aytiladi.

Masalan, bir xil o'sgan daraxtlar hosildorligi bilan bir-biridan farq qiladi. Chunki ularning ichki rivojlanishi har xil tarzda o'tadi.

Bir xil daraxtlar bir yoshda va o'sishi ham teng bo'lsada, hosil ] berishga

har xil vaqtda kirishi mumkin. Daraxtlarning o'sishi va ularda bo'ladigan sifat o'zgarishlar iqlim omillariga, ya'ni suv rejimi hamda tuproq boyligi va insonning amaliy ish yuritishiga bog'liqdir.

Daraxtlarning o'sishi va rivojlanishi vaqt va tashqi sharoit bilan bog'langan. Yosh daraxtlar uncha rivojlanmagan ildiz tizimi va ko'p bo'lmagan barglar bilan qoplangan bo'ladi.

### **Savollar:**

1. Daraxtlarning o'sish tezligining tuproq tarkibiga bog'liqligi.
2. Daraxtlarning sinflanishi.

#### **1.4. Yer yuzida daraxt turlarining tarqalishi va introduksiya qilish**

Tur organizmlar yig'indisi bo'lib, har bir organizm aniq ko'rinib turadigan doimiy irsiy belgilari bilan bir-biridan farq qiladi. O'simliklarni o'rganishda va ulardan amalda foydalanishda ularning tur belgisi katta ahamiyatga ega. Tur o'simliklar sistematikasida, geografiyasida ularning yashab turgan muhitdagi hayotiy omillar bilan munosabatida va boshqa o'simliklar bilan bog'lanishida, seleksiya hamda duragaylash ishlarida asosiy sistematik birlik hisoblanadi. Har bir tur tabiatda ma'lum hududda yoki mintaqada tarqalgan bo'lib, bu joy uning areali deb ataladi. Turni bunday ifodalash juda qisqa bo'lsada, u asosiy maqsadni tushuntira oladi. Agar turni kengroq mazmunda ifodalasak, ya'ni tur arealida xilma-xil sharoitda o'sayotgan turchalarni o'zaro taqqoslab ko'rsak va tur hayotidagi tarixiy omillarni hisobga olsak, turlar arealida aniq chegara bo'lmasligi va u taxminiy ekanligi ko'rinib qoladi. Masalan, qarag'ay turkumiga kiradigan sibir kedri Sibirda o'sadi, shu turkumga kiradigan Yevropa kedri G'arbiy Yevropa tog' o'rmonlarida uchraydi. Bular morfologik jihatdan bir-biridan kam farq qiladi, ya'ni yevropa kedrining qubasi va urug'i sibir kedrinikiga nisbatan maydaroq bo'ladi.

Daraxtlar turi geografik sharoitga, turli tarixiy sabablarga, boshqa organizmlar bilan munosabatiga va inson ta'siriga ko'ra, yer yuzida qonuniyat asosida tarqalgan. O'simliklarning yer yuzida taqsimlanishi ularning biologik, ekologik, ko'payish va tarqalish xususiyatlariga hamda tashqi sharoitga moslanishiga bog'liq.

Yuqoridagi omillar hamma vaqt o'zgarib turadi, o'z navbatida, o'simliklarning tarqalishiga turlicha — faol yoki past darajada ta'sir etadi. Inson esa ularning tarqalishiga kuchli ta'sir etadi va arealini ham o'zgartirib yuboradi. O'simlik turlari tarqalgan va egallab olgan hudud yoki mintaqa areal deb ataladi. Tur katta materikni yoki biror hududni ishg'ol qilishi mumkin. Shunga ko'ra o'simliklar areali katta va kichik

bo'ladi. Odatda areali katta turlar asosan kichik turlarga nisbatan oz bo'ladi. Turlar arealini katta-kichikligiga qarab to'rtga: kosmopolit areal, keng areal, tor areal va endemik turlar arealiga ajratish mumkin.

**Kosmopolit arealli o'simliklar.** Bu arealni hosil qiluvchi turlar turli tabiiy hududlarda tarqalgan bo'lib, bir necha materikni egallaydi. O'tgan geologik davrlarda, jumladan, toshko'mir davrida, yer yuzida iqlim bir xilda bo'lib, o'simliklar tarkibi ham bir xil bo'lgan. Hozir yer yuzida iqlim nihoyatda xilma-xil, turli mamlakatlarda o'simliklarning tur tarkibi ham har xil. Bunday sharoitda ma'lum o'simliklarga moslashib tarqala olishi mumkin. Daraxtlar ichida ko'p tarqalgan va kosmopolit areal hosil qiladigan turlar yo'q. Asosan o'tlar kosmopolit arealli bo'ladi. Masalan, qamish, qoqio't ana shunday o'simliklardir.

**Keng arealli o'simliklar.** Bu xil arealni hosil qiluvchi turlar bir necha materikni va ular oralig'idagi bir necha hududni ishg'ol qiladi. Masalan, o'ddiy qarag'ay, tog'terak va so'galli qayin ana shunday turlardir.

**Tor arealli o'simliklar.** Bu xil arealni hosil qiluvchi turlar biror materikning ma'lum qisminigina ishg'ol qiladi. Bunga qoraqayin, shum, grab va zarnab daraxtlari arealini misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Endemik turlar areali.** Bu turlar areali nihoyatda cheklangan bo'ladi. Ular ma'lum geografik hududdagina o'sadi. Masalan, kavkaz qoraqarag'ayi, kavkaz oqqarag'ayini ko'rsatish mumkin. Ular faqat Kavkazning g'arbiy qismida tarqalgan. Handon pista butasini olsak, u O'rta Osiyo respublikalarida va Eronning tog' etaklarida o'sadi. Eldor va pusindski qarag'aylar Kavkazortida tarqalib, kichik maydonni ishg'ol qiladi. Gratsioz oqqarag'ayi Kamchatkaning sharqiy qirg'og'ida o'sadi, xolos. Endemik turlar tog'lik rayonlarda va orollarda ham ko'p uchraydi.

Har xil sharoitda o'sa olmaydigan o'simliklar arealda kam uchraydi va ma'lum sharoitdagina o'sadi. Masalan, botqoqlikda, qumda, suvda o'sadigan O'simliklar boshqacha sharoitda o'sa olmaydi. Arealning markazida chetiga nisbatan odatda tur shakllari hamma vaqt tekis tarqaladi. Masalan, eman, shum, arg'uvon, qoraqarag'ay o'z arealining janubiy va shimoliy chekkalarida faqat ayrim uchastkalardagina uchraydi.

O'simliklar areali yaxlit, uzuq-uzuq va lentasimon bo'ladi. Agar tur bir joyda bo'lsa va bir tekis tarqalib, ma'lum xududni ishg'ol qilsa, yaxlit areal deb ataladi. Agar tur tarqalgan maydon ikkita yoki undan ko'proq qismga bo'linib ketsa yoki shu tur ayrim oraliqlarda joylashsa va bir-biridan biroz uzoq masofada bo'lsa, uzuq-uzuq areal deb ataladi.

O'simliklar areali quyidagi jarayonlar kechadi:

1. Yer yuzining geologik o'zgarishi, dengizlar, tog'larning paydo bo'lishi, iqlimning o'zgarishi, muzliklar paydo bo'lishi.
2. Hayvonlar tomonidan turning iste'mol qilinishi.
3. O'simliklarning qushlar yordamida va shamol vositasida tasodifan

uzoq tumanlarga, arcaldan chetga tarqalishiga ko'ra uzilib qolishi.

Arealni inson ham uzib qo'yishi mumkin. U o'zi uchun foydali o'simlamlarni bir hududdan ikkinchi hududga ko'chiradi va ularni tarqatadi.

### **Dendroflorani introduksiya qilish va iqlimlashtirish**

Qadimgi dehqonchilik davridan boshlab odam tabiatda o'zining ehtiyoji uchun kerak bo'lgan foydali o'simliklarni bir joydan ikkinchi joyga olib borib ekib, ularni ko'paytirgan va foydalanib kelgan. Keyingi vaqtlarda bu ish shu qadar avj oldiki, natijada yovoyi holda o'sib yotgan ko'p o'simliklar madaniy turlarga aylangan. O'simliklar yer yuzida faqat odam yordamida tarqalmagan, ularning mevasi va urug'lar qush va hayvonlar vositasida, shamolda uchib, suvda oqib tabiatda keng yoyilgan.

Hozirgi vaqtda istagan biror mamlakatning flora tarkibi bilan tanishsak, unda yovoyi va boshqa mamlakatlardan keltirilgan har turli madaniy o'simliklarni ko'rish mumkin. Masalan, MDH florasida yovoyi daraxt va butalarning 2890 dan ortiq turi bo'lib, shulardan 200 ga yaqini introduksiya qilingan. O'simliklar introduksiyasi tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiy introduksiya qushlar, hayvonlar, shamol va suv omillari vositasida ro'y beradi.

Shuningdek, transportda yuk tashish vaqtida va boshqa shu kabi omillar tufayli ham o'simliklarning urug'i ongsiz ravishda boshqa mamlakatlarga tasodifiy tarqalishi va u yerlarda unib ko'karishi ko'payishi mumkin. Sun'iy introduksiya ko'pincha odam ta'sirida ongli ravishda ro'y beradi. Odam buning uchun o'simliklarni tanlab olib, ma'lum maqsadda yangi sharoitda o'stiradi va tarqatadi.

O'simliklar bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilganda yangi sharoitda yaxshi o'sib ketishi, yangi iqlim va tuproqqa moslashishi mumkin. Bu hoi o'simlikning tabiiylashishi deb ataladi. Buning aksicha, o'simlik yaxshi o'smasa yoki qurib qolish ehtimoli bo'lsa, uning o'sishi uchun zarur bo'lgan choralar ko'riladi. Agar introduksiya qilinayotgan o'simlik o'z vatanida qumli yoki toshli, yo bo'lmasa sho'rxok, ohakli tuproqlarda o'sgan bo'lsa, yangi joyda tuproqqa qum, tosh zarur bo'lsa, tuz va ohak aralashtiriladi. O'simlik bu usulda parvarish qilinsa, yangi joyda ancha yaxshi o'sadi.

Haqiqatan ham o'simliklar yosh vaqtida yangi sharoitga oson moslashadi va bu moslashish xususiyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Agar introduksiya qilinayotgan O'simlik foydali bo'lsa-yu, lekin yangi joyda yaxshi o'smasa, unga aktiv ta'sir ko'rsatib, tabiati o'zgartiriladi va qimmatli yangi duragay yaratiladi. Buning uchun yomon o'sayotgan tur bilan yaxshi o'sayotgan tur chatishtiriladi uning irsiy belgilari o'zgartirilib, yangi duragay chiqariladi. Bu yangi duragay muayyan sharoitda vujudga kelgani uchun shubhasiz, shu yerda o'sadigan organizm bo'lib yetishadi. Duragaylash yo'li bilan o'simlikni yangi sharoitga moslashtirish iqlimlashtirish (aklimatizatsiya) deb ataladi. I.V. Michurin shu usul bilan mevali daraxtlarning yangi-yangi duragaylarini yaratdi. Janubiy mintaqalarda o'sadigan va xo'jalikda katta ahamiyatga ega bo'lgan turlar va navlar shimoliy mintaqalarda o'sadigan turlar va navlar bo'lib yetishdi. Bu sohada I.V. Michurinning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi. Uning buyuk ishlarini shogirdlaridan V.N. Sukachev, A.S. Yablokov, S.S. Pyatniskiy, A.V. Albenskiy, F.L. Shepyetev, P.L. Bogdanov, F.N. Rusanov, A.M. Berezin va boshqalar davom ettirdilar.

Daraxt va butalarning tur xillaridagi fasliy hodisalarni o'rganish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki tur xillarining ayrimlarida vegetatsiya — barg yozilishi, gullashi, barglarning sarg'ayishi to'kilishi kabi va boshqa hodisalar turli muddatda o'tishi mumkin. Ba'zi tur xili vegetatsiyasini 10 kun ilgari boshlasa, ikkinchisi 10 kun keyin boshlaydi. Shuningdek, fasliy hodisalarning boshqa fazalari ham ketma-ket turli muddatda o'tishi mumkin.

Daraxt-butalarning bargi yashil davri davomli bo'lishi, shox-shabbasining kuzda sariq, qizg'ish va pushti rangga kirishi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu hodisalar turar joylarni ko'kalamzor-lashtirish va

shakl berib oʻstirish uchun daraxt va butalarni tanlab olishga imkon beradi. Fasliy hodisalarni kuzatish natijasida olingan maʼlumotlarga asoslanib, tur va tur xillarining fenospektrini va fenoxaritasini tuzish mumkin. Bular qaysi turni qaysi iqlimda oʻstirishni va ulardan qanday foydalanishni aniqlashga imkon beradi.

Oʻsimlildarning hayotidagi doimiy hodisalarni iqlim sharoitiga nisbatan oʻrganish fenologik kuzatuv deyiladi. Oʻsimliklarning fasliy hodisalarini bilmaguncha, biologik, ekologik va boshqa xususiyatlarini aniqlash mumkin emas.

Fasliy hodisalarni oʻrganish maqsadida daraxt va butalarning turli faslda rivojlanishi kuzatib boriladi. Fasliy hodisalarni bir yoki bir necha geografik hududda kuzatish mumkin. Bunday kuzatish natijasida oʻz hayotida maʼlum rivojlanish davrlarini oʻtishi va bu davrlar har turlarda turli muddatda boʻlishi aniqlanadi. Fasliy hodisalar qonuniyatlarini bilish daraxt va butalarni qanday iqlim sharoitda ekish, tarqatish va ulardan toʻgʻri foydalanishga imkon beradi. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida, jumladan, oʻrmon xoʻjaligida turlarni rayonlashtirishda bu kuzatishlar muhim rol oʻynaydi.

Daraxt va butalar hayotini va ulardagi fasliy hodisalarni oʻrganish maqsadida quyidagi kuzatishlar olib boriladi:

- oʻsimliklar tanasida shira harakati boshlanishi;
- barg kurtak va gul kurtaklarning boʻrtishi;
- kurtaklarning yozilishi;
- yangi kurtaklarning paydo boʻlishi;
- boshlangʻich-birinchi bargning paydo boʻlishi;
- barglarning toʻliq ochilishi;
- barglarning sargʻaya boshlashi;
- barglarning toʻliq sargʻayishi;
- barglarning toʻkila boshlashi;
- barglarning batamom toʻkilishi;
- gullashning boshlanishi;
- gullarning toʻliq ochilib boʻlishi;
- gullash darajasi;
- meva va urugʻlarning yetila boshlashi;
- meva va urugʻlar yetilishining oxiri;
- meva va urugʻlarning toʻkila boshlashi;
- meva va urugʻlarning toʻliq toʻkilishi;
- hosildorlik darajasi;
- ustki navdalarining oʻsishi va oʻsishdan toʻxtashi;
- yon navdalarining oʻsishi va oʻsishdan toʻxtashi.

Oʻrmon xoʻjaliklarda dastlab oddiygina vaqtli kuzatishlar olib boriladi. Bundan maqsad urugʻlarning hosildorligini aniqlash, mevalarni



terishni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni o'z vaqtida hal qilishdan iboratdir. Vaqtli kuzatuvlar olib borilayotganda, albatta, faslning meteorologik xususiyatlari hamda har xil tabiiy hodisalarning hosilga bo'lgan ta'siri o'rganiladi va kuzatib boriladi.

Vaqtli kuzatuvlarda asosiy o'rmonlarni tashkil qiluvchi daraxt, butalar navdalari ustidan nazorat qilinadi. Hozirgi vaqtda o'rmon xo'jaligi korxonalari fenologik kuzatuvlar o'tkazib, olingan raqamlar o'rmon bosh boshqarmasiga ko'rsatilgan vaqtda yuboriladi. Masalan, quyidagi daraxt turlari bo'yicha vaqtlar shunday o'rnatiladi. Oq qayin 1 iyun, eman daraxti 1 avgust, jirg'anoq 1 avgust, qorasaksovu 1 oktabr, yong'oq 15 iyul, handon pista 1 iyul. Vaqtli kuzatuvlar uchun asosiy javobgar etib bosh o'rmonchi tayinlanadi, bajaruvchilar korxonada mutaxassislari hisoblanadi. Nazorat esa bosh boshqarma yoki viloyat boshqarmalari hamda hududiy o'rmon urug'chiligi stansiyasi zinmasiga yuklanadi. Vaqtli kuzatuvni va hosil hisobini alohida ajratilgan daraxtlarda hamda o'rmon bo'limlarida olib boriladi. Buning uchun unumli maydon bir xil bo'laklarga (tarkibi, yoshi, o'sish sharoiti va umumiy ahvolning bir xilligiga qarab) bo'linadi. Bu bo'laklarga doimiy maydonchalar 0,25 gektarni, ba'zi sharoitlarda 0,1 0,5 gektarni tashkil qiladi. Bu maydonchalardagi umumiy kuzatuvdagi daraxtlar soni 100 donadan oshmasligi kerak. Vaqtli kuzatuvlar mobaynida, avvalo, yetilish davri e'tiborga olinadi, keyinchalik meva hosil bo'lishi hamda umumiy hajmi taxminan, gul va pishib kelayotgan mevalar ahvoliga qarab V.T. Kapper usulini qo'llash yo'li bilan aniqlanadi (daraxtlar uchun 6 balli shkala, butalar uchun esa 3 balli shkala). Doimiy urug' terish uchastkalarida hamda hosildor bog' va o'rmon daraxtzorlarda hosildorlik 15—25 dona har xil hosilga ega bo'lgan daraxtlarni tanlash yo'li bilan hisoblanadi.

## Savollar:

1. Butasimon daraxtlarning oʻsib rivojlanish davri.
2. Daraxtlar oʻsishining fasllarga bogʻliqligi.

## Yer yuzida dendrofloraning mintaqalar boʻyicha taqsimlanishi

Yer yuzida ekologik omillar, yaʼni issiqlik, namlik, yorugʻlik va boshqalar hududiy taqsimlangan. Shu sababli oʻsimlik va tuproq qoplamlari ham gorizontal ravishda hududiy joylashgan. Bu tabiiy hududlar haqidagi taʼlimotni birinchi boʻlib V.V.Dokuchayev yaratgan. Tabiiy hudud yer yuzining bir qismi boʻlib, iqlimi, oʻsimligi va tuproq qoplami bilan xarakterlanadi. MDH hududida

7 ta tabiiy hudud boʻlib, ular quyidagilardan iborat: tundra hududi, oʻrmon-tundra hududi, oʻrmon hududi, oʻrmon-dasht hududi, dasht hududi, dasht-chol hududi, choʻl hududi.

Shimoldan janubga borgan sayin bu gorizontal hududlar bir-biri bilan almashinadi. Bu xil gorizontal hududlikdan tashqari, togʻlik rayonlarda vertikal hududlik (poyaslik) kuzatiladi. Bunda togʻ balandliklarida shu balandlik uchun xos iqlim sharoiti va oʻsimlik hamda tuproq tiplari rivojlanib, togʻ oʻrmon koʻrilgan sari bular oʻzgarishi mumkin, bu oʻzgarishda navbatdagi poyaslar paydo boʻladi. Gorizontal va vertikal hududlarning ayrimlari iqlim sharoiti va oʻsimliklari hamda tuproq bilan bir-biriga oʻxshab ketsa-da, ayrim holatlarda toʻgʻri kelmay, farq qiladi. Agar tuproq sharoiti qulay boʻlsa, shu hududga xos bolmagan oʻsimlik qoplami rivojlanishi mumkin. Masalan, dasht va chol hududlaridagi va daryo boʻylab oʻsadigan toʻqayzorlarni koʻrsatish mumkin. Bu tip oʻsimliklar intrazonal oʻsimliklar deb ataladi.

## Tundra hududi

Tundra hududi Shimoliy muz okeanining qiiq oqlarini, Oq dengizdan Bering dengizigacha boʻlgan rayonlarni egallaydi. Uning janubiy chegarasi Kanin yarim orolining janubiy qismidan boshlanib, Pechora daryosining quyilishiga yetib boradi. Tundra hududining geologik tuzilishi va geomorfologik shakli xilma-xil, hududlar maydoni dengiz sathiga nisbatan turli balandlikda boʻlishi sababli bir-biridan farq qiladi.

Hududning quyi rayonlari dengiz va kontinental choʻkmalardan iborat boʻlib, togʻ qiyaliklari va choʻqqilar kristal togʻ jinslari bilan qoplangan. Iqlimi sovuq boʻlishi va qish 7 — 8 oy davom etishi bilan xarakterlanadi. Bulardan tashqari, hududda kutb kechalari uzoq boʻladi, yozda kun salqin va kechasi yorugʻ boʻlib, qorongʻi tushmaydi. Yilning eng sovuq vaqtida oʻrtacha harorat —12 °C dan —42 °C gacha, eng issiq vaqtida -

3 °C dan +3 °Cgacha bo'lad. Bir yilda o'rtacha 150 mm dan 300 mm gacha yog'in yog'adi. Suv nihoyatda kam bug'lanadi, bir yilda 50 mm dan oshmaydi. Havo ko'p vaqt bulutli bo'lib, doim kuchli shamol esib turadi. Suvning ko'p vaqt muzlab turishi uning tuproqqa singib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Muz erigan paytlarda mproqning namligi ortadi, natijada aeratsiya yomonlashadi. Tuprog'i botqoq tuproq bo'lib, unda turli botqoq o'simliklari tarqalgan, ularning qoldig'idan yupqa torfli tuproq qatlami hosil bo'ladi. O'simliklar tarkibiga ko'ra, tundrani quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

1. Lishayniklar tundrasi. Bu yerda, asosan, tundra o'tlari-kladoniy va setrariy o'sadi.

2. Yo'sunlar tundrasi. Bu joylarda asosan yo'sunlar tarqalgan bo'lib, ular tarkibida lishayniklar ham uchraydi.

3. O't o'simliklar tundrasi. Bu tundrada mayin bargli qiyoyq va g'allasimon o't o'simliklar o'sadi.

4. Butali tundra. Bu tundrada past bo'yli qayin, qutb toli, oddiy past bo'yli archa kabi butalar tarqalgan.

Tundra hududining o'simliklari bug'ular uchun asosiy oziq manbai hisoblanadi. Tundradagi daryo qirg'oqlarida, ayrim uchastkalarda tez yetiladigan sabzavot va yem-xashak ekinlari ko'p ekila boshlandi. Keyingi vaqtda hudud xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilmogda.

### **O'rmon-tundra hududi**

O'rmon-tundra hududi tundra hududining janubida joylashgan bo'lib, iqlim va tuproq sharoiti hamda olib boriladigan xo'jalik ishlari bilan tundra va o'rmon hududining oralig'ini ishg'ol etadi, ammo ulardan farq qiladi. O'rmon-tundra hududi Kola yarim orolidan boshlanib to Bering bo'g'oziga qadar cho'ziladi. Uning janubiy chegarasi Murmanskdan Oq dengizgacha, Mezen daryosi quyiladigan joygacha, Mezen va Vichegda daryolarining yuqori qismigacha bo'lgan yerlarni, Ob daryosining quyi cqimida, Yeniseyda Turuxanskni, Jiganskdan janubroqda Lena daryosini kesib o'tadi. Lena va Aldan daryolari hududidan 60 °C shimoliy kenglikkacha kirib boradi. Oxota dengizining Penjina qismini kesib o'tib, Kamchatkadan shimolroqda Bering dengiziga chiqadi. Bu hududning geologik tarkibi va geomorfologik shakli har xil.



7-rasm. O'rmon-tundra hududi.

Yeniseygacha bo'lgan g'arbiy qismi yarim tekislik bo'lib, dengiz qoldiqlaridan iborat, sharqiy qismi esa tog'li rayonlardir. O'rmon-tundra hududining iqlimi tundra hududinigiga nisbatan yozda issiq, qishda sovuqroq bo'ladi. Yanvar oyida harorat  $-9^{\circ}\text{C}$  dan  $-50^{\circ}\text{C}$  gacha, iyul oyida esa noldan  $9^{\circ}\text{C}$  —  $16^{\circ}\text{C}$  gacha issiq bo'lib, issiq kun 75—90 kun atrofida hisoblanadi. Bir yilda yog'adigan yog'inning o'rtacha miqdori 250 dan 400 mm gacha. Yog'inning ko'p qismi yoz vaqtlarida yog'adi. Yozda harorat ko'tarilishi bilan tuproq hosil bo'lish jarayoni tundradagiga nisbatan tez boradi. Bu hududda asosan, botqoq va bo'z tuproq shakllangan, suv yaxshi singadigan joylarda bo'z tuproq uchraydi.

Katta-katta maydonlar qishloq xo'jaligi uchun ahamiyatga ega bo'lgan tuproqli yerlardir. Bu hududda qoraqarag'ay, qayin, kedring stlantik shakllari va qandag'och ko'p uchraydi. O'rmon-tundra hududining janubiy qismi siyrak ignabargli o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, daraxtlarning tabiiy ko'payishi uchun sharoit noqulaydir, chunki kun salqin, harorat  $10^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lgan kunlar juda kam bo'lib, daraxtlarning urug'i pishib ulgurmaydi. Bu hududda bug'uchilik va mo'ynali hayvonlarni ov qilish rivojlangan. Keyingi vaqtlarda, ayniqsa, tog' sanoati rivojlana boshladi. Sanoat rivojlanishi bilan bir qatorda dehqonchilik ham avj oldi. Bu yerlarda sovuqqa chidamli tez yetiladigan

sabzavot ekinlari va yem-hashak o'tlari, ayniqsa, arpa va suli ko'p ekiladi.

### **O'rmon hududi**

O'rmon hududi Boltiq dengizidan sharqda to Oxota va Yapon dengizlarigacha yetib boradi. Sibiming janubida Oltoy va Sayan tog' tizmalarigacha cho'ziladi. Bu tog' o'rmonzorlari nihoyatda qalin bo'lib, vertikal hududlar yaxshi ko'rinib turadi.

Tomskning sharqiy-janubida, o'rmon-dasht yo'lagi joylashgan. Shuningdek, Baykalorti o'rmon hududida ham o'rmon-dasht yo'lagi katta maydonni egallaydi. O'rmon hududi reliefi jihatidan ikki qismga: g'arbiy va sharqiy qismga bo'linadi; g'arbiy qismi Yeniseygacha yetib boradi va tekislikni ishg'ol qiladi, uni Ural daryosi ikki qisimga bo'ladi; sharqiy qismi tog'lik bo'lib, tog' jinslaridan, g'arbiy qismi tekislik bo'lib, dengiz cho'kmalaridan iborat. O'rmon hududida qish sovuq, yoz issiq keladi.

O'rta Osiyo, Kavkaz va Qrimdagi o'rmonzorlar o'rmon hududidan juda uzoqda bo'lib, o'rmon-cho'l, chala dasht va dasht hududlarining sharqijanubida joylashgan. Bu o'rmonzorlarda, asosan endemik turlar uchraydi. O'rta Osiyo respublikalarining tog'li mintaqalarida ignabarglilardan semenov oqqarag'ayi, shrenk qoraqarag'ayi, turkiston va zarafshon archalari, yaproqlilardan yong'oq va boshqalar tarqalgan.

### **O'rmon-dasht hududi**

O'rmon-dasht zonasi Karpat tog'ining g'arbida, Oltoy-Sayan tog' tizmalarining sharqida tor polosa hosil qiladi, shuningdek, qisman Baykalorti ham ma'lum maydonni ishg'ol qiladi. Bu zonaning shimoliy chegarasi o'rmon zonasining janubiy chegarasiga tutashadi. O'rmon-dasht zonasi oraliq zonadir. Unda kuzatiladigan



7-rasm. O'rmon-tundra hududi.

Yeniseygacha bo'lgan g'arbiy qismi yarim tekislik bo'lib, dengiz qoldiqlaridan iborat, sharqiy qismi esa tog'li rayonlardir. O'rmon-tundra hududining iqlimi tundra hududirikiga nisbatan yozda issiq, qishda sovuqroq bo'ladi. Yanvar oyida harorat  $-9^{\circ}\text{C}$  dan  $-50^{\circ}\text{C}$  gacha, iyul oyida esa noldan  $9^{\circ}\text{C}$  —  $16^{\circ}\text{C}$  gacha issiq bo'lib, issiq kun 75—90 kun atrofida hisoblanadi. Bir yilda yog'adigan yog'inning o'rtacha miqdori 250 dan 400 mm gacha. Yog'inning ko'p qismi yoz vaqtlarida yog'adi. Yozda harorat ko'tarilishi bilan tuproq hosil bo'lish jarayoni tundradagiga nisbatan tez boradi. Bu hududda asosan, botqoq va bo'z tuproq shakllangan, suv yaxshi singadigan joylarda bo'z tuproq uchraydi.

Katta-katta maydonlar qishloq xo'jaligi uchun ahamiyatga ega bo'lgan tuproqli yerlardir. Bu hududda qoraqarag'ay, qayin, kedrning stlantik shakllari va qandag'och ko'p uchraydi. O'rmon-tundra hududining janubiy qismi siyrak ignabargli o'rmonlar bilan qoplangan bo'lib, daraxtlarning tabiiy ko'payishi uchun sharoit noqulaydir, chunki kun salqin, harorat  $10^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lgan kunlar juda kam bo'lib, daraxtlarning urug'i pishib ulgurmaydi. Bu hududda bug'uchilik va mo'ynali hayvonlarni ov qilish rivojlangan. Keyingi vaqtlarda, ayniqsa, tog' sanoati rivojlana boshladi. Sanoat rivojlanishi bilan bir qatorda dehqonchilik ham avj oldi. Bu yerlarda sovuqqa chidamli tez yetiladigan

shabzavot ekinlari va yem-hashak o'tlari, ayniqsa, arpa va suli ko'p ekiladi.

### **O'rmon hududi**

O'rmon hududi Boltiq dengizidan sharqda to Oxota va Yapon dengizlarigacha yetib boradi. Sibimning janubida Oltoy va Sayan tog' tizmalarigacha cho'ziladi. Bu tog' o'rmonzorlari nihoyatda qalin bo'lib, vertikal hududlar yaxshi ko'rinib turadi.

Tomskning sharqiy-janubida, o'rmon-dasht yo'lagi joylashgan. Shuningdek, Baykalorti o'rmon hududida ham o'rmon-dasht yo'lagi katta maydonni egallaydi. O'rmon hududi reliefi jihatidan ikki qismga: g'arbiy va sharqiy qismga bo'linadi; g'arbiy qismi Yeniseygacha yetib boradi va tekislikni ishg'ol qiladi, uni Ural daryosi ikki qisimga bo'ladi; sharqiy qismi tog'lik bo'lib, tog' jinslaridan, g'arbiy qismi tekislik bo'lib, dengiz cho'kmalaridan iborat. O'rmon hududida qish sovuq, yoz issiq keladi.

O'rta Osiyo, Kavkaz va Qrimdagi o'rmonzorlar o'rmon hududidan juda uzoqda bo'lib, o'rmon-cho'l, chala dasht va dasht hududlarining sharqi-janubida joylashgan. Bu o'rmonzorlarda, asosan endemik turlar uchraydi. O'rta Osiyo respublikalarining tog'li mintaqalarida ignabarglilardan semenov oqqarag'ayi, shrenk qoraqarag'ayi, turkiston va zarafshon archalari, yaproqlilardan yong'oq va boshqalar tarqalgan.

### **O'rmon-dasht hududi**

O'rmon-dasht zonasi Karpat tog'ining g'arbida, Oltoy-Sayan tog' tizmalarining sharqida tor polosa hosil qiladi, shuningdek, qisman Baykalorti ham ma'lum maydonni ishg'ol qiladi. Bu zonaning shimoliy chegarasi o'rmon zonasining janubiy chegarasiga tutashadi. O'rmon-dasht zonasi oraliq zonadir. Unda kuzatiladigan

fizik-geografik jarayonlar, albatta, o'rmon va dasht zonalariga xos bo'lib, bu hoi o'rmon va dasht o'simlik formatsiyalarining almashimb turishiga imkon beradi. Relief jihatidan hudud tekislikdan iborat bo'lib, uni Ural tog'lari kesib o'tadi. Bu yerlar tuprog'i ishqorsiz qora tuproq bilan kuchsiz bo'z tuproqlar aralashmasidan iborat. Bu unumdor tuproq bo'lib, fizik-kimyoviy xususiyatlariga ko'ra o'rmon hududining bo'z tuprog'idan farq qiladi. O'rmon- dasht hududida qish o'rmon hududidagiga nisbatan yumshoq, yozda o'simliklarning vegetatsiya davri uzoq bo'ladi. Hududning g'arbiy mintaqalari ayniqsa issiq bo'lib, yanvar oyida o'rtacha harorat  $-5^{\circ}\text{C}$  dan  $-7,5^{\circ}\text{C}$  gacha sovuq, iyulda esa  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $18,5^{\circ}\text{S}$  gacha, hatto  $21,5^{\circ}\text{C}$  gacha issiq bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 500—550 mm. G'arbiy Sibir va Baykalorti o'rmon-dashtlarining iqlimi ayniqsa o'zgaruvchan bo'lib, yanvarda o'rtacha harorat  $-30^{\circ}\text{S}$  gacha, iyulda esa  $18^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lib, yillik yog'in miqdori 300 mm. Yog'in iyul oyida ko'p yog'adi. Yog'adigan yog'inga nisbatan yerdan nam ko'p bug'lanadi. O'simliklari dasht hududiga xos o't, daraxt va butalardan iborat. Bu hududda katta o'rmonzorlar uchramaydi, mavjud o'rmonzorlar bo'lak-bo'lak bo'lib, o'tloqlar bilan bir-biridan ajralib turadi.

Hududning g'arbiy qismidagi o'rmonzorlarda eman, arg'uvon, shum, zarang, grab, sharqiy qismida esa mayda bargli qayin va tog' terak o'sadi. Hududning shimoliy qismida ham o'rmonzorlarni uchratish mumkin, janubda ular daryo qirg'oqlarini ishg'ol qilgan. O'rmon-dashtda g'allasimon o'tlar, sabzavot, texnikaviy, yem- xashak ekinlarini va mevali, rezavor mevali daraxt hamda butalarni ko'p ekish mumkin.

### Dasht hududi

Bu hudud MDH ning Yevropa qismining shimoliy va shimoliy-g'arbiy mintaqalarida tekislikdan iborat bo'lib, unda soyliklar va daryo vodiylari ko'p. Hududning janubiy-sharqiy qismi hamda G'arbiy Sibirdagi qismi tekislikdan iborat. Hududning Yevropa qismi soz tuproqli bo'lib, tuprog'i suvni yaxshi o'tkazadi. G'arbiy Sibirda tuproq quyqalari qalin qavat hosil qilib suvni yaxshi o'tkazmaydi, shuning uchun bu yerlarda kichik ko'llar hosil bo'ladi. Tuprog'i asosan har xil qalinlikdagi qora tuproq. Janubiy mintaqalarda esa jigarrangda bo'ladi.

Bu hududda yoz nihoyatda issiq, yog'in kam bo'lib, havo quruq keladi. O'rtacha harorat  $19^{\circ}\text{C}$  dan  $23^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lishi mumkin. Yanvarda o'rtacha harorat  $-4^{\circ}\text{C}$  dan  $-30^{\circ}\text{C}$  gacha bo'ladi. Yillik yog'in miqdori g'arbdan sharqqa va shimoldan janubga tomon kamayib boradi. Hududning Yevropa qismida yog'in miqdori 350 dan 500 mm gacha, Osiyo qismida 250 dan 400 mm gacha bo'ladi. Yog'inning ko'pi iyun — iyul oylarida yog'adi. Qor odatda qalin yog'maydi, ko'pi bilan 30 sm qalinlikda bo'lishi mumkin. Janubiy qismida yoqqan qor tez erib ketadi.



suv ko'p bug'lanadi. Havoning nisbiy namligi 45% ga yaqin, qurg'oqchilik vaqtlarida 15% gacha kamayadi.

O'simliklari asosan g'allasimon va turli o'tlardan iborat, ular ichida kserofitlar ko'p. Buta va butachalar kam uchraydi. Dukkakli buta, dasht olchasi, tobulg'i, tikanli olcha bo'lib, ular soy qiyaliklarida o'sadi. Bu hududda daraxtlar daryo qirg'oqlarida va tog' cho'qqilarida o'sadi, xolos. Iqlim quruq bo'lishi, tuproq sho'rxokligi va o't o'simliklar bilan raqobat natijasida daraxtlar siyraklashib qolgan.

Bu hududning ko'p qismida har xil qishloq xo'jalik ekinlari ekiladi. Daraxtlar ekish muhim ahamiyatga ega, chunki yoqqan qor ancha saqlanadi, yer muzlamaydi. Erigan qor suvlari tez oqib ketmay, yerga yaxshi singadi. Daraxtzorlar shamolning kuchini pasaytiradi. Shular tufayli qishloq xo'jaligi ekinlarining o'sishi uchun qulay sharoit tug'iladi. Bunday ijobiy ta'sir natijasida mikroiklim yaxshilanadi, ekinlar hosili ortadi. Hozirgi vaqtda hududda kuzgi va bahorgi bug'doydan yuqori hosil olinmoqda, janubiy mintaqalarda paxta ekiladi, sharqiy mintaqalarda chorvachilik rivojlangan.

### **Dasht-cho'l hududi**

Bu hudud dasht va cho'l hududlari oralig'ida joylashgan bo'lib, oraliq hudud xususiyatlariga ega. Uning janubiy chegarasi Kuma daryosi quyiladigan joyda Elton ko'liga o'tib, Uralsk va Guryev shaharlari o'rtasida Ural daryosini kesib, Emba daryosining o'rta oqimidan va Orol dengizi hamda Balxash ko'lining shimolidan o'tadi. Hudud iqlimi quruq va keskin o'zgaruvchan bo'lishi bilan tavsiflanadi. Yozi issiq va quruq bo'lib, maksimal harorat 40 °C dan oshib ketadi. Qishda quruq sovuq bo'lib, harorat -40 °C ga yetadi, qor qoplami yupqa bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 150—250 mm. Havoning quruqligi tez-tez takrorlanadi, doimo iliq shamol esib turadi.

O'simliklari siyrak, tur tarkibi oz bo'lib asosan kserofit o't, buta va sho'raklardan iborat. Shuningdek, dasht-chim, g'alladosh o'tlari va har xil efimerlar ko'p uchraydi. Bu hudud uchun erman- g'alladosh va erman-sho'radosh O'simliklar tiplari harakterlidir. Daraxtlar faqat daryo vodiylarida o'sadi. Hududning sug'orilmaydigan yerlarida lalmikor dehqonchilik rivojlangan. Agar sug'orish ishlari yo'lga qo'yilsa, ekinlar maydoni ancha kengayadi.

### **Cho'l hududi**

Bu hudud dasht-cho'l hududining janubida joylashgan. U Kaspiy dengizidan boshlanib, sharqda MDH chegarasigacha, janubda Jung'oriya,

Kungey, Olatov, Talas, Turkiston va Kopetdog' tog'larigacha yetib boradi. Hududning reliefi tekis, g'arbiy qismi pastlik bo'lib, sharq tomon asta-sekin ko'tarila boshlaydi va suvi oqib chiqib ketmaydigan suv havzalari paydo bo'ladi. Bular qatoriga Kaspiy, Orol dengizi, Balxash, Olako'l va boshqa ko'llarni kiritish mumkin. Yozda kun issiq bo'lishi va havo quruqligi tufayli bu suv havzalarining suvi ko'p bug'lanadi, ayrimlaridan suv batanom bug'lanib ketadi. Chu va Sarisuv daryolarining suvi qurib vodiysi botqoqlikka aylanadi. Cho'l hududining yozi nihoyatda issiq va havosi quruq, iqlimi keskin o'zgaruvchan bo'lib, yog'in faqat bahorda va qish davrida yog'adi. Yanvar oyida havoning o'rtacha harorati  $4^{\circ}\text{C}$  dan  $14^{\circ}\text{C}$  gacha issiq, eng past harorat  $-35^{\circ}\text{C}$  bo'ladi. Iyul oyida esa o'rtacha harorat  $25-30^{\circ}\text{C}$  ( $50^{\circ}\text{C}$ ) gacha, qumning ustki qismida  $70^{\circ}\text{C}$  gacha yetadi. Yoz oylarida havo nihoyatda issiq bo'lib, nisbiy namligi 10% ga tushadi.

Cho'l hududining tuprog'i qumli va sho'rxok bo'z tuproq bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bo'z tuproq shu cho'l iqlimida soz tuproq jinslaridan hosil bo'ladi. Tarkibida chirindi kam, ohak ko'p bo'ladi. Qumli tuproq harakatsiz va harakatchan bo'lishi mumkin. Sho'rxok tuproq ko'p tarqalgan; u yer osti suvlari yuza joylashgan yerlarda hosil bo'ladi, tarkibida oson eriydigan tuzlar bo'lib, ayrim vaqtlarda ular tuproqning sirtiga chiqadi va oq kukun holida yer yuzirini qoplab yotadi. Umuman tuproqning sho'rxok bo'lishi va tarkibida chirindi kam bo'lishi cho'l hududi uchun xarakterli xususiyatdir. Cho'l hududida cherkez, tukli yulg'un va qora saksovul o'sadi.

Qum tuproqli mintaqalarda oq saksovul, qandimning har xil turlari va quyonsuyak butalari tarqalgan.

Daryo qirg'oqlarida to'qayzorlar ko'p. To'qay hosil qiluvchi daraxt va butalarning tur tarkibi har xil bo'lib, ular orasida oq changal, yulg'un, jiyda, terak (turanga), tol va boshqalar bor. Tol, terak, yulg'unning ayrim turlari va jiyda tuproq sho'riga deyarli chidamli bo'lib, sho'rxok tuproqli yerlarni ko'kalamzorlashtirishda katta ahamiyatga ega. To'qayzoriarda har xil o'tlar o'sadi, chorva mollarini boqishda va chorvachilikni rivojlantirishda ular muhim rol o'ynaydi.

Cho'l hududida vohalardagina dehqonchilik qilinadi. Bu yerlarda asosan paxta ekiladi. Chorvachilik rivojlangan mintaqalarda hududning ko'p qismi yaylov sifatida foydalaniladi.

## Savollar

1. O'rmon-tundra hududi nima?
2. O'rmon hududlarida tuproq tarkibining tarqalishi qanday bo'ladi?
3. Dasht-cho'l hududi nima?

## 2-BO'LIM.

## O'RMONCHILIK O'rmonlarda asosiy kesish ishlari

Asosiy kesish, bu — o'rmondan foydalanish uchun pishib yetilgan daraxtlarda olib boriladigan kesishdir. Dunyo o'rmon xo'jaligi tajribasidan shu narsa ma'lumki, asosiy kesishning 100 dan ortiq turi mavjud. Uning tizimi quyidagicha: yoppasiga, navbatma-navbat va tanlab kesishdir. Kesish tizimi barcha kesishlar majmuasidan iborat bo'lib, kelajakda o'rmonning ko'payishiga qaratilgan tashkiliy-texnik ko'rsatkichlardan iboratdir. Yoppasiga kesish ishlari o'sib rivojlanayotgan o'spirin daraxtlardan boshqa barcha asosiy daraxtlar guruhi yil mobaynida yoki biror bir yog'och tayyorlash muddatida bajariladi. O'rmonning tabiiy va yolakalar bilan ajratilib asosiy va oraliq kesishlari o'tkaziladigan bo'limi kesish uchun ajratilgan maydon deyiladi.

Ushbu kesish uchun ajratilgan maydonlar ko'rinishi bo'yicha har xil shaklga ega boiadi: to'g'ri to'itburchak, kvadrat, chegaralari egri-bugri boigan va biror bir qirg'oqqa tutash boigan, shuningdek, har xil olchamdagi taksatsion videl (videl — kichik uchastka)lardan iborat boiadi. Kesish uchun ajratilgan maydonlar o'rmonlarning tabiiy ko'payishiga va uning foydali xususiyatlarining saqlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Agar kesilgan maydon qancha katta boisa, o'rmonning ko'payishi shuncha uzoq davom yetadi va u qiyinchilik bilan rivojlanadi. Agar kesiladigan maydon atrofida yetilgan daraxtzor mavjud boisa, katta-katta kesilgan maydonlarda birdaniga iqlim ham o'zgarib ketadi, natijada havo haroratining eng katta va eng kichik ko'rsatkichlari, shamol yo'nalishining va buglanishining tezligi birdaniga oshadi, havoning nisbiy namligi pasayadi, tuproq tarkibi esa jipslashib qoladi.

Buning hammasi esa o'z navbatida tabiiy daraxtzorlardagi va o'rmon ekinzorlaridagi yosh daraxtlarning o'sib rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, ularning o'sish darajasini pasaytiradi. Tog' o'rmonlarida esa yoppasiga kesishdan so'ng yer yuza qismi tuproq tarkibida yuvilishi va tuproq eroziyasi hodisasi namoyon boiadi. Shuning uchun ham o'rmonning kesilgan maydoni qanchalik katta bo'lsa o'rmonning o'sib rivojlanishining ijobiy toinoniga borishi shunchalik yomonlashadi.

O'rmonni kesish uchun ajratilgan maydoni o'rmonlarning guruhiga, kategoriyasiga, relefiga, o'rmon turligiga<sup>va</sup> asosiy yog'ochbop daraxt turlariga bog'liq bo'ladi.

Kesish uchun ajratilgan maydon qisqa (25—30 m), o'rtacha (101 — 150 m) va keng polosali (151—250 m) bo'lishi mumkin.

Quruq relefli va cho'l hududlarida sun'iy ushkil etilgan ihotazorlarda kesish uchun ajratilgan o'rmon ma'lumligi 50 m dan oshmasligi zarur. Ochiq cho'l hududlaridagi 3 gektargacha bo'lgan o'rmon maydonlarida

5 gektargacha to'lgan cho'l o'rmonlari yoki aralash o'rmonzorlarida kesish ishlari to'liq ajratiladi. Asosiy daraxt turlarining 0,4 o'rmon tili<4ligidan past bo'lgan yosh o'spirin daraxtzorlarida o'rmonni qiyatdan paydo bo'lishida kesish uchun ajratilgan maydonlar 1,5 ~2,0 baravariga oshiriladi. Ammo shuni esdan chiqarish kerak, I — II guruh o'rmonlaridan kesish uchun ajratilgan maydonlari t'ni 250 m dan oshmasligi kerak. Cho'l hududlaridagi qarag'ay^of o'rmonlarda kesish uchun ajratilgan maydonlar eni 50 m dan oshinasligi, kesish uchun ajratilgan maydonlarning I guruh o'rmonl'ri bo'yicha uzunligi 500 m va II guruh o'rmonlari bo'yichas:> 1000 m dan iborat bo'lishi kerak.

Ixl km o'lchamdan iborat bo'lgan kvartallarda 100 m eniga teng bo'lgan kesish uchun ajratilgan maydonlardagi farcha turdagi daraxtzorlarda kesish ikki marotaba o'tkaziladi. Unda, i katta bo'lgan o'lchamda esa kesish ishlari bir marotaba o'tkaziladi-

Bu esa 0,5 x 0,5 km kichik o'lchamdagi levartaHarda 50 m enidagi kesish uchun ajratilgan maydonlarga ham tegi' hli bo'ladi.

**Kesish uchun ajratilgan maydonlarning yo'nalishi** — qutb yo'nalishiga nisbatan uning uzun tomonining joylashisfri (shimoldan janubga tomon, sharqdan g'arbga tomon) o'rmonni lco'paytirishga va shamol ta'sirini bartaraf etishga, shuningdek, ycr, yr-izasi foydali qismining yuvilishiga, tuproq eroziyasi paydo bo'lishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kesish uchun ajratilgan maydon asosiy shamol yo'nalishiga va zararii shamoll'j, yo'nalishiga pependikular holda tashkil etiladi, tog'li sharoitda esa Y<sup>sr</sup> Y<sup>1123</sup> qismining joylashishiga ham qo'shimcha e'tibor qaratiladi.

**Kesish yo'nalishi** oldinama-ketin, bir maydon kesilf5<sup>an</sup>dan so'ng beshqa maydon boshlanadi. U asosiy shamol yo'nalishiga qarshi o'matiladi. Bu holda o'rmonning ochiq devori doimo shamolga qaragan holda bo'lib, u o'rmonning himoya tomonida bo'ladi. Shuningdek, shamol havfi oldi olinadi va yangidan kesilgan joylarga unug' tushishiga sharoit yaratiladi.

Kesish yo'nalishi doimo kesish uchun ajratilgan maydon yo'nalishiga pependikular bo'ladi. Daryo qirg'og'idagi turang'il va terakzorlarda suv yo'nalishiga qarshi kesiladi.

Kesish oralig'i kesilgan maydonga chegaradosh hudud bo'lib, u yana qancha vaqtdan so'ng kesiladi, belgilangan kesish yildan mustasno. U shuning uchun o'matiladiki, yog'ochbop daraxtlarning biologik xususiyatlariga bog'liq holda o'rmonning tiklanishida uning sharoitiga va hududning iqtisodiy sharoitiga mos holda o'rmonlar atrof-nuhitini himoya qilish funksiyalarini bajaradilar.

Agar kesish ishlaridan so'ng birinchi yili daraxtzorlarda ekish ishlari rejalashtirilsa, unda kesish oralig'i qisqartirilishi mumkin.

Kesish oralig'ining to'rt usuli mavjud: to'g'ridan-to'g'ri, polosa tashlab kesish, kulisi va shaxmat shaklida. To'g'ridan-to'g'ri oraliq kesishda yangidan ajratilgan kesish maydoni o'tgan vaqtda ajratilgan maydon qatoridan tanlanadi.


Polosa tashlab kesishda (8-rasm) kesish maydoni kesilgan polosa maydonidan ma'lum o'lchamda tanlanadi va u 10 yil mobaynida kesiladi.

Shaxmat shaklida kesish (8-rasm) ikki usulda bajariladi. Bu usul shunday vaqtda qo'llaniladiki, kesish uchun ajratilgan maydon to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shaklidan iborat bo'lganda konsentrlashgan kesish o'tkazishning asosiy sharti yog'och tayyorlash ishlarida yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan texnologiya usullaridan foydalanishda iborat. Yoppasiga konsentrlashgan kesish ishlari faqat 3-guruh o'rmonlarida bajariladi. Bunda bosh kesish ishlari yog'och tayyorlashda kesish maydonlari bo'yicha ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Barcha daraxt turlari bo'yicha quyidagicha tartibda kesish oralig'i tavsiya etiladi: nina va qattiq bargli daraxt turlari uchun uch yil muddatgacha, yumshoq bargli daraxt turlari uchun har yili. Kesish uchun ajratilgan maydon eni 500 dan 1000 m gacha oraliqda bo'ladi. Ushbu maydonda o'rmonning tiklanishi asosan yosh o'spirin daraxtzorlaming o'sib rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Yog'ochbop ona daraxt ostidagi o'spirin daraxtlar miqdori qora qarag'aylar, emanzorlar, qoraqayinlar va buk daraxtlari uchun


asosiy ko'payish xususiyatini beradi. Kesish uchun ajratilgan maydonlarning kamdan-kamida zich o'sib rivojlangan yosh o'spirin daraxtchalar mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham o'rmonda daraxt kesish ishlarini bajarish vaqtida yuqoridagi o'spirin daraxtchalarni saqlab qolish nafaqat yosh o'rmon ekinzorlari barpo qilishdagi sarfxarajatlarni tejash balki texnik jihatdan yuqori sifatli yog'och mahsuloti yetishtirish muddatini qisqartirish, shuningdek, o'rmonning mahsuldorligini oshirishga imkon beradi.

†




Sh

Sh



Kesish uchun qoldirilgan katta maydon

>1 <<



8-rasm. Ajratilgan maydonlardagi kesish usullari. 95

Asosiy kesish ishlarini shunday tashkil etish kerakki, xalq xo'jaligining yog'ochga bo'lgan ehtiyojini ta'minlab qolish bilan bir qatorda: a) yog'och tayyorlash ishlari texnologiyasi bazasida mehnat unumdorligini oshirish; b) qisqa muddatlar orasida kesilgan maydonlarda xo'jalik ahamiyatiga molik yuqori bahoga ega bo'lgan daraxt turlarining ko'payishini ta'minlash; d) o'rmonlarni, suvlarni himoyalash, sanitar-gigienik, estetik va boshqa xususiyatlarini saqlab qolish zarur.

Har bir kesish ishlarini bajarish maydonlarida ish boshlashdan oldin, albatta texnologik karta ishlab chiqiladi. Unda kesish usullari va yog'och tayyorlash texnologiyasi, kesilgan daraxtlarni tashib chiqish, yog'ochlarni yuklash va tushirish, yer maydonlarini tozalash, kesish maydonlarini tayyorlash sxemasi, yuk yuklash maydonchalari, yuqori va quyi yog'och bazalari joylashgan maydon, yog'och tashib chiqish yo'laklari va texnika vositalari saqlanadigan maydonchalar, shuningdek, ishchilar soni va ularning kerakli texnika vositalari bilan ta'minlanishi to'liq ko'rsatiladi.

### **Tanlab kesish**

Ushbu kesish ishlari haqida yirik o'rmon hududlari va zaxirasiga ega bo'lgan Rossiya mamlakati o'rmonshunos olimlaridan M.E.Tkachenko, I.I.Gusev, I.S.Melxov va A.S.Rojkovlar o'zlarining bir qancha ijobiy fikr-mulohazalarini bildirishdi. Tanlab kesish tizimi eng qadimgi kesish, shuningdek, hozirgi vaqtda ham to'g'ri keladigan kesish turlaridan biridir. Ushbu usulning asosiy qulayliklaridan biri bu kesish uchun alohida maydonlar ajratilmaydi, faqat mavjud daraxtzorlardan yetarli ravishda aniq bir qismigina kesiladi, xolos.

Tanlab kesish usuli va iqtisodiy sharoitini e'tiborga olgan holda kesiladigan daraxtlarni tanlash uchun har yili xo'jalik ahamiyatiga tegishli yondoshishlar qo'llaniladi.

Bir usulda xo'jalik ehtiyoji uchun sifatiga qarab eng yaxshi daraxtlar kesiladi. Boshqa bir usulda esa aksincha kasallangan, sifatsiz va singan daraxtlar kesishga tayyorlanadi. Tanlab kesish davrida o'rmonda muddatdan oldin va qo'shimcha ravishda tabiiy ko'payish ro'y beradi.

Tanlab kesishda uch xil usul mavjud: izlab tanlab kesish, qisman tanlab kesish, xohishga qarab kesish.

Izlab tanlab kesishda o'rmonzorning butun hududi bo'yicha ishga yaroqli, yuqori sifatga va to'liq yetilgan, sifatli yog'och tanasiga ega bo'lgan daraxt turlari tanlab topilib, so'ng kesiladi. Kesishning ushbu usulini qo'llash daraxtlar tanlashda nisbiy ko'rsatkichlarga olib kelmaydi. Ushbu usul asosan ko'proq kema va aviasozlik, faner sanoati

uchun awal har xil yoshdagi, so'ng butun o'rmonzor uchun qo'llaniladi.

Qisman tanlab kesishda chegaralangan bir qism tanlangan daraxtlar maxsus yog'ochni qayta ishlash sanoati uchun taniab kesiladi. Kesishda faqat aniq o'lchamdagi diametrga ega bo'lgan daraxt turlari tanlanadi. O'rmonshunos M.E. Tkachenkoning fikriga ko'ra, uzluksiz qisman tanlab kesish natijasida daraxtzorlar sifati birdaniga o'zgaradi, zaxira miqdori, daraxtlar tanasi o'lchami va o'rtacha yoshi kamayadi va o'rmonning sanitar ahvoli yomonlashadi. Bu usul o'zining ijobiy va salbiy xususiyatlariga ega. U yog'och tayyorlashdagi sarf- xarajatlarni kamaytiradi, shuningdek, maxsus belgilangan yirik sortiment mahsulot olishga erishiladi. Shuning bilan bir qatorda bu usulni qo'llash bilan o'rmonning kelajak avlodini himoyalash xususiyati va mahsuldorligi birdaniga kamayadi; kesiladigan yog'och mahsuloti to'liq foydalanilmaydi; kesish davrida qolgan daraxtlar zararlanadi va o'rmonning o'sib rivojlanish holati buzuladi; kesilgandan so'ng qolgan daraxtlar sifati yomonlashadi; o'rmonda kasalliklar va zararkunandalar paydo bo'lishi xavfi kuchayadi.

### **Kesish, nazorat qilish, daraxtlarga tarag'a berish tartibi**

Daraxtlarni tamg'alash o'rmonlarni parvarishlash maqsadida kesish va boshqa tanlab kesish qoidalariga rioya qilishni nazorat qilish hamda aholi tomonidan o'zboshimchalik bilan kesishning oldini olish maqsadida o'tkaziladi. Tamg'a o'rmon ustalariga, o'rmonchining yordamchilariga, o'rmonbegiga va o'rmonni muhofaza va himoya qilish bo'yicha muhandisga beriladi.

Ishlatilishiga qarab tamg'alar ruxsat beruvchi, kesuvchi, nazorat qiluvchi va tanlovchilarga bo'linadi. Tamg'alardan nusxa olinadi, har bir shaxs tamg'a bilan ishlash va uni saqlash to'g'risidagi qoidalar bilan tanishtiriladi, imzosini olib tamg'a beriladi. Tamg'alarni olgan xodimlar, ularni to'g'ri ishlatish va saqlashlik uchun shaxsan javobgardirlar.

Tamg'alardan foydalanish suiste'mol qilinsa, aybdorlar qat'iy javobgarlikka tortiladilar va hatto lavozimlaridan bo'shatiladi. Tamg'alar daraxtlarning inson ko'kragi balandligi qismiga va ildiz bo'g'ziga, to'nkalamining chekka qismiga, tayyorlangan yog'ochlarning chekkasiga, sajinlab qo'yilgan yog'ochlarga bosiladi.

Ruxsat etuvchi tamg'alar o'sib turgan, kesish uchun mo'ljallangan daraxtlarga bosiladi, aholiga sotish uchun kesilgan daraxt to'nkalariga ham tamg'a bosiladi.

Tayyorlangan yog'ochlarga (ag'darilgan va shamoldan yiqilgan daraxtlar hamda to'nkalarga) yalpi kesish uchun ajratiladigan daraxtlarni hisobga olish uchun ham tamg'a bosiladi.



O'rmondagi omborxonalardan aholi va boshqa mayda iste'molchilarga beriladigan tayyorlangan yog'ochlarga ham tamg'a bosiladi.

Kesish tamg'alari o'zboshimchalik bilan kesilgan daraxt to'nkalariga o'rmonchi va o'rmon masteri tomonidan o'rmon qoidasini buzganlar ustidan dalolatnoma tuzish vaqtida bosiladi.

Nazorat tamg'lash obxodlarni (obxodlar — aylanma maydonlarni nazorat qilish) reviziya qilish va tekshirish vaqtida o'zboshimchalik bilan kesilgan daraxt to'nkalariga bosiladi.

Tanlab tamg'lash esa daraxtlarni tanlab kesish, o'rmonlar sanitar holatini yaxshilash uchun tanlab kesish va boshqa tanlab kesish vaqtlarida hamma kesilishi lozim bo'lgan daraxtlarning 75 foizdan ziyodrog'ining ko'krakdan balandligi qismining yo'g'onligi 10 sm ni tashkil qilgan vaqtda bosiladi.

Tamg'alarning mavjudligi, ularni to'g'ri ishlatilishi obxodlarni reviziya qilinayotgan vaqtda hamda yuqori tashkilotlarda ishlaydigan xodimlar o'rmon xo'jaligiga tashrif buyurgan vaqtda ham tekshiriladi.

### **O'rmonlarni kesishga ajratish va tayyorgarlik ishlari**

Yirik o'rmon xo'jaliklarida (asosan 2- va 3-guruh o'rmonlariga tegishli bo'lgan) yog'och mahsulotini tayyorlashda, o'rmonda maxsus kesish uchun maydonlar belgilanadi va tayyorlanadi. O'rmon xo'jaligi tomonidan ushbu maydondagi yog'och sortimentlarini yig'ib olishga, ishchi kuchlari ajratib, mahsulotni sifatli qilib kesib olishda katta e'tibor beriladi. Buning uchun oldindan ushbu ishlar maxsus yog'och tayyorlashni belgilash tashkilotlari tomonidan loyihalashtiriladi.

O'rmonlarda kesish maydonlarini to'g'ri tanlashda o'rmon xo'jaligi texnik xodimi (master lesa) har bir kesish uchun ajratilgan maydonda ishchi xodimlar yuradigan yo'llar va so'qmoqlar belgilaydi. Texnologik karta bosh muhandis tomonidan tasdiqlanadi.

Yo'l qurilish brigadalari lesosekada asosiy va qo'shimcha yog'och tashish yo'llari qurishm amalga oshiradilar. Ushbu ishda barcha texnika vositalari — buldozerlar, greyderlar va kanavakopatel-lardan to'liq foydalaniladi. Vaqtinchalik temir yo'llar yo'nalishi o'rnatiladi va vagonlar qo'yiladi. Ushbu vagonlarda ishchilar uchun anjomlar, benzin yordamida ishlaydigan arralar, boltalar, ishchi kiyim boshlari, ovqatlanish anjom-aslahalar, meditsina buyumlari va boshqa kerakli texnika vositalari yuklanadi.

Lesosekada ishlayotgan ishchi brigadasi zimmasida bajarilishi lozim boigan quyidagi vazifalar turadi: yuqori yog'och ombomi tayyorlash, barcha uchastkalardagi daraxtlarni benzinli arralarda kesish, kesilgan

maydonlarni tozalash, chuqurlashtirib qolgan yerlarni toldirish, yuklash maydonlarini tayyorlash va dam olish maydonlarini tayyorlash.

O'rmonlarda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan yog'och mahsuloti olishda yoppasiga kesish ishlari otkaziladi. Buning uchun lesoseka uzunligi 1000 — 2000 m, eni 500 — 1000 m dan maydoni 50 va 200 ga dan iborat bo'ladi. Ushbu maydonlardagi daraxtlar tartib raqamiga otkazilib, qisqa muddatlarda tezda kesib olinadi.



9-rasm. Kesishga ajratilgan daraxtzorlar ko'rinishi.

Ushbu maydonlarni o'rmon xo'jaligi belgilaydi. Bunday o'rmon bazalaridan 5 — 10 yilda foydalanish rejalashtiriladi. Lesosekalar kichik uchaskalarga ajratiladi. Bu kichik uchaskalar uzunligi 250 — 300 m, eni 50 — 70 m dan iborat bo'ladi. Lesoseka bilan ushbu kichik uchaskalar oralig'ida so'qmoq yo'llar (voloklar) tashkiliyashtiriladi.

Ushbu ishlarning tanomlanishini o'rmonchilik bo'lim boshlig'i kuzatib boradi va qabul qiladi.


Ushbu lesosekada bajarilgan barcha ishlar ma'lum brigadalar va zvenolar asosida bo'lganligi uchun ularni mutaxassislar hisobga kiritib, pul-mablag' miqdorini belgilab borishadi. Mehnatga haq to'lash va hisobga olish ishning oxirgi natijasiga bog'liq bo'ladi. Ishning miqdori kishi kuniga, mexanizm vositasida bajarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ish haqining brigada a'zolari o'rtasida taqsimlanishi maxsus tartib

koefitsienti asosida belgilab boriladi. Brigada a`zolari tarkibi 6 — 7 kishidan iborat bo`ladi. Daraxt kesuvchi, traktorist, bog`lab boruvchi va uch-to`rtta shox-shabba kesuvchilar. Ushbu xodimlarning ishi bir-biriga uzviy bog`liq bo`ladi. Ularning biri bo`lmasa, ikkinchisining ishi to`xtaydi. Ishchilarning texnika vositalaridan uzluksiz foydalanib borishlari, ularning ish samaradorligini oshiradi. Bunda ular traktor, avtomobillar va lebedkali agregatlardan foydalanadi.

### Daraxt kesish texnologiyasi

O`rmonlarda yog`och tayyorlash o`ta og`ir, murakkab va xavflidir. Chunki ba`zi vaqtlarda juda yirik daraxtlarni inson qo`l kuchi yordamida kesishga to`g`ri keladi. Shuning uchun inson mehnatini yengillashtirish va xavfsiz bo`lishida mexanizatsiyaning yordami kattadir.

O`rmonda yog`och mahsulotini tayyorlash lesoseka uchun joy tanlash va daraxtzorlarda taksatsiya — o`rmonni hisobga olishdan boshlanadi. Bu ishlarni asosan o`rmon xo`jaligi kesish ishlariga bir va ikki yil qolganda o`tkazadi. Lesosekadagi mahsulotlarning pul va mablag` qiymati baholanadi. Lesosekaning rejasi tuziladi. Oldindan yog`och mahsulotining qiymati baholanadi. Lesoseka va uning chegarasi lesoseka stolbalari bilan chegaralanadi. Vizirlar o`tkaziladi. Yuqoridagi ishlar bajarilgandan so`ng talab va ehtiyojga qarab maxsus huquqiy hujjat — o`rmon kesish chiptasi yozib beriladi va o`rmonni kesishga ruxsat beriladi. O`rmonda asosiy kesish bosh kesishda o`tkaziladi. Bunda o`rmonda yoppasiga kesish ishlari bajariladi. Sanoat ahamiyatiga ega bo`lgan kesishlar yirik va konsentrlashgan lesosekalarda o`tkaziladi. Bunda lesoseka uzunligi 1 — 2 km, eni 500 — 1000 metrdan, maydoni esa 50 — 200 ga dan iborat bo`ladi. Agar paseklar 50 — 70 m dan iborat bo`lsa, uning o`rtasidan, ya`ni 25 va 35 metrdan volok o`tkaziladi. Ushbu polosalar bo`yicha kesib yig`ilgan yog`ochlar o`rmon ichi yo`llari orqali yuqori yog`och to`plash bazasiga keltiriladi. O`rmonda pasek enining yarmi daraxt balandligiga teng bo`lishi kerak. Masalan, pasek polosasining eni 50 m bo`lsa, daraxt balandligi 25 m ga teng.



10-rasm. Kesish ishlarining texnologiyasi.

Daraxt kesishda quyidagicha variantlarga e'tibor beriladi:

I variant. Volokdagi barcha daraxtlar yeryuzasi bo'yicha barobar qilib kesiladi. Hatto kichik daraxtchalar ham kesiladi. Kesilgan daraxtlar traktorlar yordamida yuqori yog'och omborxonasiga tashib chiqiladi. Volok — bu eni 4 m gacha bo'lgan daraxti kesilgan polosali yo'ldir.

O'rmonlarda kesish maydonlarini ajratish bilan qatorda oldin maxsus texnologik karta tuzib olinadi. Ushbu kartada daraxtzorlarga tavsifnoma beriladi, bu bajariladigan ishlar texnologiyasi, kesilgan yog'ochlarni tashib chiqish va daraxt kesilgan maydonlarni tozalash, o'rmon muhitini va kesilmagan daraxtlarni saqlab qolish tadbirlari, shuningdek, iqtisodiy-muhandislik ishlarni amalga oshirishdan iborat. Kartada yuk yuklash maydonchalari, magistral va texnologik yo'laklar sxemalari ko'rsatiladi. Ushbu ishlar kesish ishlari boshlanmasdan oldin amalga oshiriladi. Barpo etilgan va texnologik kartada ko'rsatilgan ushbu texnologik koridor yo'laklar va yuk yuklash maydonchalarini shunday o'rnatish kerakki, ulardan kelgusi kesish ishlarida ham foydalanish mumkin bo'lsin. Shundan so'ng tashib keltirilgan yog'ochlar quyi yog'och bazasida ma'lum o'lchamdagi sartiمنتlarga ajratiladi.

O'rmon kesishda quyidagicha asosiy ishlar bajariladi:

1. Daraxtlarni kesish.

2. Shox-shabbalardan tozalash.
3. Yog'ochlarni olib chiqish — trelevka.
4. Yog'ochlarni bo'laklarga ajratish — rasskryajovka.
5. Yog'ochlarni taxlash.
6. Yog'ochlarni yog'och tashish transportlariga yuklash.
7. Yog'ochlarni olib chiqib tashish.
8. Kesilgan maydonlarni tozalash.

Bu ishlar xo'jalikning har xil joylarida turlicha bajarilishi mumkin. Bu yog'och tayyorlash texnologiyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, pasekda yog'och tayyorlashda barcha ishlar joyning o'zida tayyorlanadi.

II variant. Pasekda daraxtlar kesiladi. Qolgan barcha ishlar yuqori yog'och omborida bajariladi. Ya'ni shox-shabbalarini kesish, yog'ochni ma'lum uzunlikdagi bo'laklarga ajratish va hokazo ishlar.


III variant. Pasekda daraxtlar kesiladi, yog'ochlarni tashish, shox-shabbalarni kesish yuqori yog'och omborxonasida o'tkaziladi. Yog'ochlarni jo'natish quyi yog'och omborxonasida bajariladi.

IV variant. Pasekda daraxtlar kesiladi. Kesish voloklar bo'ylab bajariladi. Xuddi shu yerning o'zidan transportga yog'ochlar yuklanadi. Yog'ochlar butunligicha quyi yog'och omborxonasiga jo'natiladi.

Yuqoridagi o'rmon kesish ishlarida qo'l kuchi yordamida ishlaydigan benzinli va elektr arralaridan keng foydalaniladi.

## DARAXTLARNI QULATISH

Kesish yo'nalishi



11-rasm. Daraxtlarni qulatishtirish usullari. kesish joyi; 2 — asosiy kesish o'rnini; 3 — daraxtning quyasi; 5 — qulatilgan daraxt; 4 — daraxtning to'nkasi.

1. Benzinli arralar.

A) «Tayga - 214»

B) «Drujba - 4A».

Bu har ikkala arra ham daraxtlar kesishi uchun rejalashtirilgan. «Tayga-214» — 8,8 kg, «Drujba-4A» — 9,5 kg og'irlikka ega.

Har ikkalasining tarkibi 15 tadan texnik qismlardan tuzilgan. Shuningdek, «Ural» markali arra ham keng qo'llaniladi. Ushbu arra tros yordamida starter kuchi asosida ishlay boshlaydi. 10,5 l baxokka 2 — 3 l benzin solinadi — 0,65 l avtola AK 10 aralashtiriladi.

O'rmon xo'jaligida daraxtlarni kesib qulatish yog'och tayyorlashdagi muhim va asosiy vazifalardan biridir. Chunki bu vazifani bajarish to'g'ridan-to'g'ri inson hayoti bilan bog'liqdir. Bunda ishchilar texnika xavfsizligi qoidalariga qattiq rioya etishlari kerak. Daraxtlarni kesib qulatishda qaysi tomonga quishi lozim bo'lsa o'sha tomonga yo'naltirish zarur. Chunki ba'zi o'rmon daraxtlari katta og'irlikka ega bo'ladi. Bir soniyadagi o'ylamasdan bajarilgan ish yomon oqibatga olib kelishi mumkin. Shuning uchun daraxtni qulatishdan oldin, daraxt tanasidan 1,5 m radiusda uning atrofidagi barcha keraksiz shox-shabbalar, o'rmon osti o'simliklari va yosh daraxtchalardan tozalanadi. Qish faslida esa daraxt atrofi qordan tozalanadi. Daraxt qulash oldidan daraxtdan 45° burchakda uzoqlanish zarur.

Agar daraxt lesoskada alohida turgan bo'lsa, u holda tanlab kesishda uning qiya holatda turishi o'tiborga olinadi. Chunki daraxt qulayotgan vaqtda yaqin turgan yosh daraxtlarga zarar etkazmasligi zarur. Buning uchun ushbu alohida daraxtni qulash vaqtida yosh daraxtlar yo'q tomonga burab qulatish zarur. Kesishda daraxt asosida o'tkazilayotgan kesish ishi ushbu holatga rejalashtiriladi.

Ba'zi daraxtlarning kesish joyida har xil qo'shimcha ko'ziar, qalinlashgan پوستloq qatlami mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu daraxtni qulatishda bunday ortiqcha bo'laklar daraxt tanasidan tozalanadi. So'ng kesishga joy ochiladi. Kesish ishlari benzinli yoki elektr arralarida bajariladi.

Agar daraxt diametri 30 sm dan yuqori bo'lsa, u holda yerda kesishdan qoladigan to'nka balandligi diametarning 1/3 qismiga teng bo'ladi.

Daraxtni kesishda bir tomondan diametrining 4—6 sm kesilsa, ikkinchi tomondan kesish arra yordamida 30—35° da burchak bo'ylab yog'och tanasi bo'lagi olib tashlanadi. Shunda bu ikki kesish orasida daraxt tanasining 2—4 sm bo'lagi qoladi, xolos. Bu bo'lak daraxt

tanasini to'satdan aylanib ketishining oldini oladi. Bu esa inson uchun xavfzilikni ta'minlaydi.

Agar yuqoridagi daraxtni kesib qulatish qoidasi buzilsa, u holda daraxt qulagandan so'ng daraxt to'nkasida ortiqcha yog'och bo'lagi paraxa ko'rinishda qolib ketadi. Natijada yog'och asosida yorilish paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida sifatsiz yog'och mahsuloti degan tushunchani beradi.

Daraxtlarni tartib-qoida bo'yicha kesilgan holatda ham u ba'zan o'z joyda turib qolishi mumkin. Shunda o'rmon kesish ishlarida ko'pincha gidravlik klin — KGM ishlatiladi. Ushbu asbob benzin yordamida ishlaydigan arralar bilan birgalikda foydalaniladi: «Drujba- 4A», «Ural-2».

A) KGM haqida tavsiyanoma:

og'irligi -2,3 kg; 3,5 t yuk ko'tara oladi;

porshen yo'li - 120 mm; aylanish muddati - 23 sek;

60 sm diametrgacha bo'lgan daraxtlarni ko'tarish qobihyatiga ega.

V) KGM-1A haqida tavsiyanoma:

og'irligi - 3,5 kg; yuk ko'tarishi - 5 t;

yukni 40 mm balandlikgacha ko'tara oladi;

yukni ko'zarib turish muddati -3,7 sek;

90 sm diametrli daraxtlarni ko'tara oladi.

Shuningdek, bugungi kunda yirik mexanizatsiyalashtirilgan o'rmon xo'jaliklarida (II va III gr) daraxtlarni kesib qulatib paketlab taxlaydigan «LP-2», «LP-19» agregatlardan keng foydalaniladi.

### **Kesilgan daraxtlarni joylash**

O'rmonlarda yog'och tayyorlash asosan lesosekalarda o'tkaziladi. Ushbu lesosekadan asosiy yog'och tashish yo'li (уч лесовосной дороги) o'tkaziladi. Asosiy yog'och tayyorlash va trelyovka ishlari yuqori o'rmon yog'och omborxonasida va yuk yuklash maydonlarida bajariladi. Agar yog'ochlarni sortimentlari bilan yuklash zarur bo'lsa, u holda bunday ishlar yuqori o'rmon yog'och omborxonasida olib boriladi. Ushbu yuqori o'rmon omborxonasida daraxtlar shox-shabbdan tozalanadi, yog'ochlari taxlanadi, yog'och mahsulotlari yog'och tashish transportlariga yuklanadi va o'rmon mahsulotlarini tashish ishlari bajariladi.

Agar yog'och tashishda daraxtlarni shox-shabbdalari bilan tashilsa, u holda bunday ishlar yuklarni yuklash uchun tayyorlangan maydonlarda olib boriladi. Ushbu maydonda trelyovka ishlari ham bajariladi.



Yuqori o'rmon yog'och omborxonasi lesosek maydonining markazida o'rnatiladi va yog'och tashish yo'li bilan tutashadi. Yuqori o'rmon yog'och omborxonasida maxsus inshootlar quriladi. Bular:

- ◆ texnika vositalarini saqlash joyi;
- ◆ yoqilg'i-moylash mahsulotlari shoxobchasi;
- ◆ dam olish va qish faslida isinish joyi;
- ◆ ishchi-xizmatchilarning ovqatlanish joyi;
- ◆ o'rmon mahsulotlarini vaqtinchalik saqlash joyi. Omborxonada yog'och mahsulotlarini yuklash uchun maxsus

texnika vositalari (lebyodka, pogruzchik) mavjud va ulardan uzluksiz foydalanib boriladi.

Yuqori o'rmon omborxonasida ishchilardan 6—7 kishi ishlaydi.

Yukni yuklash maydonlari ikki xil bo'ladi:

1. Transheya usulida yuklash.
2. Sep yordamida troslardan foydalanib yuklash.

Transheya usulida yuklashda transheya uzunligi 30 — 35 m, chuqurligi 1,3 — 1,5 m dan iborat bo'ladi. Ikkinchi usulda traktor yordamida troslar vositasida yuklanadi.

Quyi o'rmon yog'och omborxonasi lesosekadan keladigan yog'och mahsulotining oxirgi joyidir. Bu joyda bajariladigan ishlar yog'och tayyorlash korxonalarining oxirgi fazasi hisoblanadi.

Quyi o'rmon yog'och omborxonasida quyidagi yuklash ishlari bajariladi:

- ◆ quruqlikdagi transport vositalarida;
- ◆ ham quruqlik, ham suv yo'lidan foydalanish;
- ◆ suvda oqizish va daryo yuk kemalaridan foydalanish.

Quyi o'rmon yog'och omborxonasida barcha ishlar mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan bo'ladi. Ushbu omborxona o'rmon ishlab chiqarish sanoati uchun asosiy mahsulot bilan ta'minlovchi baza hisoblanadi. Asosiy yuklash ishlari masofadan (distansion) boshqaruv pulplarida bajariladi.

Quyi o'rmon yog'och omborxonasi uzluksiz yog'och mahsuloti bilan ta'minlanib boriladi va saqlanadi. Yog'och mahsuloti shtabel turida taxlanadi. Uning quyidagicha turlari mavjud. Qatorli, qalin taxlangan va guruh-guruh taxlangan usullari.

Yog'ochlarni bir qatorli taxlashda ularning orasi 8 — 12 sm etib taxlanadi. Ya'ni qator orasidagi oraliq 8 — 12 sm ga teng.

Ikkinchi usulda oraliq bo'lmaydi, aksincha yog'ochlar qalin taxlanadi.

Uchinchi usulda 16 sm oraliq yog'och qo'yib, balandligi bo'ylab 10 sm dan kam bo'lmagan diametrli yog'och bo'lagi qo'yib taxlanadi.

### **Savollar:**

1. O'rmonlarda kesishning qanday turlari bor?
2. Kesish yo'laklarining o'lchami qancha bo'ladi?
3. Kesish texnologiyasi nima?
4. Oraliq kesish nima?

### **Terak va boshqa tez o'suvchi daraxtlarda asosiy kesishishlari.**

#### **Kesish pattalarini pullik va moddiy baholash**

Teraklarni asosiy kesish teraklar tabiiy yetilgan davrida amalga oshiriladi. Ko'pchilik tumanlarda, odatda, teraklarning tabiiy yetilish davri ularning 20 — 25 yoshligida ro'y beradi. Ana shu davrga borganda teraklar tanasining yo'g'onligi (1,3 m balandlikda) 40 — 45 sm ni, bo'yi esa 30 — 35 m ni tashkil etadi. Bu yo'g'onlikdagi yog'ochlarni bevosita qurilish ishlarida, shuningdek, ularni arralab taxta sifatida foydalanish mumkin. Terak tanasining yo'g'onligi ko'p jihatdan terakning turi va naviga bog'liq bo'lib, ko'chat qalinligi va yog'ochning sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shox-shabbasi atrofga tarvaqaylab o'sadigan va mirzaterak singari piramida shaklida shox-shabba hosil qiladigan terak turlari qalin qilib o'stirilganda tanalari tekis va yon atrofidagi ortiqcha navdalardan xoli bo'ladi.

Terakzorlarda daraxtlarni qulatishtan eng chekka qatordan boshlanib, daraxtlarning pastki qismi ularning sudraydigan traktor yo'nalishiga qarab, keyingi qatorga yonma-yon qilib yotqiziladi. Daraxtlar «Drujba-4A» yoki «Tayga-214» markali arralar yordamida kesiladi. Ana shu mexanizmlarning o'zi bilan yirik shoxlar kesiladi va daraxt tanasi shoxlardan tozalanadi. Keyin daraxt tanasi yog'och omboriga tashiladi, qator oralari qoldiq shoxlardan tozalanadi va navbatdagi qatordagi daraxtlarni kesishga kirishiladi.

Terak kesishning ikkinchi usuli ham mavjud bo'lib, bunda kesilgan daraxtlar shoxlari qirilmagan va asosiy tanasi yon shoxlardan tozalannagan holda sudrab chiqiladi. Keyin maxsus maydonchada shoxlarini tozalash, tanasini kerakli o'lchamda kesish amalga oshiriladi. Terakzorni asosiy kesishda ham ularni oraliq kesishdagi mexanizmlardan foydalaniladi.

Qatorlab o'tqazilgan teraklar ham asosiy foydalanishda bo'lgan terakzorlarni kesishdagi usul bilan qirqladi. Teraklar kesilgandan keyin daraxtlar va ularning qoldiqlari tashib chiqarilib to'nkalami kovlash ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun DT-75 markali traktorga tirkalanadigan KRT-2 to'nka qazgichdan, M-6 markali qazgich-yig'gichdan, yo'g'on ildizlarni yig'ib olishda KRT-3 markali kultivatordan DT-75 markali traktorga tirkalgan holda foydalaniladi. To'nkalami kovlab olishda boshqa markadagi qazgichlar va mashinalardan ham foydalansa bo'ladi. Kovlab chiqarilgan to'nkalami yig'ib olish DT-75 traktoriga tirkaladigan M-6 markali uyum yig'gich yordamida bajariladi.

Dalalar to'nkalaridan va ildiz qoldiqlaridan tozalangandan so'ng, yer plantajli plug bilan haydaladi, maydon bir yilgacha shudgor holicha tashlab qo'yiladi va kelasi yili beda ekishda foydalaniladi.

Terakzorlarda daraxtlarni oraliq kesish, boshqacha aytganda, boshqa daraxtzorlardagi kabi parvarishlash maqsadida kesish daraxtlar hayot muddatining uchta davriga mo'ljal qilib o'tqaziladi: birinchisi — daraxtlar shox-shabbasining qalinlashib ketish davri; ikkinchisi — daraxtlar juda o'sib ketgan davrda va uchinchisi — daraxtlarda fiziologik jarayonlar susaygan va o'simtlarining pasayib ketish davri hisoblanadi.

Maxsus barpo etilgan terakzorlarda va qatorlab o'tqazilgan teraklarda hayot muddatining uchta davri farq qilinib, ular turli davrlarda ro'y berishi mumkin. Mirzateraklar ekilib barpo qilingan daraxtzorlarda ular qalin o'tqazilganligi tufayli (gektariga 10 ming tupgacha) hayot muddatining dastlabki davri 5 yoshhgida, ikkinchisi 10 yoshligida va uchinchi davri esa 15 yoshligida ro'y beradi. Oddiy tipik terakzorlarda esa 1x3 m li sxemada o'tqazilgan mirzateraklarda oraliq kesish bittadan terak qoldirib, 5 yoshhgida o'tkaziladi. Ikkinchisi shu xilda kesish daraxtlarning 10 yoshligida o'tkazilib, 2x3 m li sxema bilan o'tqazilgan teraklar esa asosiy kesishgacha o'stiriladi.

Qatorlab ekilgan teraklar, agar ular yo'l yoqalariga yoki sug'orish shaxobchalari bo'yiga 1, 2, 3 va 4 qatordan qilib o'tqazilgan va da-



12-rasm. Tez o'suvchi terak daraxtzorlari.

raxtlar qatorlarda 1,0; 1,5 va 2,0 m oraliqda joylashtirilgan bo'lsa, oraliq kesish teraklarning 5, 10 va 15 yoshligida o'tkaziladi. Har uchala holda ham o'tqazilgan ko'chatlarning ko'karib turganlari 50% miqdorida kesib olinadi. Agar mirzateraklar har gektar maydonga 10 ming tup miqdorida o'tqazilgan bo'lsa, u vaqtda birinchi kesishda yarmi, ya'ni 5 ming tupi kesib olinadi, ikkinchisida 2500 tupi, uchinchisida 1250 tupi kesilib, qolgan 1000 — 1200 tupi asosiy kesishga qoldiriladi.

Teraklarni oraliq va asosiy kesishda ishga yaroqli yog'ochlar va ularning hajmi har xil assortimentda bo'ladi. O'lchami bo'yicha ular uchta guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ishga yaroqli yirik yog'ochlar kiritilib, ularning yo'g'onligi uchki kesmasi bo'yicha po'stlog'isiz 25 sm va undan ham yo'g'on bo'lishi kerak. Ikkinchi guruhga yo'g'onligi 13 dan 24 sm gacha, uchinchi guruhga esa maydalari kiritilib, ularning yo'g'onligi 3 — 12 sm ni tashkil etadi. Tabiiyki dastlabki oraliq kesishda (5 va 10 yoshligida) asosan mayda va o'rtacha o'lchamdagi yog'ochlar olinadi, lekin ularni qishloq qurilishlarida bemalol ishlatish mumkin. Ishga yaroqli yirik yog'ochlar teraklarning yoshi 15 ga yetganda va undan oshganda shakllanadi.

Oraliq kesish texnologiyasi daraxtlarning hayot muddatlarining turli davrlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, terakni qatorlab o'stirish va maxsus terakzorlar barpo etib etishtirish, shuningdek, ularni qalin o'stirish bilan alohida terakzorlarda o'stirishdagi kabi. Umuman, teraklarni oraliq kesish texnologiyasida ishlarni quyidagi izchillikda o'tkazish talab etiladi:

- ◆ qatorlab o'tqaziladigan va maxsus terakzorlarning ishchi bo'lmalarni va daraxtlardan chiqadigan yog'ochni sudrab chiqish joylarni rejalash;

- ◆ daraxtlarning 3 m gacha bo'lgan balandligidagi shoxlarini kesish va ularni daraxtzordan tashqariga chiqarib tashlash;

- ◆ kesish uchun mo'ljallangan daraxtlarni yiqitish;

- ◆ shoxlarni kesish va ularni ham daraxtzordan tashqariga chiqarib tashlash;

- ◆ daraxtlardan arralab olingan yog'ochlarni sudrab chiqish;

- ◆ yog'och va shoxlarni o'lchash va shtabellarga taxlash.

Qalin qilib o'stirilgan daraxtzorda (gektariga 10 ming tuppacha) birinchi oraliq kesishni (5 yoshligida) ikkinchi qatordan boshlash, keyin to'rtinchi, oltinchi, sakkizinchi qatorlardan ish boshlash lozim. Ikkinchi oraliq kesish (10 yoshligida) ham ikkinchi qatordan boshlanib, qolganlari ham birinchi kesishdagi kabi perpendikular ravishda amalga oshiriladi. Uchinchi oraliq kesish va asosiy kesish ham navbati bilan

o'tkaziladi. Terakning qalin joylashganligi va uning yoshi hali kichikligi tufayli birinchi oraliq kesishda u unchalik yirik ishga yaraydigan yog'och bera olmaydi va shunga ko'ra undan shoxlari qo'l bilan kesib tashlangandan keyingina foydalanish mumkin. Bu yerda yog'ochni traktor bilan sudrab chiqish faqat uchinchi oraliq kesish va oxirgi asosiy kesish vaqtida qo'llanilishi mumkin. Daraxtlarni traktor sudraydigan tomonga qilib yiqitiladi.

Birinchi oraliq kesishdagi ishlarni mexanizatsiyalashtirish uchun qator oralari 3 m va undan kengroq bo'lgan hollarda 0,6 — 1,4 sinfga oid g'ildirakli traktorlardan TPR-1 tipidagi maxsus sudraydigan moslama bilan jihozlangan holda yoki trossdan foydalaniladi. Bunda agregatga traktorchi va uning yordamchisi xizmat qiladi. Traktor esa qator orasiga orqasi bilan kirib keladi.

### **Savollar:**

1. Teraklarni ekish sxemalarini ko'rsating.
2. Tanlab kesish nima?
3. O'rmon kesish chiptalari qanday to'ldiriladi?

### **Parvarishlash maqsadida o'rmonlarni kesish**

O'zbekistondagi o'rmonlar suvni himoya qiladi, tuproqni suv, shamol eroziyasidan saqlaydi, sanitar-gigiena va rekreatsiya fimksiyalarini ham bajaradi. Shuning uchun bu o'rmonlar 1 guruhga kiradi va o'rmon o'suvchi mintaqalar bo'yicha tog'li, daryolar atrofidagi to'qayzorlar, tekislikdagi va qumli-cho'l o'rmonlariga bolinadi.

Respublikadagi o'rmonlar siyrak joylashganligini e'tiborga olib, ko'p miqdorda yong'oqzorlar, yowoyi mevazorlar bo'lganligi uchun bu o'rmonlarda parvarish qilish maqsadida ularni qisman kesish mumkin, yoki sanitar maqsadida ajratib kesish mumkin. O'tin tayyorlash uchun uzoq cho'l-qum massivlarida joylashgan saksovullarnigina kesish mumkin. Ularning ekologik ahamiyati kamroq.

O'rmonni parvarish maqsadida kesish o'rmon xo'jaligidagi muhim tadbir, yuqori hosilli qimmat daraxtzorlar yaratishga, uning foydali funksiyasini saqlash va ko'paytirishga, yog'ochidan o'z vaqtida foydalanishga qaratilgan. Buni amalga oshirish uchun daraxtzordagi ahamiyatini yo'qotgan daraxtlar kesib, asosiy daraxt turlariga yaxshi sharoit yaratiladi.

Daraxtlarning yoshi va parvarishning maqsadiga qarab daraxtlarni kesishning quyidagi asosiy turlari mavjud: yoritish va tozalash (yosh

daraxtzordagi kesish), siyraklatish va o'tib kesish usullari. O'rmonni kesib parvarish qilish majmuiga quyidagilar ham kiradi: daraxtzorda yosh shoxchalarini kesish, yosh daraxtlarni siyraklantirish va olib tashlash, o'rmon devorlarini (chetlarini) parvarishlash, landshaftni shakllantirish uchun ayrim daraxtlarni kesish, daraxtzorlarni o'zgartirish maqsadida kesish va sanitar maqsadida tarlab kesish.

**Parvarish maqsadida o'rmonni kesishning asosiy masalalari:**

— tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash va ko'paytirish, suvni himoya qilish, sanitar-gigienik va o'rmonning boshqa foydali xususiyatlarini yaxshilash;

— daraxtzorning tur tarkibini yaxshilash;

— daraxtzorlarning sifati va chidamliligini ko'tarish;

— o'rmonning sanitar ahvolini yaxshilash;

— daraxtlarning meva berish sharoitini yaxshilash;

— daraxtlarning yog'ochidan foydalanishni oshirish va texnik pishish davrini qisqartirish.

**Yoritishning asosiy maqsadi** — daraxt turlarini yaxshilash va asosiy daraxt turining o'sish sharoitini yaxshilashdir;

**Tozalash** — asosiy daraxt turining joylashini boshqarib turish va ularning o'sish sharoitini yaxshilash, tarkibining shakllanishini davom ettirish;

**Siyraklashtirish** — yaxshi daraxtlarga shox-shabbasi va tanasini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

**O'tib kesish** — yaxshi daraxtlar yog'ochining o'sishiga yaxshi sharoitlar yaratish;

**Daraxtlarni yangilash maqsadida kesish** — kelajagi bo'lgan yosh daraxtlarning o'sishi uchun sharoit yaratish;

**Qayta shakllantirish maqsadida o'rmonni kesish** — yosh tarkibi, yoki daraxtzorlar tuzilishini tubdan o'zgartirish.

**Daraxtlar klassifikatsiyasi.** O'rmonda parvarish maqsadida daraxtlarni kesishda xo'jalik-biologik klassifikatsiya qo'llaniladi. Unga binoan hamma daraxtlar uch kategoriyaga bo'linadi; yaxshilari, yordamchilari (foydalilari), kerak emaslari (kesib tashlanadiganlari).

Yaxshi daraxtlar qatoriga sog'lom, baquwat, tanasi tikka, to'liq yog'ochli, yon shoxchalaridan tozalangan, shox-shabbalari yaxshi shakllangan, yaxshi ildiz otganlari, urug'idan unib chiqqanlari kiradi.

Yordamchi daraxtlar qatoriga shundaylari kiradiki, ular yaxshi daraxtlarning o'sishiga yordam beradi, ularning tanasi va shox-shabbasining shakllanishiga sharoit yaratuvchi, tuproqni eroziyadan saqlovchi, tuproqni boyituvchi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Kesiladigan daraxtlar turiga quyidagilar kiradi:

a) ajratilgan yaxshi va yordamchi daraxtlarning o'sishi va shox-shabbasining shakllanishiga xalaqit beruvchi (soya beruvchi, tegib turuvchi va h.k.), shamolda singani, qor sindirgani, qurib kelayotgani, zamburug'lar va zararkunandalar bilan kasallanganlari;

b) tanasi qiyshaygan, yirik bachki navdalari, shox-shabbase pastligi, agar bu daraxtlar foydali rolni o'tamasalar, agar ular kesib tashlansa katta ochiq joylar paydo bo'lmasa;

d) keraksiz daraxtlar aralashmasi bo'lsa, agar ular kerakli, yaxshi daraxt turlarining o'sishiga xalaqit bersa, agar ularni kesib tashlansa daraxtzorlar buzilmasa.

Yuqoridagi o'rmon daraxtlari uchun zarur bo'lgan tabiatning iqlimi, havo harorati va quyosh energiyasi uning o'sib rivojlanishida, o'spirin daraxtlarning kelajakda o'rmon paydo qilishida, shuningdek, eng yaxshi daraxtlarni sara urug' berishida katta vazifani o'taydi. Chunki tirik mavjudod uchun yuqoridagi omillar har doim zarur bo'ladi.

O'rmonlarda har xil turdagi kesish ishlari mustahkam va yuqori mahsulli, xo'jalik jihatidan qimmatli daraxtlar o'stirilishiga qaratilgan muhim o'rmon xo'jaligi tadbiri hisoblanadi.

| Parvarish qilish uchun kesish turlari | Daraxtlar yoshi (yil)                          |                         |  |                        |
|---------------------------------------|--|-------------------------|--|------------------------|
|                                       | Igna bargli daraxtlar (qarag'ay, qoraqarag'ay) | Yaproq bargli daraxtlar |  |                        |
|                                       |  | Pista, yoong'oq, eman   | Qayrag'och, shum'ol, zarang, akas, olma, qayin | Terak, bodom, turang'l |
| Siyaklashtirish                       | 20 yoshgacha                                   | 20 yoshgacha            | 10 yoshgacha                                   | 5 yoshgacha            |
| Tozalash                              | 21-40  | 21-40                   | 11-20  | 5-10                   |
| Yaganalash                            | 41-80  | 41-80                   | 21-40  | 11-20                  |
| O'tish joyiga ochish                  | 81 va undan yuqori                             | 81 va undan yuqori      | 41 va undan yuqori                             | 21 va undan yuqori     |

Quyidagilar parvarish qilish uchun kesishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- o'rmonning himoya, suvni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena va boshqa foydali xossalarni saqlab qolish va kuchaytirish;
- daraxtlarning turi tarkibini yaxshilash;
- daraxtlarning sifati va mustahkamligini oshirish;



— o'rmonning sanitariya holatini yaxshilash;

— yog'ochdan foydalanish hajmini ko'paytirish va texnik jihatdan yetilgan yog'och yetishtirish muddatini qisqartirish.

Parvarish qilish uchun kesishda asosan o'rmon xo'jaligida shakllangan, o'zida daraxtning quyi va yuqori qismini parvarish qilishni qo'shib olib boruvchi usul qo'llaniladi. Tasniflashga muvofiq eng yaxshi va yordamchi foydali daraxtlar yetishtirish uchun qoldiriladi, kesilishi kerak bo'lganlari olib tashlanadi. Daraxtning tarkibiga, holatiga va daraxt turidarining biologik xususiyatlariga qarab daraxtlarning shox-shabbasi soyasi ostidagi kesiladigan daraxtlar kesib tashlanadi.

Daraxtlarni siyraklashtirish va o'tish joylari ochish uchun kesishda daraxtlarni tanlash uchastkaning butun maydonida amalga oshiriladi, texnologiya yo'laklari va yuklash punktlari bundan mustasno.

Yosh daraxtlar o'sayotgan joylarda daraxtlarni tanlash (siyraklashtirish va tozalash) ham butun maydon bo'ylab, ham mayda yer uchastkalari (yo'laklar) bo'ylab, ham to'p-to'p daraxtzorlarda olib boriladi.

Yong'oq mevali daraxtlarning eng yaxshilari yakka tartibda yetishtirish va qo'riqlash uchun ajratib olinadi. Uchastkalarining kengligi daraxtlarning balandligi hamda asosiy navlarining yetarlicha miqdorini qoldirish hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda o'rmonni parvarish qilish uchun bir marta kesishda uchastka maydonining kamida 50 foiziga ishlov berish kerak.

Parvarish qilish uchun kesish eng avvalo yuqori bonitetli daraxtlarga nisbatan belgilanadi. Boniteti V klassli daraxtlarga nisbatan parvarish qilish uchun kesish, qoidaga ko'ra, belgilanmaydi.

Sof daraxtzorlarda parvarish qilish uchun kesishga tanasi juda cho'zilib ketgan, shox-shabbalari rivojlanmagan, o'sishdan kech qolgan, bo'xshov shakldagi poyalari ko'p bo'lgan hamda nuqsonlari bo'lgan daraxtlardan iborat, sun'iy ravishda barpo etilgan qalin o'sgan uchastkalar ajratiladi.

**Aralash daraxtzorlarda parvarish qilish uchun kesish tarkibi qoniqarsiz bo'lgan o'rmon uchastkalarida belgilanadi.** Bunda noma'qul navlarni qisman yoki to'liq kesish hisobiga ularning asosiy daraxtlarga noxush ta'siri bartaraf etiladi va asosiy navlar ustunlik qilgan daraxtzorlar barpo etiladi.

Daraxtlarning shox-shabbalari bo'yicha o'sish zichligi 0,7 dan past bo'lgan daraxtzorlarda, zichligi 0,6 dan past bo'lgan aralash daraxtzorlarda siyraklashtirish va o'tish joylari ochish uchun kesish qoidaga ko'ra belgilanmaydi. Daraxtlar to'p-to'p joylashgan sof va aralash daraxtlar majmuida, basharti, ayrim to'p-to'p daraxtlarda (daraxt

a) ajratilgan yaxshi va yordamchi daraxtlarning o'sishi va shox-shabbasining shakllanishiga xalaqit beruvchi (soya beruvchi, tegib turuvchi va h.k.), shamolda singani, qor sindirgani, qurib kelayotgani, zamburug'lar va zararkunandalar bilan kasallanganlari;

b) tanasi qiyshaygan, yirik bachki navdalari, shox-shabbase pastligi, agar bu daraxtlar foydali rolni o'tamasalar, agar ular kesib tashlansa katta ochiq joylar paydo bo'lmasa;

d) keraksiz daraxtlar aralashmasi bo'lsa, agar ular kerakli, yaxshi daraxt turlarining o'sishiga xalaqit bersa, agar ularni kesib tashlansa daraxtzorlar buzilmasa.

Yuqoridagi o'rmon daraxtlari uchun zarur bo'lgan tabiatning iqlimi, havo harorati va quyosh energiyasi uning o'sib rivojlanishida, o'spirin daraxtlarning kelajakda o'rmon paydo qilishida, shuningdek, eng yaxshi daraxtlarni sara urug' berishida katta vazifani o'taydi. Chunki tirik mavjudod uchun yuqoridagi omillar har doim zarur bo'ladi.

O'rmonlarda har xil turdagi kesish ishlari mustahkam va yuqori mahsulli, xo'jalik jihatidan qimmatli daraxtlar o'stirilishiga qaratilgan muhim o'rmon xo'jaligi tadbiri hisoblanadi.

| Parvarish qilish uchun kesish turlari | Daraxtlar yoshi (yil)                            |                         |  |                             |
|---------------------------------------|--|-------------------------|--|-----------------------------|
|                                       | Ilgina bargli daraxtlar (qarag'ay, qoraqarag'ay) | Yaproq bargli daraxtlar |  |                             |
|                                       |  | Pista, yoong'oq, cman   | Qayrag'och, shum'ol, zarang, akas, olma, qayin | Terak, tol, bodom, turang'i |
| Siyraklashtirish                      | 20 yoshgacha                                     | 20 yoshgacha            | 10 yoshgacha                                   | 5 yoshgacha                 |
| Tozalash                              | 21-40  | 21-40                   | 11-20  | 5-10                        |
| Yaganalash                            | 41-80  | 41-80                   | 21-40  | 11-20                       |
| O'tish joyiga ochish                  | 81 va undan yuqori                               | 81 va undan yuqori      | 41 va undan yuqori                             | 21 va undan yuqori          |

Quyidagilar parvarish qilish uchun kesishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- o'rmonning himoya, suvni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena va boshqa foydali xossalarni saqlab qolish va kuchaytirish;
- daraxtlarning turi tarkibini yaxshilash;
- daraxtlarning sifati va mustahkamligini oshirish;

— o'rmonning sanitariya holatini yaxshilash;

— yog'ochdan foydalanish hajmini ko'paytirish va texnik jihat- dan yetilgan yog'och yetishtirish muddatini qisqartirish.

Parvarish qilish uchun kesishda asosan o'rmon xo'jaligida shakllangan, o'zida daraxtning quyi va yuqori qismini parvarish qilishni qo'shib olib boruvchi usul qo'llaniladi. Tasniflashga muvofiq eng yaxshi va yordamchi foydali daraxtlar yetishtirish uchun qoldiriladi, kesilishi kerak bo'lganlari olib tashlanadi. Daraxtning tarkibiga, holatiga va daraxt turlarining biologik xususiyatlariga qarab daraxtlarning shox- shabbasi soyasi ostidagi kesiladigan daraxtlar kesib tashlanadi.

Daraxtlarni siyraklashtirish va o'tish joylari ochish uchun kesishda daraxtlarni tanlash uchastkaning butun maydonida amalga oshiriladi, texnologiya yo'laklari va yuklash punktlari bundan mustasno.

Yosh daraxtlar o'sayotgan joylarda daraxtlarni tanlash (siyraklashtirish va tozalash) ham butun maydon bo'ylab, ham mayda yer uchastkalari (yo'laklar) bo'ylab, ham to'p-to'p daraxtzorlarda olib boriladi.

Yong'oq mevali daraxtlarning eng yaxshilari yakka tartibda yetishtirish va qo'riqlash uchun ajratib olinadi. Uchastkalarining kengligi daraxtlarning balandligi hamda asosiy navlarining yetarlicha miqdorini qoldirish hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda o'rmonni parvarish qilish uchun bir marta kesishda uchastka maydonining kamida 50 foiziga ishlov berish kerak.

Parvarish qilish uchun kesish eng avvalo yuqori bonitetli daraxtlarga nisbatan belgilanadi. Boniteti V klassli daraxtlarga nisbatan parvarish qilish uchun kesish, qoidaga ko'ra, belgilanmaydi.

Sof daraxtzorlarda parvarish qilish uchun kesishga tanasi juda cho'zilib ketgan, shox-shabbalari rivojlanmagan, o'sishdan kech qolgan, bo'xshov shakldagi poyalari ko'p bo'lgan hamda nuqsonlari bo'lgan daraxtlardan iborat, sun'iy ravishda barpo etilgan qalin o'sgan uchastkalar ajratiladi.

**Aralash daraxtzorlarda parvarish qilish uchun kesish tarkibi qoniqarsiz bo'lgan o'rmon uchastkalarida belgilanadi. Bunda noma'qul navlarni qisman yoki to'liq kesish hisobiga ularning asosiy daraxtlarga noxush ta'siri bartaraf etiladi va asosiy navlar ustunlik qilgan daraxtzorlar barpo etiladi.**

Daraxtlarning shox-shabbalari bo'yicha o'sish zichligi 0,7 dan past bo'lgan daraxtzorlarda, zichligi 0,6 dan past bo'lgan aralash daraxtzorlarda siyraklashtirish va o'tish joylari ochish uchun kesish qoidaga ko'ra belgilanmaydi. Daraxtlar to'p-to'p joylashgan sof va aralash daraxtlar majmuida, basharti, ayrim to'p-to'p daraxtlarda (daraxt

guruhida) asosiy navlarning ikkinchi darajali navlar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi xavfi mavjud bo'lsa, parvarish qilish uchun kesish ularning umumiy zichligi va to'liqligidan qat'iy nazar belgilanadi. Yangilash uchun kesish istiqbolli yosh daraxtlar soni yetarli bo'lgan yetilgan va ortiqcha turib qolgan daraxtzorlarda o'tkaziladi. Yosh daraxtlar uchun qulay sharoitlar yaratiladi, qurib qolayotgan o'rtacha yoshli yoki etilayotgan daraxtzorlarda — vegetativ yosh daraxt olish maqsadida to'nkaga (o'rmonzordagi pakana qayrag'och uchun) daraxt ekish yo'li bilan yangilanadi.

Qaytadan barpo etish uchun kesish bir yoshdagi daraxtlarni har xil yoshli daraxtlarga aylantirish maqsadida o'tkaziladi.

Kesish uchun birinchi navbatda:

a) noma'qul navlar bosib ketgan asosiy navlarning yosh daraxtlari (yong'oq, pista, archa, qrim qarag'ayi va boshqalar);

b) asosiy ko'chatlari ikkinchi darajali daraxtlar ostida bo'lgan arzonbaho yosh daraxtlar;

d) qimmat navli qalin o'sgan sof yosh daraxtlar (yong'oq, archa, qarag'ay va boshqalar), shuningdek urug'dan va bachkidan o'sib chiqqan yosh daraxtlar;

e) asosiy navi ikkinchi darajali daraxtlar ostida joylashgan aralash daraxtzorlar kesish uchun belgilanadi.

Ikkinchi navbatda:

a) sof daraxtzorlarda siyraklashtirish;

b) sof daraxtzorlarda o'tish joylari ochish;

d) yangilash uchun kesish;

e) qayta barpo etish uchun kesish amalga oshiriladi.

Maydonlar ajratish, yetishtirishga va kesishga daraxtlarni tanlash, ularni tamg'alash, qayta hisoblash, sinov maydonlarini barpo qilish barglar to'kilguncha yoz davrida, igna bargli daraxtzorlarda esa, yilning boshqa mavsumlarida ham amalga oshiriladi. Daraxt ajratish ishlarini kesishdan bir yil oldin o'tkaziladi.

Parvarish qilish uchun bir yilda kesish uchastkalarini tanlash o'rmon tuzish materiallari bo'yicha amalga oshiriladi. Uchastkalar o'rmon uchastkasi mudiri yoki uning yordamchisi tomonidan bevosita o'rmonning o'zida ko'zdan kechirib chiqiladi. O'rmon tuzish ma'lumotlari uchastkalamning haqiqiy holatiga muvofiq bo'lmagan taqdirda, bunday uchastkalar ma'lumotlar farq qilishi to'g'risida dalolatnoma tuzilgan holda kesishdan chiqarib tashlanadi.

Yosh daraxtzorlarda (siyraklashtirish, tozalash) butun uchastkada kesish mo'ljallangan daraxtlarga belgi qo'yilmaydi, balki bir xildagi joylarda

to'g'ri burchak shaklida bir yoki bir necha yoxud uzun sinov maydonlari barpo etiladi, ularda butun uchastkada parvarish qilish uchun kesishda namuna bo'lib xizmat qiluvchi kesish amalga oshiriladi. Sinov maydonlari kattaligi uchastka maydonining 3—5 foizini tashkil etishi kerak. Butun uchastkada kesilishi kerak bo'lgan yog'och zaxirasi sinov uchun kesiladigan yog'och miqdori bo'yicha aniqlanadi.

Siyraklashtirish, o'tish joylari ochish, shuningdek — tanlab sanitariya kesishlarida, yangilash va qayta barpo etish bilan bog'liq kesishlarda diametri ko'krak balardligida 8 santimetr va undan yuqori bo'lgan kesish belgilangan daraxtlarga uzunasiga chiziq tortiladi va ildizi bo'g'zidan tang'alanadi. Kesiladigan yog'och zaxirasi kesish belgilangan daraxtlarni yalpi qayta hisoblash asosida aniqlanadi. Diametri 8 santimetrdan ortiq bo'lgan kesilishi kerak bo'lgan daraxtlar zaxirasi maxsus barpo etiladigan sinov maydonlarida joylashtirish o'lchovlari bilan aniqlanadi.

To'qaylardagi o'rmonlarda parvarish qilish uchun kesish daraxtlarning himoya va qirg'oqni mustahkamlash xususiyatlarini oshirish, daraxtlar majmuini sog'lomlashtirish va ularning mahsuldorligini oshirish uchun amalga oshiriladi. Kengligi 150 metr bo'lgan daryo bo'yidagi qirg'oqni himoya qiluvchi daraxtzorlar sifatidagi alohida himoya uchastkalarida va kanallar bo'yidagi, ko'llar hamda kengligi 250 metr bo'lgan boshqa suv havzalari atrofidagi to'rang'i, jiyda, tol va yulg'undan iborat tabiiy daraxtzorlarda daraxtlarning (shikastlangan, quriyotgan va zararkunandalar uya qo'ygan daraxtlar) faqat tanlab sanitariya maqsadida kesilishiga yo'l qo'yiladi.

Tabiiy tolzorlar, to'rang'izorlar, jiydazorlarda parvarish qilish uchun kesish siyraklashtirish va o'tish joylari ochish maqsadida kesiladi. Yosh daraxtzorlarda parvarish qilish uchun kesish bir marta 40 foizdan ortiq bo'lmagan daraxt tanasini tanlagan holda 4

— 5 yoshda, siyraklashtirish zaxira bo'yicha 25 foizini tanlagan holda 10 — 12 yoshda, o'tish joylari oebish uchun kesish 21 yoshdan katta daraxtzorlarda taniash zaxira bo'yicha 10 — 15 foizdan ortiq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Tabiiy tolzorlar, to'rang'ilzorlar, jiydazorlarda himoya xossalarini yo'qotgan, yetilgan va uzoq turib qolgan daraxtlarni yangilash uchun kesish o'rmonning yangi avlodini barpo etish maqsadida o'tkaziladi. Yetilgan uzoq turib qolgan daraxtlar qolgan to'nkalami jonlashtirish va boshki ko'chatlarni tiklash uchun hamda kesishdan keyin uchastkaning kamida 50 foiz maydoni o'rmon bilan qoplanadigan qilib 30 — 50 m kenglikda yalpi tor polosa qilib kesiladi. O'rmon uchastkasining ikkinchi yarmi birinchi yarmida ishonchli yosh daraxt olingandan va ular siyraklashtirilgandan keyin kesiladi.

Agar yetilayotgan, yetilgan va uzoq turib qolgan daraxtlardan iborat tabiiy to'qaylardagi o'rmonlarda yuqori qismi qurigan, qurigan daraxtlar 50 foizdan ortiq bo'lsa, yalpi sanitariya kesishi o'tkaziladi. Kesish yo'nalishi texnologiya yo'laklarini har 50 metrdan keyin daryo oqimiga tik joylashtirgan holda daryo oqimiga qarshi belgilanadi. Parvarish qilish uchun kesish asosan qish davrida tuproq muzlagan paytda o'tkaziladi.

Yong'oqzorlarni parvarish qilish uchun kesish zichligi (to'liqligi) 0, 6 va undan yuqori boiganda o'tkaziladi, bunda daraxtlar asosan ikki turga — mevali va keyin kesib tashlanadigan nomaqbul daraxtlarga ajratiladi. Parvarish qilish uchun kesishning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

a) daraxtlarni siyraklashtirish ularning 6 — 7 yoshida bir marta o'tkaziladi. Bunda o'sishdan qolgan, muzlagan va shikastlangan daraxtlar olib tashlanadi;

b) tozalash meva tugish pallasiga kirgan daraxtlarning 10—15 yoshida o'tkaziladi. Tozalashning asosiy vazifasi xo'jalik jihatidan qimmatli meva beradigan daraxtlarni tanlash, ularni maydon bo'ylab bir tekis joylashtirishdan iboratdir, shox-shabbalar zichligi bunda 0, 4 dan kam bo'lmasligi kerak. IV — V bonitetli yong'oqzorlarda daraxtlar parvarish qilish uchun kesilmaydi;

d) yaganalash meva beruvchi daraxtlarni yakunlovchi shakllantirishda belgilanadi. Parvarish qilish uchun kesishda daraxtlar ikki turga ajratiladi. Bular: asosiy daraxtlar, ular daraxtzorni shakllantirish tugallangandan keyin mevali daraxtlarni tashkil etishi kerak va nomaqbul daraxtlarga aylanuvchi yordamchi daraxtlar, ular keyinchalik parvarish qilish uchun kesishda izchil ravishda olib tashlanadi.

So'ngi kesishlar 1-guruh balandlikdagi yong'oqzorlarda 40 yoshgacha, 2-guruhga kiruvchi yong'oqzorlarda 50 yoshgacha, 3-guruhga kiruvchi yong'oqzorlarda 60 yoshgacha, 4-guruhga kiruvchi yong'oqzorlarda 70 yoshgacha tugallanishi kerak. Oxirgi kesishdan keyin daraxtlarning zichligi 0,4 dan past bo'lmasligi kerak. O'sish sharoitlariga qarab asosiy daraxtlar 1 gektarda 30 tadan 70 tagacha bo'lishi kerak. Bunda ularni bir tekis joylashtirish nazarda tutilishi zarur.

Daraxtlarning shox-shabbasi soyasi ostida yong'oq niholi yoki daraxti bo'lgan zarang, olma, olcha va boshqa daraxtlar ko'p bo'lgan tabiiy daraxtzorlarda qayta barpo etish (tarkibi bo'yicha) har 5 yilda kesgan holda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda zarang, olma, olcha hamda boshqa yosh nihollarga soya soluvchi daraxtlar kesiladi. Tabiiy ravishda o'sgan turli yoshdagi yong'oq daraxtlari, shuningdek, uzoq turib qolgan daraxtlar ostida yong'oq daraxti ekilgan uchastkalarda parvarish qilish uchun kompleks kesish o'tkaziladi. V klass yoshdagi va undan katta klassdagi daraxtlar yangilash uchun kesiladi. Bunday kesishning vazifasiga yong'oqning urug'dan ko'karishini rivojlantirish, ular bilan daraxtzorning keksa avlodini asta-sekin almashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Yorug'lik tushadigan oraliqlar ochiladi, meva bermaydigan daraxtlar olib tashlanadi. Daraxtlarning (olma, olcha va boshqalarning) ikkinchi pog'onasini parvarish qilish qalin o'sgan guruhlarini kesishdan, mevali daraxtlarni qisilishdan halos qilish va ularni yoshartirishdan iboratdir. Sanitariya holatiga ko'ra, shamol, qor sindirgan hamda sinib tushgan daraxtlarni olib tashlash parvarish qilish uchun kesish kompleksiga kiradi.

Parvarish qilish uchun kesish jadalligi daraxtning zichligiga va yosh guruhiga, shuningdek, tog' yon bag'irlarining tikligiga bog'liq ravishda aniqlanadi. Qiyaligi  $25^\circ$  dan ortiq bo'lgan yon bag'irlarda eroziya bilan yuvib ketish xavfi oshadi.

Tabiiy pistazorlarda zichlik past bo'ladi (0,3 — 0,4), shu sababli, ular parvarish qilish uchun kesilmaydi. Qurigan, yuqori qismi qurib qolgan, kasal va kasallikka chalingan pista daraxtlari tanlab sanitariya maqsadlarida kesib tashlanadi.

Sun'iy ravishda barpo etilgan qalin pistazorlarda parvarish qilish uchun kesish I-klass yosh daraxtlarida ularning zichligi 0,7 ga va undan yuqoriga yetganda yoki ularning yaxshiroq meva berishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida bir gektar  $m_0 \wedge 600$  tupdan ortiq daraxtlar bo'lgan taqdirdagina belgilanadi.

Parvarish qilish uchun kesishdan keyin pistazor  $b$  gektarda kamida 150—200 daraxt qolishi kerak. Ir  $a$  olcha plantatsiyalarda erkak va ona

daraxtlar soni 1:5 . 1 pibatga muvofiq bo'lishi kerak. To'nkadan ko'kargan navq'ni 1 y0 qotish maqsadida amaldagi tavsiyalarga muvofiq kimyoviy (^{an}\* I^{n})iladi.

Mevasi shirin va achchiq bo'lgan qalinlashgan ^{2}orl^{rd} parvarish qilish uchun kesish II — III klass yo^{odo}\_{10} - 15 yoshda) ularning zichligi 0.7 — 0.8 ga yoki und^{11} o'jga yet- ganda yoki bir gektardagi daraxtlar ort\_{\Delta}

bo'lganda belgilanadi. Qatorlar oraligi 3 — <j\_{fr} b^{oc}lg^{an} bodomzorlarda alohida qatorlarni kesilmaydiga^{me} ^{a} bilan navbatlashtirgan holda kesish kerak: 15 yoshd^{4}^{10} ^{n}tirish maydoni 22 — 28 m^2 ni yoki daraxtlar soni 1 gek^{1} o.z\* aiyb 400 tani tashkil etishi kerak. Oddiy bodom daraxtlarini^{1}^{3} . . nevalar yetilganda va ta'miga qarab, ularning shirin yoj. ^{cesi}^{c}ijqligini aniqlash mumkin bo'lgan yoz paytida (iyun-^{1} a^{c} lylarida) belgilanadi.

Turli yoshdagi olma va olcha daraxtlariga nisbata^{,} j^{c}b qilish uchun kesish shox-shabbaning zichligi 0,7 dan p^{.}^{arv} ,ll)aganda belgilanadi. Yowoyi holda o'suvchi olma va oLl.^{1} planning bunday uchastkalarda qalinlik 0,5 gacha yetkazilgan. ^{tish} joyi bafo qilish uchun kesiladi. Meva berayotgan daraxti-^{o} avva\*o

shox-shabbasini tiklashga qodir bo'lmagan quriy(^{an} ^{asal} va kasallikka duchor bo'layotgan daraxtlar kesiladi. 'e^{all}

Qiyaligi 20^{o} dan ortiq bo'lgan uchastkalar^{,} ,ii^{an}^{an} daraxtlar kesilgandan keyin I va II pog'onadaj,^{mo} ^{t}l^{am}i^{n}§ zichligi 0,5 dan past bo'lmashligi kerak. ^{ar}

Eroziyaga qarshi o'rmonlarda, shu jum], jk yon bag'irlaridagi uchastkalardagi o'rmonlarda parvarj|^{af} uchun kesish tabiiy jarayonlar davomida o'rmonlar, ^{qiy}mati yomonlashgan taqdirdagina amalga oshiriladi. ^{r}chasi,

yarim sharsimon va turkiston archasidan iborat e. ^{so} qarshi o'rmonlar juda siyrakligi tufayli ularni parvarish qil, a^{Zyf} L\_{1r} kesish belgilanmaydi. Faqat tanlab sanitariya kesishlari o, ^{uc} Jldi- Tanlab sanitariya kesishlar daraxtzorlarni qo, ^{n}itariya holatida saqlash uchun amalga oshiriladi. Mustaqij \* - f sifatida ular parvarish qilish uchun kesishning asosiy ^{kazilish}

bilan bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan paytlarda o'tkaziladi. Sanitariya kesishlarida qurigan, quriyotgan, shamolga egiluvchi, qordan sinuvchi, mexanik yoki biologik shikastlangan, zambrug'lar tufayli yuzaga keladigan kasalliklarga chalingan daraxtlar olib tashlanadi. Qoniqarsiz sanitariya holatiga ega bo'lgan va shikastlangan daraxtlarning barchasi, agar ularni olib tashlash zichlikni



0,5 dan kamaytirmasa, kesib tashlanadi.

O'sib chiqish joyi sharoitlariga va kesilgan qoldiqlarni sotish imkoniyatlariga qarab kesilgan joylarni tozalash quyidagicha o'tkaziladi:

- a) kesilgan qoldiqlarni texnika vositalari yo'liga joylashtirish;
- b) kesilgan qoldiqlarni keyinchalik yoqilg'iga ishlatish yoki qayta ishlash uchun to'plash;
- d) ularni chiritish uchun joyida qoldirgan holda to'plash;
- e) mayda kesilgan qoldiqlarni maydon bo'ylab bir tekis sochib yuborish;
- d) yong'in xavfsizligi choralarini ta'minlagan holda uzun yo'l, sayxon va yalangliklarga tashish va to'plab yoqish.

Tozalash usullari o'rmon xo'jaligi tomonidan belgilanadi va o'rmon chiptasida ko'rsatiladi.

O'rmonni parvarish qilish uchun kesishga qaramog'ida davlat o'rmon fondi bo'lgan vazirliklar, davlat ko'mitalari va idoralar tomonidan ruhsat beriladi.

O'rmonlarning xususiyatlariga va ularning maqsadli vazifasiga, yog'och taxta va biologik massaning muayyan turini tayyorlashning xo'jalik jihatidan maqsadga muvofiqligiga bog'liq ravishda tuziladigan sanash vedomosti hamda o'rmon xo'jaligi yurituvchi korxonalar rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan parvarish qilish uchun kesish texnologiyasi yuzasidan qabul qilingan qoidalar bayon qilinadigan ish hujjatlari daraxtlarni kesishga ruxsat berish uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

O'rmon xo'jalik korxonalarini parvarish qilish uchun kesish o'tkazilishiga ruxsat berilgandan keyin uchastka yoki o'rmon uchastkasi rahbarlariga kesish joyi, kesiladigan maydon va yog'och massasi miqdori, yog'ochni tashib chiqarish va joylashtirish, kesish joylarini tekshirish, kesilgan qoldiqlardan tozalash tartibi ko'rsatilgan belgilangan namunadagi o'rmon chiptasini yozib beradi.

Uchastka yoki o'rmon uchastkasi rahbarlari o'rmonni parvarish qilish uchun kesishda o'rmonlarda yong'in xavfsizligining, xavfsizlik texnikasining, sanitariya me'yorlarining barcha talablariga rioya qilishlari shart hamda, daraxtlarni kesish qoidalari aniq buzilganligi va barcha talablarga rioya etilmaganligi uchun kesishni bevosita amalga oshiruvchi shaxslarni ishdan chetlatish huquqiga ega bo'ladilar.

Kesish tartibi buzilishiga va o'rmon chiptasida qayd etilgan boshqa talablar barbad etilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar. Ta'qiqlangan o'rmonlarda, daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa obyektlar qirg'oqlaridagi o'rmonlarda parvarish qilish uchun kesish

daraxtlar va butalar navlarini tanlagan holda sOg'lom va mustahkam daraxtlar yetishtirishga qaratilgandir. Har bir kesishda daraxtlar zichligi 0,7 — 0,8 to'liqlikdan past bo'lmasligi kerak. Ushbu joylarda parvarish qilish uchun kesish yuza oqimni tuproqqa o'tkazish va tuproq eroziyasining oldini olish uchun yuqori qismi zich daraxtzor barpo qilishga qaratilgan.

Temir yo'llar va avtomobil yo'llari bo'ylab ekilgan himoya daraxtlarini parvarish qilish uchun kesish daraxtlarning qorni singdirish, shamolning tezligini pasaytirish va tuproqni mustahkamlash xossalarini oshirishga qaratilgandir. Kesish jadalligi cheklangan va to'liqligi 0,7 dan kam bo'lmasligi kerak.

Shaharlar, aholi punktlari va sanoat markazlari atrofidagi yashil zonalarda yuqori rekreatsiyalik zo'riqishga duchor bo'lgan hamda muhim himoya ahamiyatiga ega bo'lgan shahar o'rmonzorlarida, o'rmon bog'larida parvarish qilish uchun kesish muayyan maqsadli yo'nalishga — o'rmonlar va daraxtlar sifat tarkibini yaxshilash maqsadiga ega bo'lgan turli xil landshaftli daraxtzorlar barpo etish uchun yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha olib boriladi.

Suv havzalari, tabiiy kurort hududlari va dam olish hududlarining sanitariya muhofazasi zonalaridagi 0,5 — 1 km radiusdagi o'rmon uchastkalaridagi o'rmonlarda parvarish qilish uchun kesish zichligi 0,5 — 0,7 bo'lgan ko'p yillik va mustahkam, yuqori mahsulli daraxtlar yetishtirishga qaratilgan. Parvarish qilish uchun kesish jadalligi hudud joylashgan joy hisobga olingan holda daraxtlarning zichligiga bog'liq ravishda belgilanadi.

O'rmonlarda, davlat qo'riqxonalarida, kompleks (landshaft) zakazniklarda, tabiiy bog'lar va davlat biosfera rezervatlarining qo'riqxonalar hududlarida, ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlarda va tabiiy yodgorliklarda parvarish qilish uchun kesish amalga oshirilmaydi.

Tabiiy bog'lar va davlat biosfera rezervatlarida (ularning qo'riqxonalar hududlaridan tashqari), o'rmonlarida parvarish qilish uchun kesish yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha bajariladi.

O'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv havzalari sohillari bo'ylab o'tgan ta'qiqlangan mintaqalariga suvni qo'riqlash — himoyalash funksiyalarini bajaruvchi daryolar, ko'llar, suv omborlari va suv havzalari sohillarida joylashgan, daryo o'zaniga yoki havzasi sohiliga bevosita tutashgan o'rmon guruhlarini kiradi. O'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, daryo bo'ylarida, suv omborlarida va maydoni 100 ga dan ko'p bo'lgan ko'llar atrofida, ular

kimning tasarrufida yoki foydalanishida ekanligidan qat'iy nazar davlat o'rmon fondi yerlariga ajratiladi. Daryolar bo'yidagi aniq o'tloq yerlardagi ta'qiqlangan mintaqalar kengligi o'tloq yerlar va ularga tutash mintaqalar kengligidan iborat bo'ladi. Tikligi, ya'ni qiyaligi  $30^\circ$  dan ko'p bo'lgan, katta daryolarga tutash tog' qiyaliklari o'rmonlaming ta'qiqlangan mintaqasiga to'liq kiritiladi. O'rmonlaming ta'qiqlangan mintaqalari tashqi chegarasi ularni belgilashda imkoniyatga ko'ra tabiiy chegaralar yoki daraxtlari kesilgan mavzelar, ajratilgan yerlar chegaralari bilan birga qo'shib yuborilishi va to'g'rilanishi kerak.

Ko'llar va suv omborlari atrofidagi o'rmonlaming ta'qiqlangan mintaqalari kengligi ularga quyiladigan daryolar bo'yicha ajratilgan mintaqalarga teng holda belgilanadi. Daryolarning, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv havzalari sohillari bo'ylab belgilangan o'rmonlaming ta'qiqlangan hajmi zarur bo'lgan maxsus tadqiqotlar asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartiriladi.

## **2.1. O'rmonlarni parvarishlash, sog'lomlashtirish va qayta tiklash uchun kesish ishlari.**

### **Parvarish maqsadida daraxtlarni kesish usullari va yoshi**

Daraxtlarni ajratish guruhlariga qarab bo'ladi, ularning ichida birinchi navbatda yaxshilarni ajratishadi, so'ngra ularga qarab ikkinchi darajaliklari belgilanadi (foydalilari) va oxirida kesiladiganlarga ajratiladi. Siyraklashtirish va o'tib kesish daraxtlar maydonining hamma yerlarida bo'ladi.

Yosh daraxtzorlarda (yoritish va tozalash) daraxtlar hamma maydonda yalpi ravishda yoki tasma (karidor) va kichik maydonlar shaklida ajratiladi.

Yong'oqzorlarda yaxshi daraxtlar ajratiladi va individual parvarish qilinadi va muhofazalanadi.

Parvarish maqsadida o'rmonni kesishda awal birinchi bonitetli daraxtzorlar tanlanadi.

V sinf bonitetda kesish ishlari bo'lmaydi.

Bir turdan iborat o'rmonda, sun'iy ravishda barpo etilgan qalin joylashganlari kesiladi, bunda tanasi uzunlashgan, shox-shabbasi kuchsiz, o'sishda qolib ketganlari, tanasi qiyshiq, kasallanganlari, kam hosil beruvchilari ajratiladi.

Aralash o'rmonda kesish uchun kerakli tarkibli bo'lgan maydon ajratiladi, bunda asosiy turga xalaqit berayotganlari kesiladi.

Bir turli o'rmonzorda siyraklashtirish va o'tib kesish ishlari agar shox-shabbasining qalinligi 0,7, aralash o'rmonda esa 0,6 dan past bo'lsa

olib borilmaydi.

Yangilash maqsadida pishgan va o'ta pishgan daraxtzorda agar yaxshi o'rmon-hosil qilayotgan yosh daraxtlar bo'lsa, kesish ishlari olib boriladi.

Qayta shakllantirish maqsadida bir turli daraxtzorni ko'p turli daraxtzorga aylantirish uchun guruh-guruh, maydonchalar, tasma shaklida kesish ishlari olib boriladi. Birinchi yams va undan pastki pog'onada bo'lganlarga parvarish beriladi.

**Parvarish maqsadida kesishning navbati.** Birinchi guruhga taalluqli o'rmonlarda parvarish vaqtidagi kesish ishlari quyidagi tartibda olib boriladi.

#### **Birinchi navbat**

1. Asosiy daraxt turlari yoki yosh daraxtlarda (yong'oq, handon, pista, archa, qirin qarag'ayi va boshq.) keraksiz daraxt o'sa boshlagan bo'lsa

2. Ikkinchi darajali daraxtlar shox-shabbasi ostida bo'lgan yosh asosiy daraxtlar.

3. Aralash turdagi yosh o'rmon daraxtlari, bir pog'onada va ikkinchi darajali turlari bilan.

4. Qimmatli bir turdagi o'ta qalinlashgan (yong'oq, archa qarag'ay va boshq.) va urug'idan bachki navdalardan o'sib chiqqan yosh o'rmon daraxtlari.

5. Ikkinchi darajali daraxt turlarining shox-shabbasi ostidagi tun bo'lgan aralash o'rmonzorlar.

#### **Ikkinchi navbat**

1. Bir turdagi daraxtzorda siyraklashtirish.

2. Yangilash maqsadda kesish.

3. Shakllarni o'zgartirish maqsadda kesish.

**Fasllarga qarab daraxtlarni kesish vaqti.** Yoritish va tozalash maqsadida o'rmonni kesish ishlari vegetatsiya davrida barglar to'kilmasdan bajariladi.

Qalinlashgan yosh o'rmonzorda kechiktirib siyraklashtirilgan, baqquvat, baland bo'yli va tekisliklardagi yosh o'rmonlarda parvarish ishlari asosan bahor faslida, tog'li mintaqada esa yozda olib boriladi.

Siyraklashtirish, o'tib kesishlar yilning hamma fasllarida olib boriladi.

Obyektni ajratish ishlari (o'rmonni kesish uchun) ovchilik xo'jaligi, qo'shimcha foydalanish va tabiatni muhofaza qilish ishlari bilan birgalikda olib boriladi.

**O'rmonni kesishning me'yorlari.** Asosiy me'yor bo'lib o'rmonni kesishni boshlash va tanom qilish vaqti, uning tezligi va qaytarilishi hisoblanadi.

Parvarish maqsadida o'rmon kesish to'qayzorlarda asosiy kesish 10 yoshga yetganda to'xtatiladi.

Siyraklashtirish va o'tish maqsadidagi kesishda to'liqlik 0,7 dan kam bo'lmasligi (aralash va murakkab o'rmonlarda), kelib chiqishi bir xil bo'lmanlarida ham 0,6 dan kam bo'lmasligi kerak.

Daraxtlarni parvarish qilish maqsadida kesishning intensivligi maqsadga, yoshga, ahvoli, tarkibiga qarab o'zgaradi: kuchsizdan (suv havzalarini himoya qiluvchi o'rmonlarda) o'ta kuchlikkacha (yashil zonalaridagi dam olish maskanlarida). O'sib kelayotgan va ikkinchi pog'onadagi (yarusdagi) daraxtlarni maqsadli parvarish qilishda birinchi yam birinchi kesishdayoq to'liq bajariladi.

### **0'rmonni parvarishlash maqsadida kesish texnologiyasi va rejalash**

Sanitar ahvolni yaxshilash maqsadida o'rmonni kesishda texnik vosita sifatida ot-arava transporti qo'llaniladi. Ular ekologiyaga minimal ravishda ta'sir ko'rsatishadi. Kichik gabaritli traktorlar tuproqqa uncha katta bo'lman bosim bilan ta'sir ko'rsatadi va motor lebyodka yog'ochni sudrash uchun ishlatiladi.

Kesish usullarini o'ziga mujassam qilgan hujjat sifatida texnologik karta ishlatiladi.

Kesish uchun o'rmon maydonini ajratish bilan bir vaqtda daraxtzorni ta'riflovchi, kesish turi, ish texnologiyasini, yog'ochni sudrash (tashish) usullari, daraxtlar kesilgan maydonlarni tozalash, kesilmaydigan daraxtlarni saqlash, o'rmon sharoitini saqlash, texnik-iqtisod va boshqa ko'rsatkichlari ko'rsatilgan texnologik karta tuziladi.

Maydonning sxemasida yog'ochlar yuklanadigan joylari, magistral va kichik koridorlar ko'rsatiladi. Daraxtlarni kesishdan avval tasdiqlangan texnologik kartasiga binoan magistral va kichik texnologik koridorlar tayyorlanadi, yuk ortiladigan maydonchalar, havoda sim yordamida yukni tashish uchun yo'llar aniqlanadi. Texnologik koridorlarning umumiy maydoni o'rmonni kesish vaqtida o'rmon umumiy maydonining 15% dan, tanlab sanitar kesishda esa 5—7% dan oshmaydi. Izoh: birinchi raqam uzunasi

0, 35 m li yorilmagan o'tinlar uchun, ikkinchi raqam — 2,0 m, uzunasi 0,5—1,0 m bo'lgan yorilmagan o'tinlar uzunligi koeffitsient interpolyatsiyasi usulida aniqlanadi.

*O'rmonni parvarishlash maqsadida kesishni rejalash.* O'rmonni parvarishlash maqsadida kesish rejasi o'rmon xo'jaligi va o'rmon maydoni bo'yichatipologikasosda, o'rmonni qaytatiklashni ko'zda tutib

tuziladi.



**12-rasm.** O'rmon daraxtzorlarida parvarishlash maqsadidagi kesish ishlari.

O'rmonning har yili kesiladigan maydoni (hajmi) o'rmonni loyihalash materialidan olinadi.

*Daraxtzorlarni parvarishlash maqsadida kesish uchun o'rmonni ajratish.* Maydonlarni ajratish, daraxtlarni parvarish qilish uchun va kesish uchun, ularni belgilash (tamg'alash), o'lchov maydonlarini ajratish, bargli o'rmonlarda yozda barglar to'kilishidan oldin, ignabargli o'rmonda esa boshqa fasllarda ham olib boriladi. Bu ishlar o'rmonni kesishdan bir yil oldin bajariladi.

Bir yil mobaynida kesiladigan o'rmon maydoni o'rmon tuzish loyihasiga binoan ajratiladi.

*Siyraklashtirish.* yaxshi daraxt turlariga yaxshi sharoit yaratish, yog'och mahsulot tezroq ko'payishi uchun pishib kelayotgan daraxtzorda kesish, sanitariya maqsadida kesish, turlarni yangilatish va unda 1,3 m balandlikda tanasining diametri 8 sm va undan yuqori bo'lganlari belgilanadi yoki tamg'alanadi.

O'rmon maydonlarida daraxtlarni kesish to'g'risida daftar bo'ladi (2-iloqa), unda kesiladigan daraxtlar maydoni va natijasi ko'rsatiladi.

Qo'riqxonada, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlarda va tabiiy yodgorliklarda daraxtlarni parvarishlab kesish ishlari olib borilmaydi.

Milliy va tabiiy o'rmon parklarida o'rmonni kesish individual asosda bajariladi.

Kurort zonalaridagi o'rmonlarda parvarish maqsadida o'rmonni qisman kesish yuqori mahsulotli, yuqori zichlik, ko'p yashovchi, chidamli, ko'p turli daraxtzorlarda amalga oshiriladi. Bular yashil zonalar o'rmonlari (o'rmon parki qismi), shahar o'rmonlari va boshqalar.

O'rmon parklari va shahar o'rmonlarida yuqori rekreatsiya xususiyatiga ega bo'lgani, rekreatsiya va muhitni himoya qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgani uchun bu yerda o'rmon individual loyiha asosida kesiladi.

O'rmon parkli qismlarida rekreatsiya xususiyatiga qarab o'rmonni kesish natijasida chidamli daraxtzor paydo bo'ladi. u yuqori estetik sifatga ega bo'ladi.

Dam olish funksiyasini bajarib turuvchi maydonlar (dam olish, turistik marshrut va boshqalar) dagi har xil landshaftlar quyidagicha almashinib turiladi: ochiq landshaftlar yakka o'sib turgan daraxtlari bilan; yarim landshaftlar qalinligi 0,3 — 0,5 ga teng bo'lgan daraxtzorlar, maydonda daraxtlar bir tekisda yoki guruh-guruh

bo'lib joylashgan; yopiq landshaftlar shox-shabbalarining qalinligi 0,6 — 1,0 ga teng bo'lgan daraxtzorlar.

Bu turdagi o'rmon maydonlarida daraxtlarni kesishdan maqsad bir yoshdagi daraxtzorlarni har xil yoshdagi daraxt<sup>o</sup>rga aylantirishdir.

Yopiq landshaftlar bir pog'onali (yarusli) bir yoshli daraxtzorlar bo'lib shakllanadi va ko'p pog'onali ham bo'lib shakllanishi mumkin, yarim ochiq landshaftli guruh-guruh bo'lib joylashgan daraxtlar har xil yoshi murakkab bo'ladi. Tarkibi bo'yicha ko'pincha aralash turli daraxtzorlar bo'ladi, ammo bir turdagi daraxt turlaridan shakllanishi mumkin (qora qarag'ay, pixta, qarag'ay<sup>arc</sup>lija, yong'oq va boshqa turlar).

Maqsadli landshaft yoki ularning majmuasini (Kompleksi) yaratish uchun maxsus o'rmonni kesish usmi<sup>a</sup>ri qo'llaniladi (shakllanish).

Yarim ochiq landshaft drenaj qilingan tuproq<sup>a</sup>da shakllanadi, bu yerda asosan pastki shoxlari kesiladi.

Ochiq landshaftli o'rmonzor yaxshi drenaj qilingan tuproqlarda, guruh-guruh qilib ajratish usuli bilan shakllanadi. Atf<sup>st</sup>ilda kichik maydonda daraxtlar yalpi ravishda kesiladi, maq<sup>sac</sup>i maydoni 0,5 ga bo'lgan va yakka joylashgan daraxtlar yoki ularsiz maydonni shakllantirishdir. Ochiq joylar chegarasi to'g'ri yoki qiyshq bo'lishi

mumkin. Yakka-yakka holda eman, juka, zarang, qayin, qayrag'och va boshqa turlar qoldirilishi mumkin.

Daraxtlarni parvarish qish davrida ularni qisman kesish ma'lum maqsadni ko'zlaydi: daraxtzor tarkibi va ularning sifatini yaxshilash, maydon bo'yicha daraxtlarni ma'lum tartibda joylashtirish, O'rmonning chetlarini shakllantirish, yosh daraxtlarni siyraklashtirish. Tarkibini shakllantirishda asosiy nav yordamchi turlar ajratiladi. Asosiy tur daraxtzorning 50 — 70% dan kam bo'lmasligi kerak. Asosiy turga o'rmonni hosil qiluvchi va gigienik xususiyatga ega bo'lgan shu sharoitda o'sishga moslashgan turlar kiradi. Igna bargli turlar ichida asosiy bo'lib qora qarag'ay, paxta, mojevelnik (archa), barghlar ichida yong'oq, chinor, qayin, eman, qayrag'och va boshqalar, yordamchi turlarga do'lana, chetan (ryabina) va boshqalar kiradi.

Daraxtzorlarni shakllantirishda daraxtlarning quyidagi sinflari (klassifikatsiyasi) qo'llaniladi.

Yaxshi daraxtlarga asosiy turlar, I — II klassga mo'bo'lgan, baquvatlari, hayotchan va manzaralisi kiradi.

Yordamchi daraxtlarga baquvat, o'zining o'sishi bilan asosiy daraxt turining yaxshi o'sishiga yordam beruvchi, manzarali, chiroyli landshaft hosil qiluvchi turlar kiradi.

Keraksiz daraxtlarga qurigan, kasal va zararkunandalar bilan zararlangan, asosiy daraxtning o'sishiga xalaqit beruvchi, xunuk tana va shox-shabbali, landshaft tarkibini buzuvchilar kiradi. Bu daraxtlar kesib tashlanadi.

Daraxtlarning parvarish maqsadida qisman kesishning miqdori ularning yoshi, tarkibiga bog'liq bo'lib, shakllanayotgan maqsadli landshaft va daraxtzorga ham bog'liqdir. Yopiq landshaftni shakllantirishda sug'oriladigan yerlarda yosh daraxtzor va o'rta yoshli daraxtzorlarda kesish ishlari o'rta me'yorda olib boriladi. Yuqori zichlik o'rta yoshli va undan yoshi yuqoriroq bo'lgan daraxtzorda ikki marta 20 — 30% intensivlikda kesiladi, kesish orasidagi interval 6 — 8 yilga teng bo'ladi.

Sug'oriladigan yerlarda bir turdan iborat bo'lgan daraxtzorda parvarish maqsadida kesish qatorlarda shox-shabbalar bir-biriga tegib qolganda va o'sishda orqada qolayotgan daraxtlar bo'lsa amalga oshiriladi (odatda 5 yoshdan boshlab). Aralash turdagi daraxtzorlarda sug'oriladigan yerlarda shox-shabbalari bir-biriga tegib qolganda, ikkinchi darajali daraxt turlari xalaqit bersa (asosiy daraxt turiga), kesish ishlari olib boriladi (ikkinchi darajali turlar: shumtol, zarang, jiyda,



asosiy turlar: terak, qayrag'ochi, oq akas va boshqalar). Sug'oriladigan yerlarda parvarish maqsadida daraxtlarni qisman kesilganda so'ng quyidagi miqdorda asosiy va ikkinchi darajali daraxtlar qolishi kerak

Yaxshi yordamchi daraxtlarning asosiy daraxtzorda sug'oriladigan yerlarda kesish ishlaridan keyin qoladigan miqdori, ming dona/ga.

Shahar o'rmonlarida (sug'oriladigan yerlarda) kesishning asosiy maqsadi yuqori manzara va sanitar ahvoli ham yuqori bo'lgan daraxtzorlarni shakllantirishdir.

Yoritish uchun bir turdagi o'rmonzorda daraxtlarning shox- shabbasi bir-biriga tekkanda va o'sishdan orqada qolganlari kesiladi. O'sishdan qolganlari, sovuq urganlari, zararlanganlari olib tashlanadi (3 — 5 yoshda).

Tozalashdan maqsad o'sishda sifatli, bir me'yorda joylashganlari (maydon bo'yicha) ajratib olinadi. Kesishda daraxtlar ochiq turishi, qolgan daraxtlarga yaxshi sharoit yaratilishi kerak. Siyraklashtirish va pishib kelayotgan daraxtzorlarda asosiy daraxt turiga yordam berish uchun ikkinchi darajali daraxt turlarini qisman kesib tashlash pastki va ustki usulni birgalikda qo'llab olib boriladi.

Tez o'suvchi daraxt turlari uchun kesishning qaytarilishi yoritish va tozalashda 3 yil (terak, tol va boshqalar). Siyraklantirish va o'tish usulida - 5 yil, sekin o'suvchi turlar uchun (eman, chinor va boshqalar). Yoritish va tozalash usulida kesish uchun — 5 yil; siyraklantirish va o'tish usulida kesish uchun — 7 — 8 yil.

### Sanitar maqsadida daraxtlarni qisman kesish

Sanitar maqsadida daraxtlarni kesishda ularning sanitar ahvolini yaxshi holatda ushlab turishga erishiladi.

Sanitar maqsadida daraxtlar kesilganda qurigan yoki qurib borayotganlari, shamolda, bo'ronda, qor ta'sirida singanlari mexanik yoki biologik zararlanishda, qor ta'sirida ziyon ko'rganlari, tanasida zararkunandalar bo'lganlari (qobig'ining zararkunandasi, shubali qo'ng'iz, tilla qo'ng'iz), zamburug'lar bilan zararlanganlari kesib tashlanadi.

Daraxtlar kesilgan joylarni tozalash quyidagicha bajariladi:

a) kesishdan qolgan chiqindilarni sudrab chiqarish uchun texnika vositalaridan foydalaniladi;

b) ularni to'lda qilib yig'iladi va yoqilg'i sifatida ishlatiladi yoki qayta ishlanadi;

c) birjoyga yig'ib, shu yerda chirtib go'ngga aylantiradi;

d) maydon bo'yicha qoldiqlar bir tekda yoyilib chiqiladi;

U to'lda qilib yoqiladi.

Tozalash usullari o'rmon xo'jaligi rahbarlari yordamida o'rmonni kesish uchun berilgan chiptada ko'rsatiladi.

Daraxtlarni kesish natijasini hisoblash ishlari doimiy maydonchalarda olib boriladi. Bu maydonchalarda seksiya ajratilib, unda parvarish qiJinadi va nazorat seksiyasi ajratiladi (parvarish ishlari bo'lmaydi). Kerak bo'lganda 2 ta seksiya ajratilishi mumkin, bunda har xil daraxtlar kesiladi. Nazorat seksiyasida quruq daraxtlarning o'zi kesiladi. Maydonchalar o'rmonni loyihalashda ajratiladi, reviziyalaroralig'ida esa o'rmon sohibi (lesnichiy) ajratadi va hisob qilinib, qoriqlanadi. O'lchov maydonlaridagi daraxtlar vaqti-vaqti bilan o'lchab turiladi (kesishdan oldin va kesishdan keyin), olingan materiallar ishlab chiqiladi. O'rmon xo'jaligi muhhandisi bu ishlarda qatnashib turishi kerak va hujjatlarni nazorat qiladi.

*O'rmonlarni kesishning sifatini nazorat qilish.* Korxonalarahbarlari maydonlarni qabul qilish uchun har yili komissiya tuzadi. Nazorat qilish uchun hamma ishlar e'tiborga olinadi. Nazorat natijasi bo'yicha dalolatnoma (akt) tuziladi.

Bajarilgan ishlarning sifati yuzasidan tezkor nazorat ishlari korxonava birlashma tomonidan olib boriladi. Nazorat uchun ishlar olib borilgan maydonning 5% dan kam boimagan qasmi ajratib tekshiriladi.

Tekshirish uchun quyidagilar olinadi: daraxtzorlarning qisman kesish uchun ajratilishini to'g'riligi, rasmiylashtirilishi, daraxtlarni kesishga va o'stirishga ajratish, ularni hisoblash, kesishning texnologiyasi, maydonlarning kattaligi (parametri), kesish vaqtida qoldirilgan daraxtlarning shikastlangan qismi, yosh daraxtlarning saqlanib qolishligi, tuproq va boshqa biogeotsenoza keltirilgan ziyon, daraxtlar kesilgan joylarni tozalash sifati, doimiy hisoblash maydonlarining ahvoli va soni.

Daraxtlarni qisman kesish ishlarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini to'nkadagi muhrdan bilish mumkin.

Daraxtlarni parvarish qilish ayrim daraxtlarni kesishning sifatiga javobgar o'rmon xo'jaligining bosh o'rmonchisiga yuklatilgan, bu ishga o'rmon muhhandisi, o'rmon maydonida esa o'rmon sohibi javobgardir.

### **Savollar:**

1. Parvarishlash maqsadida kesish ishlari nima?
2. Sanitar kesish ishlari qanday amalga oshiriladi?
3. Tashlab kesishning qanday ahamiyati bor?

## O'rmonchilik fanining ahamiyati

Yer yuzida o'rmonlar tirik mavjudot uchun juda katta ahamiyatga ega. Ular suv zaxiralari manbalarini ko'paytirish, hosildor tuproq tarkibini saqlab qolish bilan birga, hayvonot olami uchun oziq-ovqat manbai ham hisoblanadi. Shuningdek, o'rmonlar yog'och xom ashyosi manidir va shu bois ularning mahsulotidan xalq xo'jaligining hamma sohalarida foydalaniladi, ishlatiladi. Qog'oz, plastmassa, fanera, karton, mebel, shakar, kinoplenka va kiyimlarni, uy-joy qurilish materiallarini, temir yo'llardagi shpallar va shaxtalardagi har xil moslamalarni, o'tin va yog'och ko'mirini, yog'och spirtini hammasini daraxtlar beradi. O'rmonlardan 25000 dan ortiq har xil birikma va mahsulotlar olinadi. Dunyoda keyingi yillar mobaynida yog'och mahsulotlariga bo'lgan talab 12 marotaba oshdi.

O'rmonlar har turli shifobaxsh o'tlari, butalari, yarim butalari, shuningdek, qo'ziqorinlari, yong'oq, pista, bodom, funduk, olma, nok, tut, na'matak, olcha, jirg'anoq, qoraqand kabi mevalari bilan ham mashhurdir.

O'rmonlardan ko'p holatlarda yaylovlar sifatida ham foydalaniladi. O'rmonzorlardagi maydonlar har xil va rang-barang vitaminli tabiiy o'tlarga ham boydir. Bundan tashqari, ko'pchilik daraxt barglaridan, gullaridan, shoxlaridan hamda ildizlaridan vitaminli ozuqalar tayyorlaniladi.

O'rmonlar — ovchilik manbai hamdir. Bundan tashqari, bu yerlarda asalarichilik, o'rmon dorilari tayyorlanadi. Ko'pchilik daraxt turlari ham shifobaxsh xususiyatlarga ega.

O'rmonlar namlik va tuproqni saqlash manbai hisoblanadi. O'rmonlar daryolarga oqib tushadigan suvlar rejimini tartibga soladi. Sug'oriladigan yerlarda, daryo yoqalarida joylashgan daraxtzorlar ta'siri natijasida yer osti suvlari ko'tarilmasdan bir xil me'yorda turadi.

Yana bir misol: 1 m<sup>3</sup> yog'ochni kimyoviy yoi bilan qayta ishlanganda undan 200 kg selluloza yoki 200 kg yozuv qog'ozi, 220 kg ovqatga ishlatiladigan glyukoza, 5 — 61 yog'och spirti, 20 litr sirka kislotasi, 70 l vino spirti, 4000 juft ipak paypoq, 180 juft kalish, 2 dona avtomobil shinasi, 600 m<sup>2</sup> sellofan, 1 mln dona gugurt tayyorlash mumkinligi isbotlangan.

O'rmonzorlarning ekologik ahamiyati undan ham yuqoriroq.

Bir gektar keng yaproqli o'rmonzorlar bir kecha-kunduzda 2 — 3 kg, igna barglilar 5 kg, archazorlar esa 30 kg gacha fitonsidlar ajratadi. Yoki boimasa, bir gektar yopshil o'rmonzor bir soatda ajratgan

kislorod 200 kishining nafas olishini ta'minlaydi.

Ko'rinib turibdiki, o'rmonning yer yuziga beradigan ijobiy tomonlarini o'rganadigan o'rmonchilik fani inson va uning farzandlarini yashil olamni sevishga, uning o'sib rivojlanishiga sharoit yaratishga, shuningdek, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga davat etadi.

O'rmonchilik fani ishlab chiqarishning kimyo sanoati va atrof-muhitni himoya qilish korxonalari uchun o'rmon naqadar zarur bir xom ashyo bazasi ekanligini bugungi kunda isbotlab bermoqda. Shuning uchun ham «O'rmon to'g'risida» gi qonun va «Yer kodeksi» qonun hujjatlarida o'rmonni asrash, undan oqilona foydalanish asosiy maqsad qilib belgilangan.

### **Daraxtlarni saqlash, himoya qilish va qo'riqlash ishlarini rivojlantirish**

Bizga ma'lumki, yer yuzida insoniyat bugungi kunda suv tanqisligi tufayli juda katta aziyat chekmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — yer yuzida o'rmon zaxiralarning tez kamayib borishidan iborat. Bu hol esa yerning nam saqlash qobiliyatini kamaytirib yubordi, natijada ko'pdan-ko'p yer maydonlari cho'lga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaralanuvchi janubiy qismi tog'li va tog'oldi hududlar hisoblanadi. Qozog'iston chegaralaridan boshlanib, Toshkentdan g'arb tomonga to Qoraqalpog'istongacha cho'zilgan hudud Qizilqum qumlari bilan qoplangan. Turkmaniston bilan chegaradosh hududlar yarimsahro hududlardir. Amudaryo havzasidan tashqari, Afg'oniston bilan bo'lgan janubiy chegaralar keng quruq hududlar hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu yer maydonlarida o'rmonzorlar barpo qilish juda qiyinchilik bilan kechadi. Borini asrab-avaylash uchun doimo parvarishga muhtoj bo'lamiz. Chunki eng katta muammo

— suvning yetishmasligi va yoz-kuz oylarining o'ta quruq kelishidandir. Lekin qanchalik qiyin bo'lmasin, o'rmonzorlar barpo etishni kuchaytirish zarur. Bunday ulkan ishlarni respublika o'rmonchilari va suv xo'jaligi tashkilotlari ishchi-xodimlari amalga oshiradilar. Ular o'z vaqtida tog' yon bag'irlarida, daryolar va suv havzalari qirg'oqlarida, qishloq xo'jaligi ekinzorlari, avtomobil va temir yo'l shaxobchalari atroflarida, shuningdek, uzoq masofalarga ega bo'lgan cho'l va qum hududlarida yaproq va nina bargli daraxt turlaridan o'rmonzorlar barpo qiladilar. Ammo barpo qilingan ushbu o'rmonzorlar doimo himoyaga, ya'ni qo'riqlash tizimiga muhtoj bo'ladi. O'rmonlar muhofazasiga umumiy

rahbarlik O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi va mahalliy o'rmon xo'jaliklari orqali olib boriladi. O'rmon xo'jaliklarida o'rmonni muhofaza qilishni boshqarish xo'jalik direktori va uning rahbarligi ostida bosh o'rmonchiga, o'rmonni qo'riqlash va himoya qilish bo'yicha muhandisga, o'rmonchilik bo'limlarida esa, o'rmonbegi, uning yordamchisi va o'rmon qorovullariga yuklatiladi.

O'rmonlar boshqaruvi hamda o'rmonni qo'riqlashni yaxshilash maqsadida o'rmon xo'jaliklari bo'limlarga, bo'limlari bo'lmagan xo'jaliklar uchastkalar va aylanma bo'limlarga bo'linadi.

Har bir o'rmon qorovuli o'z uchastkasini muhofaza qilishni o'rmon uchastka nazorati ostida olib boradi.

Davlat o'rmon muhofazasi o'rmonlarni qo'riqlashni mehnatkashlar va keng omma orasida tashviqot ishlarini olib borish va aholi o'rtasida ko'ngilli o't o'chiruvchilar guruhini tashkil etish yo'li bilan olib boradi.

Davlat o'rmon muhofazasi tarkibiga Respublika O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi tizimidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlaydigan quyidagi mutaxassislar kiradi: direktorlar, bosh o'rmonchilar, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilish bo'yicha muhandislar, o'rmon xo'jaligi muhandisi, ovchilik xo'jaligi xodimlari, katta yurist konsultant, ovchilar, o'rmon xo'jaliklari va o'rmon meliorativ stansiyasidagi ishlab chiqarish bo'limining boshlig'i, o'rmonchilik bo'limi boshlig'i muovini va boshqa bir nechta mutaxassislar.

### **Savollar:**

1. O'rmon hududi nima?
2. O'rmon daraxtlarini himoyalashda nimalarga e'tibor beriladi?

### **O'rmonchi va o'rmon ustasining vazifalari**

O'rmonchilar o'zlarining obxodlari, o'rmonlari va uning chegaralarini yaxshi bilishi, o'rmonlarda esa yo'llar, suv havzalari, daryo, ko'l, hovuz, quduq, daraxt kesilayotgan joylar, yaqin yerda joylashgan telefon, o'rmon ustasining yashash joyi, qo'shni o'rmonchilar va yaqin aholi punktlarini, o'rmon bo'limlari va o'rmon xo'jaliklaridagi idoralar hamda yong'inga qarshi kurash choralari, qoidalari va o'rmonda o't o'chirish qoidalarini bilishi lozim.

O'rmon kesish, mol boqish, xashak tayyorlash va o'rmondan foydalanishning boshqa xillari hamda ov qilish uchun ruxsat etilgan hujjatlarni tekshirish, daraxtlarni kesish, o't o'rish qoidalarini va o'rmondan foydalanishning boshqa xillarini nazorat qilish hamda

noqonumiy (pattasiz) daraxt kesish, mol boqish, o't o'rish va boshqa qonunga xilof ravishda o'rmondan foydalanish hamda noqonuniy ov qilishga qarshi choralar ko'rish; o'zboshimchalik bilan daraxt kesish va boshqa qoidalarni buzish hamda o'rmonda ov qilishning qoidalari va muddatlari to'g'risida dalolatnoma tuzish o'rmonchilarning vazifasi hisoblanadi.

Bulardan tashqari, o'rmonlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishni nazorat qilish, tashkilotlar, korxonalar va muassasalar tomonidan amalga oshirilayotgan qonunbuzarliklar to'g'risida o'rmon ustasiga xabar berish, agarda ayrim shaxslar tomonidan qoidalar buzilsa, dalolatnoma tuzish, yong'inga sababchi bo'lgan shaxslarni ushlab va ularni tegishli hokimiyat organlariga keltirish, o'z aylanma maydon (obxod) larida ko'priklarni, yong'in minoralarini va boshqarmalarning saqlanishini kuzatish, o'rmon ustasiga yoki o'rmon bo'limiga paydo bo'lgan zararkunanda hasharotlar, kasalliklar, shamol ta'sirida yiqilgan, qurigan daraxtlar va o'rmon xo'jaligiga zarar keltiradigan boshqa hodisalar to'g'risida xabar berish ham o'rmonchilarning vazifalariga kiradi.

Har bir o'rmonchiga o'z aylanma maydonlarining pasporti beriladi, bunda himoya qilinishi lozim bo'lgan davlat buyumlarining ro'yxati ko'rsatiladi.

### **O'rmon ustasi**

Bevosita o'rmonbegiga va uning yordamchisiga bo'ysunadi (o'rmon bo'limlari bo'lmagan o'rmon xo'jaliklarida — direktor va o'rmonni qo'riqlash hamda himoya qilish muhandisiga bo'ysunadi).

O'rmon ustasi (o'rmon texnigi) ning burchi:

a) o'zining bo'limini, obxodini va shu bo'limga kiradigan boshqa uchastkalarining chegarasini yaxshi bilishi hamda jami yong'inga qarshi kurash inshootlari, suv havzalari, daryo, ko'l, ariqlar, aloqa bo'limlari holatlarini va qo'shni o'rmon ustalarining yashash joylarini bilish;

b) o'z bo'limidagi o'rmonchilar ishlariga rahbarlik qilish hamda ularni o'z vazifalarini bajarishlarini nazorat qilib borish;

d) obxodlarni reviziya qilish, o'rmonchilar tomonidan ularga ishonilgan kordonlardagi qurol va ashyolarni saqlanishini nazorat qilish;

e) o'rmon qoidalari buzilganligi hamda o'rmonda yong'in xavfsizligi, ov qilish qoidalari va talablarini bajarmaganliklari to'g'risida dalolatnomalar tuzish;

f) o'rmonda yong'in paydo bo'lishi bilan ularni o'chirish uchun bevosita choralar ko'rish, shuningdek o'rmonbegiga xabar berish;

g) ikki haftadan kechikmasdan o'rmon xo'jaligiga o'rmon qoidalarini buzilganligi to'g'risida tuzilgan dalolatnomalarni yuborish;

h) daraxt kesish maydonlarini tanlashda ishtirok etish, ayrim hollarda o'rmonbегining topshirig'iga binoan daraxt kesish maydonlarini mustaqil aniqlash;

i) vaqtinchalik o't o'chiruvchi qorovullar va o't o'chiruvchilar brigadasi ishiga rahbarlik qilish;

j) o'rmonbегining topshirig'iga binoan boshqa yerdan foydalanuvchilar (jamoat, davlat, shahar o'zirkonalari) tomonidan o'rmonlarni muhofaza qilish holatlarini tekshirish;

k) har bir o'rmon ustasiga belgilangan nusxadagi tamg'a beriladi: ajratuvchi — daraxtlarni tamg'lash, yog'och materiallar va qolgan to'ng'alarni berib yuborish uchun va o'g'rincha o'rmon kesgan vaqtda qonunbuzarlardan tortib olingan yog'ochlarga bosiladigan tamg'a. O'rmon ustalari o'rmonlarni qo'riqlash bilan bir qatorda o'zlarining hududlarida va obxodlarida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

— ko'chat o'tqazish, urug' ekishga rahbarlik qilish, o'rmonlarni tabiiy tiklanishiga yordam berish, o'rmon ko'chatlarini parvarishlash;

— o'rmon loyihachilariga o'rmonni qurish ishlarini olib borayotgan paytlarida chegara belgilarini, o'rmondagi tor yo'llarni, nishonlarni va boshqalarni ko'rsatib berish;

— o'rmon kesadigan maydonlarni ajratib berishda hamda xashak tayyorlaydigan, mol boqadigan maydonlarni ajratib berishda va o'rmonning ikkilamchi mahsulotlaridan foydalanishda qatnashish.

### **Savollar:**

1. O'rmonchining vazifasi nimadan iborat?
2. Dalolatnomalar tuzish tartibi qanday?
3. O'rmon ustasining vazifasi nimalardan iborat?

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

#### **I- BO'LIM. O'RMON HAQIDA**

#### **TUSHUNCHA O'rmonlarda nihollarning miqdorini**

#### **aniqlash**

O'rmon daraxtzorlari ostida tabiiy qaytadan tiklash o'rmon bilan qoplanmagan maydonlarda olib boriladi. Bunday jarayon yirik pishib yetilgan daraxtzorlarda kuzatiladi.

Ushbu ishlarni bajarish daraxtlarni ma'lum maydonda joylashishiga ham bog'liq bo'ladi.

Natijada hisoblash ishlari uchun ma'lum maydonchalar tashkil etiladi.

Qalin o'sib rivojlangan o'spirin daraxtchalarda (1 ga da 10 ming dan ko'p bo'lsa) har bir maydoncha o'lchami  $4 \text{ m}^2$  dan iborat bo'lib, maydonchalar yig'indisi kuzatuv o'tkazilayotgan umumiy maydonning 0,5% ni tashkil etish kerak.

O'sib rivojlanayotgan o'spirin daraxtlarning qalinligi o'rtacha (1 ga da 3,1 — 10 ming donagacha bo'lsa) maydonchalar o'lchami  $10 \text{ m}^2$  dan iborat bo'lib, maydonchalar yig'indisi kuzatuv o'tkazilayotgan maydonning 1% ni tashkil etadi.

Unchalik qalin bo'lmagan siyrak o'sib rivojlanayotgan yosh daraxtzorlarda (1 ga da 3 ming dona nihol bo'lsa) maydonchalar o'lchami  $20 \text{ m}^2$  bo'lib, ular yigindisi kuzatuv o'tkazilayotgan maydonning 2,5% ni tashkil etadi.

Tabiiy o'sib rivojlanayotgan qalin o'rmonzorlarda videllar bo'yicha 5 ga da 30 ta maydoncha, 5 — 10 ga da 50 ta maydoncha va 10 ga dan ko'p bo'lsa, 100 ta maydoncha tashkil etiladi. Maydonchalar orasidagi masofa quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$r = S/n$$

Bunda:  $S$  — kuzatuv o'tkazilayotgan maydon,  $\text{m}^2$ ;  $n$  — hisoblash maydonchalari soni.

Maydonchalar kvadrat shaklida tashkil etiladi. Ularning burchaklarida maxsus oichamdagi burchak qoziqlari o'rnatiladi. Ularda uning oichamlari va tartib raqami yozib qo'yiladi.

Daraxtzorlar zichligi deganda ma'lum o'lchamdagi maydonda o'sib rivojlanayotgan daraxtlar soni tushuniladi. Bu ikkinchi darajali ko'rsatkich hisoblanadi. U o'rmon to'liqligi va zaxirasiga ta'sir ko'rsatadi, lekin ularni aniqlamaydi. Shuning uchun ham o'rmon zichligida daraxtlarni taksatsiyaga oid ko'rsatkichlari e'tiborga olinmaydi. Ya'ni taksator daraxtlarning diametri, balandligi, o'rtacha kesim yuzasi va kelib chiqishini hisoblab o'tirmaydi.

Daraxtzorlarning zichligini aniqlashda ba'zan daraxtlar shox-shabbalarining joylanishini e'tiborga olish mumkin. Agar biz  $100 \times 100$  metr oichamdagi (1 ga) daraxtlarda zichlikni aniqlamoqchi bo'sak, ularni shox-shabbalari bo'yicha o'rtacha uzunlikdagi joylanishini aniqlab, metr kvadrat hisobida uning zichligini topishimiz mumkin. Masalan, agar bunda har bir daraxtning ma'lum yer yuzasini qoplagan oichamini e'tiborga olsak, u holda quyidagicha formula kelib chiqadi:



### Daraxtzorlar zichligini aniqlash


$$S = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + \dots + S_n$$

boiganda o'rnondan hisoblab olingan yuza agar  $S_q 7000 \text{ m}^2/\text{ga}$  boisa. u holda

$$S = \frac{7000 \text{ m}^2/\text{ga}}{10000 \text{ m}^2/\text{ga}} = 0,7$$

zichlikka ega boiadi. Lekin bu 0,7 ko'rsatkich o'rmon toiiqligi degani emas. O'rmon toiiqligi taksatsiyaga oid maxsus ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi

100 m



14-rasm. Daraxtzorlar zichligini aniqlash.

Oʻrmon hududlaridagi oʻsib rivojlanayotgan daraxtlarni hisobga kiritish uchun maxsus tajriba maydonlari oʻrnatiladi. Tajriba maydonlari ikki turda boiadi: doimiy va vaqtinchalik. Diametr pogʻonalari qatori daraxt turlari boʻyicha uning taksatsiyaga oid koʻrsatkichlari (diametri, balandligi, yoshi, koʻndalang kesim yuzalari) maxsus hisoblash jadvaliga oʻtkaziladi.

Daraxtlar yogʻoch berish xususiyatiga qarab ishga yaroqli, yarim yaroqli va oʻtin turlariga boiinadi. Daraxtlarning oʻrtacha balandligi va yoshi jadvalga oʻtkaziladi.

Daraxtlar yoshi har bir daraxt yoshi boʻyicha aniqlanadi. Agar daraxt yoshi daraxtzorlar zaxirasida yoshi bir xil daraxtlar koʻpchilik boisa, bunday daraxtlar bir xil yoshdagi daraxtlar deyiladi. Agar, aksincha, daraxtlar yoshi yogʻoch zaxirasi boʻyicha ozchilik boisa, bunday daraxtlar har xil yoshdagi daraxtlar deyiladi. Uning yoshini topishda daraxtlar boʻyicha oʻrtacha yoshi hisoblab topiladi. Oʻrmon xoʻjaligida daraxtlar turlari boʻyicha quyidagicha tartibda sinflararo yoshi aniqlab belgilanadi:

1. Markaziy Osiyoda saksovul, turanga, jiyda va cherkez uchun bir sinf yoshi 5 yilga teng deb belgilanadi.

2. Tez oʻsuvchi yaproq bargli daraxtlar uchun qoraterak, qayin, aylant, bir sinf yoshi 10 yilga teng.

3. Nina bargli daraxtlar uchun bir sinf yoshi 20 yilga teng.

4. Zarafshon, turkiston va turkman archalari uchun bir sinf yoshi 40 yilga teng deb belgilanadi.

Yosh oʻspirin daraxtlar uchun sinfi — I — II.

Oʻrtacha yoshdagi daraxtlar uchun — III.

Oʻsib rivojlanayotgan daraxtlar uchun — IV.

Pishib yetilgan daraxtlar uchun — V — VI.

Oʻsishdan toʻxtagan daraxtlar uchun — VII...

### Oʻrmon daraxtlari toiiqligi va mahsuldorligini aniqlash

Daraxtzorlar zaxirasini aniqlashda, shuningdek, sifatli yogʻoch mahsulotlari olishda oʻrmon daraxtlari toiiqligi va mahsuldorligi asosiy koʻrsatkichlardan biridir. Oʻrmon toiiqligini aniqlashda daraxtlarning 1,3 metr balandlikdagi diametri oichab va shu asosda uni koʻndalang kesim yuzasi hisoblab topiladi. Oʻrmon toʻliqligi

ko'pchilik vaqtda ushbu ko'rsatkichga bog'liq bo'ladi. Masalan, 1 ga da 800 ta daraxt berilgan, uning o'rtacha diametri 14 sm ga teng. Boshqa bir maydonda gektarida 400 ta daraxt berilgan. Uning o'rtacha diametri 60 sm ga teng. Ko'rinib turibdiki, ikkinchi holatda o'rmon yuqori to'liqlikka ega.

O'rmon mahsulotlari uchun bonitet sinfi hisoblaniladi, balandligi, yoshi va kelib chiqishi e'tiborga olinib, har bir daraxt turi uchun mahsuldorlik sinfi aniqlanadi. Tayyor hisoblangan jadval o'rmon taksatsiyasi uchun foydalaniladigan qo'llanmada berilgan (V. Groshev).

*Misol.* O'rmon mahsuloti bu qarag'ay daraxti urug'dan unib chiqqan, o'rtacha balandligi 30,2 m va yoshi 83 ga teng. Unda jadval bo'yicha buning boniteti 1 a ga teng.

### O'rmon yaruslarini aniqlash

O'rmonzorlar ko'pincha tabiiy usulda paydo bo'ladi. Ba'zan sun'iy usulda, ya'ni inson qo'l kuchi yordamida ham rivojlantiriladi. Keyinchalik bu usul urug'dan va ildiz orqali ko'paytirishda amalga oshiriladi. Taksator o'rmonda taksatsiya hisob-kitob ishlarini o'tkazishdan oldin bu tamonni hisobga olishi zarur. Igna bargli daraxtlar faqat urug'dan, yaproq bargli daraxtlar esa ildiz orqali ko'paytiriladi. Umug'dan ko'paytirilgan daraxtlar sekin o'sadi, lekin ko'p yil yashab ancha yirik bo'lib o'sadi. Daraxt tanasi yaxshi rivojlanadi, shakli ko'rkamlashadi, o'zi esa ko'p miqdorda yog'och zaxirasi beradi.

Ildiz orqali ko'payadigan daraxtlar tez o'sadi, tezda yog'och uchun tayyor bo'ladi. Lekin tez o'sishdan to'xtaydi. Ayniqsa, ikkinchi va uchinchi avlodi. Bu daraxtlar tashqi muhit ta'siriga va kasallikka bardosh bera olmaydi.

Daraxtzorlar ko'rinish shakli bo'yicha oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy shakldagi daraxtzorlar bir yarusli bo'ladi. Murakkab shakldagi daraxtzorlar ko'p, ya'ni ikki, uch va undan ortiq yarusli bo'ladi.

Yaruslar balandligi bo'yicha yuqori yarusdan pastki yarusga qarab bir-biridan 20% ga farqlanadi. Masalan,  $N_{0,25}$  — 20 metr,  $N_{0,20}$  — 16 metr. Agar 20 metr o'lchamni 100% deb olsak, u holda

$\frac{0}{100}$  yuqoridan pastga qarab 4 metrga balandlik bo'yicha farqlanadi,  $\frac{16}{20}$  foiz hisobida esa 20% ni tashkil etadi. Demak, bu ikkinchi yarusni tashkil etadi.

Yaruslarda o'rmon to'liqligi 0,3 dan kam bo'linmasligi kerak, har bir o'rmon yarusida bir gektar hisobida 30 m<sup>3</sup> yog'och zaxirasiga ega bo'lishi kerak, 15 metrgacha balandlikka ega bo'lgan alohida o'sib rivojlanayotgan va yosh o'spirin daraxtlar, rihollar yarusga qo'shilmaydi. Yuqoridagi hisoblash ishlari to'g'ridan-to'g'ri o'rmon daraxtzorlarida olib boriladi.

### Daraxt turlarining havo haroratiga bog'liqligi

O'rmon har xil jo'g'rofiy zonalarda o'sganligi tufayli o'zining tarkibi, o'sish tezligi, tuzulishi, mahsuldorligi hamda xo'jalik ahamiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

Daraxtlarning jo'g'rofiy va tabiiy tarqalishini hisobga olmay, ularning tabiiy o'sish zonalarini bilmasdan turib, o'rmonshunoslik va o'rmonchilik muammolarini yechib bo'lmaydi.

Yer sharining ko'pchilik mintaqalarida o'rmonlar o'zining tabiiy holatini yo'qotmoqda, bunda inson tarafidan ko'rsatilayotgan har xil ta'sirlar salbiy rol o'ynamoqda.

O'rmonlar jo'g'rofiyasi, o'rmon sanoatini rivojlantirish masalasi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, sellyuloza, qog'oz kimyo sanoatining ba'zi tarmoqlari o'zining chiqindi va qoldiqlari bilan o'rmon massivlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Haroratning keskin pasayishi daraxtlarning ayrim qismlari (barglari, gullari, navdalari, shox-shabbasi)ni quritadi. Haroratning asta-sekin pasayishi (kuzda va qishda) o'simlikka zarar keltirmaydi. Buning sababi hujayradagi kraxmal shiraning muzlash nuqtasini oshiradi, ya'ni o'simlik chiniqadi (toblanadi). —10 °C da eman (yong'oq va boshqalarning) daraxtining guli zararlanadi.

Daraxt turlari issiqqa munosabatiga qarab 4 guruhga bo'linadi.

I guruh — yuqori darajadagi issiqsevar turilar. Evkalipt, primore qarag'ayi, eldor qarag'ayi, probkali eman, kiparis, saksovul.

II guruh — issiqsevarlar: qrim qarag'ayi, archa, kashtan, chinor, yong'oq, oq akas, belle teragi, baxofen teragi, ya'ni asosan O'zbekistonda o'suvchi hanuna turlar.

III guruh — issiqlikka o'rtaicha talabchanlar: bandli eman, zarang, qayrag'och, shuntol, tol.

IV guruh — issiqlikka oz talabchanlar: balzam teragi, osina, qayin,

qora qarag'ay, pixta va butalar.

Tog' qiyaliklarida o'rmonzorlar barpo etishda shuni hisobga olish kerakki, yuqoriga qarab ko'tarilgan sari har 100 metr balandlikda harorat 0,5—1° ga pasayadi.

O'rmonda tuproq kechroq muzlaydi va uncha chuqur bo'lmaydi, bahorda tezroq eriydi. Yuqoridagi daraxt turlarini issiqlikka bo'lgan munosabati bo'yicha o'rganib chiqib mahalliy sharoitdagi daraxtlarni maxsus joylarga o'tkaziladi

### Daraxtlarning suvga bo'lgan talabi

O'rmonlarning bir yilda qancha suv talab qilishi to'g'risida har xil mulohazalar bor. Olimlarning fikricha, o'rmonlarga kerakli namlik 150 — 175 mm ga teng. Bunday sharoitda o'rmonlar yashay oladi. Ammo Skandinaviyada igna bargli o'rmonlar 300 mm, Sharqiy Sibirda esa 200 mm yog'ingarchilik miqdorida ham yashamoqda, o'smoqda, rivojlanmoqda.

Eng yaxshi o'rmonlar Markaziy Yevropada. Bu yerda yog'ingarchilik miqdori 600 — 700 mm ni tashkil etadi. O'rmonlar uchun kerakli namlik miqdori 150 — 175 mm ekan, demak namlikning qolgan qismi bug'lanishga, daraxt barglarida ushlanib qolishiga hamda yerning pastki qatlamiga shimilib ketishga sarilanadi.

Yosh nihollarning o'sish paytida namlik yetarli darajada bo'lishi kerak. Shunda ularning saqlanib qolishi ta'minlanadi.

Yoqqan yomg'ir va qorlar o'simliklar uchun kerakli ozuqani (azot kislotasi, ammiak) tuproq orqali yetkazib beradi.

Qishda yoqqan qorlar fizik ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijobiy ta'siri tuproqning ustki qatlamini va nihollarni saqlaydi, salbiy ta'siri — daraxtlar sinishi, navdalarni esa sovuq urishi mumkin.

Agar qor qalinligi 15 — 20 sm bo'lsa, uning ustki va pastki qatlami o'rtasidagi farq 15 — 20 °C darajani tashkil qiladi. Qor qalinligi 30 — 50 sm bo'lganda Avstriya tog'larida tuproqning yuqoridagi qatlamida harorat 0 °C darajaga teng bo'ladi.

O'rmonlarning o'sishi — uning balandligi, diametri, hajmi va og'irligining ortishidan iborat.

Daraxtlarning balandligiga o'sishi, ularning yoshlik vaqtida har xil bo'ladi. O'sish darajasiga qarab tez va sekin o'suvchi daraxtlar turlariga bo'linadi. Urug'idan katta bo'layotgan daraxtlarga nisbatan

parxeshlanib va to'nkasidan ko'payayotgan o'simliklarning o'sishi tezroq bo'ladi. Lekin asta-sekinlik bilan urug'dan rivojlanayotgan daraxtlar o'z ko'rsatkichlari bo'yicha vegetativ usul bilan yetishtirilayotganlariga yetib olib, keyinchalik ulardan o'zib ketadi.

Tez o'suvchi daraxtlar 30 — 50 yoshlarida o'zining eng yuqori balandligiga yetadi, undan keyin esa o'sishi sekinlashadi yoki unuman to'xtaydi. Sekin o'suvchi daraxtlar 5 — 10 yil mobaynida juda ham sekin rivojlanadi, eng yuqori balandligiga esa 80 — 120 yoshida yetadi. Umuman olganda, daraxtlarning o'sish tezligi quyidagi holatlarga bog'liq:

- daraxtning biologik xossalari;
- o'sish joylarining sharoitlari va xususiyatlari;
- daraxtlarning kelib chiqishi;
- ichki muhit (qo'shni daraxtlar, ular o'rtasidagi raqobat va boshqalar) ta'siri.

Daraxt yoshi, o'sish tezligiga qarab, daraxtlar quyidagicha taqsimlanadi: terak, tol, oq akas, oq qayin, qora olxa, qayrag'ochlar, qarag'ay, zarang, shumtol, qora yong'oq, grek yong'og'i va boshqalar.

Daraxtlarning o'sishi quyidagicha o'sish ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi:

Daraxtlarni taksatsiyaga oid ko'rsatkichlarining (D, g, h, f va v) daraxt yoshiga qarab o'zgarib borishi daraxtlarning o'sishi deyiladi.

**Joriy o'sish** — ushbu o'sish aniq belgilangan yildagi yoki daraxtning ma'lum bir davridagi o'sishi. Ko'pincha bu o'sish daraxtning oxirgi yildagi yoki oxirgi davrdagi o'sishi bo'yicha aniqlaniladi. Joriy o'sish ikki turga bo'linadi: joriy yillik o'sish va joriy davriy o'sish.

**O'rtacha o'sish** — bu o'sish daraxtning o'rtacha bir yildagi yoki butun umri davomidagi o'rtacha o'sishi yoki qandaydir aniqlangan bir davrdagi o'sish bilan belgilanadi. O'rtacha o'sish ikki turga bo'linadi: o'rtacha yillik o'sish (umumiy) va o'rtacha davriy o'sish.

Shundan o'rtacha yillik o'sish daraxtning bir yilda yoki butun umri davomidagi o'rtacha o'sishi hisoblanadi.

O'rtacha davriy o'sish esa, daraxtning oxirgi yillardagi o'rtacha o'sishi bilan belgilanadi.

Agar o'sish sm, m, m<sup>3</sup> da ifodalansa, bunday o'sish absolyut o'sish

deyiladi.

Agar o'sish foiz (%) hisobida ifodalansa, bunday o'sish nisbiy o'sish deyiladi.

Masalan, daraxtning diametri bo'yicha o'sishini aniqlashda quyidagicha ko'rsatkichlari berilgan bo'lsin.

Diametr —  $D = 24$  sm; Diametr —  $D_a = 20$  sm; Diametr —

$D_a = 10$  sm

Joriy yillik o'sish:  $Z^y = T_a - T_{a-1}$ ;

$TY_n = D - D = 24$  sm —  $20$  sm +  $4$  sm/yilda.  $d_{a-a-1}$

2- BO'LIM. O'RMQNCHILIK

### Asosiy kesish usullarini qoMIashni o'rganish

Asosiy kesish usullari yirik yog'och zaxirasi tayyorlaydigan ikkinchi va uchinchi guruh o'rmonlarida ko'pincha polosa usulida tashkil etiladi. Chunki o'rmonning kesib olingandan keyin kesilgan polosa o'ruga kelajakda tabiiy yoki sun'iy usulda o'rmonzorlar barpo qilinadi. Tabiiy usulda o'rmonni qaytadan tiklanishida shamol katta vazifani o'taydi. Chunki u urug'larni sochadi. Ushbu o'rmonlarda daraxt kesish ishlarini tayyorlashda quyidagi agregatlardan foydalaniladi: LP-49, MUP-4, LP-18 A, MRP-2, yog'ochlarni taxlash uchun LT-163, yog'ochlarni togii sharoitda tashish uchun kanatli qurilma LL-20, TT-4 traktorga tirkalib foydalaniladi.

Shuningdek, yirik o'rmon xo'jaliklarida ma'lum ajratilgan maydonlarda yoppasiga va tanlab kesish ishlari ham bajariladi.

Belgilangan maydonlardagi kesilgan daraxtlarni albatta zaxiralari hisoblab topiladi. Zaxirani hisoblashda daraxt turlariga e'tibor beriladi. O'rmonning yuqori yog'och bazasida daraxtlar shox- shabbdan tozalanadi. Shundan so'ng uning zaxirasi chamalab hisoblab va to'p-to'p holda maxsus o'lchamda taxlab chiqiladi. Zaxirani hisoblashda daraxt turlari bo'yicha yog'och hajmini hisoblashda foydalaniladigan maxsus hajmlar jadvalidan foydalaniladi. Unda yog'ochning uchki qismi diametri hamda uning uzunligi berilgan bo'ladi. Yog'ochning uchki qismi diametri asosida ko'ndalang kesim yuzasi ( $m^2$ ) aniqlanadi. Hisoblangan natija yog'och uzunligiga ko'paytirilib, yog'och hajmi chiqariladi. Buning uchun tajribada bir dona daraxt kesib, unda hajmni hisoblash ishlari yuqoridagi tartibda o'tkaziladi.

### O'rmonda parvarishlash kesish ishlarini bajarish vaqti

Daraxtlarda parvarishlash kesish ishlari eng asosiy o'rmon xo'jaligi

parxeshlanib va to'nkasidan ko'payayotgan o'simliklarning o'sishi tezroq bo'ladi. Lekin asta-sekinlik bilan urug'dan rivojlanayotgan daraxtlar o'z ko'rsatkichlari bo'yicha vegetativ usul bilan yetishtirilayotganlariga yetib olib, keyinchalik ulardan o'zib ketadi.

Tez o'suvchi daraxtlar 30 — 50 yoshlarida o'zining eng yuqori balandligiga yetadi, undan keyin esa o'sishi sekinlashadi yoki umuman to'xtaydi. Sekin o'suvchi daraxtlar 5 — 10 yil mobaynida juda ham sekin rivojlanadi, eng yuqori balandligiga esa 80 — 120 yoshida yetadi. Umuman olganda, daraxtlarning o'sish tezligi quyidagi holatlarga bog'liq:

- daraxtning biologik xossalari;
- o'sish joylarining sharoitlari va xususiyatlari;
- daraxtlarning kelib chiqishi;
- ichki muhit (qo'shni daraxtlar, ular o'rtasidagi raqobat va boshqalar) ta'siri.

Daraxt yoshini, o'sish tezligiga qarab, daraxtlar quyidagicha taqsimlanadi: terak, tol, oq akas, oq qayin, qora olxa, qayrag'ochlar, qarag'ay, zarang, shumtol, qora yong'oq, grek yong'og'i va boshqalar.

Daraxtlarning o'sishi quyidagicha o'sish ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi:

Daraxtlarni taksatsiyaga oid ko'rsatkichlarining (D, g, h, f va v) daraxt yoshiga qarab o'zgarib borishi daraxtlarning o'sishi deyiladi.

**Joriy o'sish** — ushbu o'sish aniq belgilangan yildagi yoki daraxtning ma'lum bir davridagi o'sishi. Ko'pincha bu o'sish daraxtning oxirgi yildagi yoki oxirgi davrdagi o'sishi bo'yicha aniqlaniladi. Joriy o'sish ikki turga bo'linadi: joriy yillik o'sish va joriy davriy o'sish.

**O'rtacha o'sish** — bu o'sish daraxtning o'rtacha bir yildagi yoki butun umri davomidagi o'rtacha o'sishi yoki qandaydir aniqlangan bir davrdagi o'sish bilan belgilanadi. O'rtacha o'sish ikki turga bo'linadi: o'rtacha yillik o'sish (umumiy) va o'rtacha davriy o'sish.

Shundan o'rtacha yillik o'sish daraxtning bir yilda yoki butun umri davomidagi o'rtacha o'sishi hisoblanadi.

O'rtacha davriy o'sish esa, daraxtning oxirgi yillardagi o'rtacha o'sishi bilan belgilanadi.

Agar o'sish sm, m, m<sup>3</sup> da ifodalansa, bunday o'sish absolyut o'sish



deyiladi.

Agar o'sish foiz (%) hisobida ifodalansa, bunday o'sish nisbiy o'sish deyiladi.

Masalan, daraxtning diametri bo'yicha o'sishini aniqlashda quyidagicha ko'rsatkichlari berilgan bo'lsin.

Diametr —  $D = 24 \text{ sm}$ ; Diametr —  $D_a = 20 \text{ sm}$ ; Diametr —

$D_a = 10 \text{ sm}$

Joriy yillik o'sish:  $Z^y = T_a - T_{a-1}$ ;

$TY_{a-1} = D D = 24 \text{ sm} - 20 \text{ sm} + 4 \text{ sm/vilda. d a-1}$

2- BO'LIM. O'RMQNCHILIK

### Asosiy kesish usullarini qoMIashni o'rganish

Asosiy kesish usullari yirik yog'och zaxirasi tayyorlaydigan ikkinchi va uchinchi guruh o'rmonlarida ko'pincha polosa usulida tashkil etiladi. Chunki o'rmonning kesib olingandan keyin kesilgan polosa o'rminga kelajakda tabiiy yoki sun'iy usulda o'rmonzorlar barpo qilinadi. Tabiiy usulda o'rmonni qaytadan tiklanishida shamol katta vazifani o'taydi. Chunki u urug'larni sochadi. Ushbu o'rmonlarda daraxt kesish ishlarini tayyorlashda quyidagi agregatlardan foydalaniladi: LP-49, MUP-4, LP-18 A, MRP-2, yog'ochlarni taxlash uchun LT-163, yog'ochlarni togii sharoitda tashish uchun kanatli qurilma LL-20, TT-4 traktorga tirkalib foydalaniladi.

Shuningdek, yirik o'rmon xo'jaliklarida ma'lum ajratilgan maydonlarda yoppasiga va tanlab kesish ishlari ham bajariladi.

Belgilangan maydonlardagi kesilgan daraxtlarni albatta zaxiralari hisoblab topiladi. Zaxirani hisoblashda daraxt turlariga e'tibor beriladi. O'rmonning yuqori yog'och bazasida daraxtlar shox-shabbdan tozalanadi. Shundan so'ng uning zaxirasi chamalab hisoblab va to'p-to'p holda maxsus o'lchamda taxlab chiqiladi. Zaxirani hisoblashda daraxt turlari bo'yicha yog'och hajmini hisoblashda foydalaniladigan maxsus hajmlar jadvalidan foydalaniladi. Unda yog'ochning uchki qismi diametri hamda uning uzunligi berilgan bo'ladi. Yog'ochning uchki qismi diametri asosida ko'ndalang kesim yuzasi ( $m^2$ ) aniqlanadi. Hisoblangan natija yog'och uzunligiga ko'paytirilib, yog'och hajmi chiqariladi. Buning uchun tajribada bir dona daraxt kesib, unda hajmini hisoblash ishlari yuqoridagi tartibda o'tkaziladi.

### O'rmonda parvarishlash kesish ishlarini bajarish vaqti

Daraxtlarda parvarishlash kesish ishlari eng asosiy o'rmon xo'jaligi

tadbiri choralaridir. Uning natijasida o'rmon va har xil ko'rinishdagi daraxtzorlar, nafis ko'rinishga, yuqori sifatli yog'och beradigan bazaga, shuningdek, ihota daraxtzoriari bo'lsa, mahsuldorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga qo'shimcha foyda beradi.

Daraxtzorlarning yoshiga qarab quyidagicha parvarishlash kesish ishlarining turlari mavjud: daraxtzorlar ichiga yorug'lik tushirish, yosh daraxtlarda tozalash ishlarini o'tkazish, daraxtlarning yaxshi o'sib, rivojlanib, shaklga ega bo'lishidagi kesish, tashlab kesish ishlari bajariladi.

4-jadval

Daraxtzorlarning yoshiga qarab parvarishlash kesish ishlarini o'tkazish davri

| Kesish ishlarining turlari                 | Daraxtzorlar yoshi, yilda            |               |               |               |
|--|--------------------------------------|---------------|---------------|---------------|
|  | Daraxtlar ichiga yorug'lik tushirish | 20 yilgacha   | 20            | 10            |
| Daraxtlarda tozalash o'tkazish             | 21-40                                | 21-40         | 11-20         | 6-10          |
| Daraxtlarni shakllantirish bo'yicha kesish | 41-80                                | 41-80         | 21-40         | 11-20         |
| O'tin uchun kesish                         | 81 dan yuqori                        | 81 dan yuqori | 41 dan yuqori | 21 dan yuqori |

Daraxtlarni parvarish qilish davrida ularni qisman kesish ma'lum maqsadni ko'zlaydi: daraxtzorlar tarkibi va ularning sifatini yaxshilash, maydoni bo'yicha daraxtlarni ma'lum tartibda joylashtirish. Manzarali daraxtzorlar chegaralarini shakllantirish, yosh daraxtlarda siyraklashtirish ishlarini olib borish. Daraxtzorlar tarkibini shakllantirishda ularni asosiy va yordamchi daraxt turlariga ajratish. Bu holda daraxtzorning asosiy turi daraxtning 50 -- 70% dan kam bo'lmasligi kerak. Ularga asosiy daraxt turlari va gigienik xususiyatga ega bo'lgan ushbu sharoitda o'sib rivojlangan turlari kiradi. Nina bargli daraxt turlari ichida asosiy turi — bular qoraqarag'ay, mojevelnik sinfi (archalar); yaproq bargli daraxt turlari ichidan yong'oq, chinor, eman.

qayin, qayrag'och va boshqalar, yordamchi turlarga do'lana, chetan (ryabina), oq akas, oq tut va boshqalar.

Daraxtzorlarni shakllantirishda daraxtlarning quyidagi sinflari qo'llaniladi: yaxshi daraxtlarga asosiy turlar, I — II sinfga mos bo'lgani, bularga to'g'ri o'sib rivojlangan manzarali daraxt turlari kiradi.

Yordamchi daraxt turlariga baquwat, o'zining o'sib rivojlanishi bilan asosiy daraxt turining o'sishiga yordam beruvchi manzarali va chiroyli landshaft hosil qiluvchi turlari kiradi.

Keraksiz daraxtlarga qurigan, kasallangan va zararkunandalar bilan zararlangan, asosiy daraxt turining o'sishiga halaqit beruvchi, tanasi xunuk bo'lgan va landshaft tarkibini buzuvchilar kiradi. Ushbu daraxtlar o'z vaqtida kesib olib tashlanishi zarur.

Shahar o'rmonlarida kesishning asosiy maqsadi yuqori manzara beruvchi va sanitar ahamiyatga ega bo'lgan daraxt turlarini shakllantirishdan iboratdir. Yoritish uchun har xil turdagi daraxtlarning shox-shabbasi bir-biriga yaqinlashganda va o'sishdan orqada qolganda kesiladi. O'sishdan qolganlari, sovuqdan va tashqi ta'sirdan zararlanganlari olib tashlanadi. Daraxtzorlarda tozalik maqsadida kesish ishlarini o'tkazishda sifatli maydon bo'yicha bir me'yorda joylashganlari tanlab olinadi. Kesishda daraxtlar ochiq turishi, keyingi daraxtlarning o'sib rivojlanishiga sharoit yaratishi zarur.

Tez o'suvchi daraxt turlari uchun kesishning qaytarilishi yoritish va tozalashda 3 yilgacha. Siyraklatish va tashlab kesish usulida 5 yilgacha. Yoritish va tozalash usulida kesish uchun 5 yilgacha. Ba'zi bir daraxtlarda siyraklatish va tashlab kesish 7 — 8 yilda qaytariladi.

### **Daraxtzorlarda tamg'alash ishlarini bajarish va kesish chiptalarini to'ldirish**

Tamg'a o'rmon ustalariga, o'rmonchining yordamchilariga, o'rmonbegiga va o'rmonni muhofaza va himoya qilish bo'yicha muhandisga beriladi.

Ishlatilishiga qarab tamg'alar ruxsat beruvchi, kesuvchi, nazorat qiluvchi va tanlovchilarga bo'linadi. Tamg'alardan nusxa olinadi, har bir shaxs tamg'a bilan ishlash va uni saqlash to'g'risidagi qoidalar bilan tanishtiriladi, imzosini olib tamg'a beriladi. Tamg'alarni olgan xodimlar, ularni to'g'ri ishlatish va saqlashlik uchun shaxsan javobgardirlar.

Tamg'alardan foydalanish suiste'mol qilinsa, aybdorlar qat'iy javobgarlikka tortiladilar va hatto lavozimlaridan bo'shatiladi. Tamg'alar

daraxtlarni inson ko'kragi balandligi qismiga va ildiz bo'g'ziga, to'nkalarining cheka qismiga, tayyorlangan yog'ochlarning chekkasiga, sajinlab qo'yilgan yog'ochlarga bosiladi.

Ruxsat etuvchi tamg'alar o'sib turgan, kesish uchun mo'ljallangan daraxtlarga bosiladi, aholiga sotish uchun kesilgan daraxt to'nkalariga ham tamg'a bosiladi.

Tayyorlangan yog'ochlarga (ag'darilgan va shamolda yiqilgan daraxtlar hamda to'nkalariga) yalpi kesish uchun ajratiladigan daraxtlarni hisobga olish uchun ham tamg'a bosiladi.

Kesish tamg'alari o'zboshimchalik bilan kesilgan daraxt to'nkalariga o'rmonchi va o'rmon ustalari tomonidan o'rmon qoidasini buzganlar ustidan dalolatnoma tuzish vaqtida bosiladi.

Tanlab tamg'alash esa daraxtlarni tanlab kesish, o'rmonlar sanitar holatini yaxshilash uchun tanlab kesish va boshqa tanlab kesish vaqtlarida hamma kesilishi lozim bo'lgan daraxtlarning 75% dan ortig'i ko'krakdan balandligi qismi yo'g'onligi 10 sm ni tashkil qilgan vaqtda bosiladi.

#### **Daraxtlarni kesishga ajratish va uni bajarish texnologiyasi**

Daraxt kesish ishlari o'rmon xo'jaligida eng asosiy tadbirlardan biridir. Bu ishni bajarish jarayonida maxsus daraxt kesish brigadalari tuziladi. Ular ish bajarishdan oldin texnika xavfsizligi qoidalarini o'rganib, ishchilarni ro'yxatdan o'tkazish qaydnomasiga imzo qo'yadilar. Chunki bu ish o'ta xavfli bo'lib, ba'zan noqulay vaziyatlarga olib keladi. Kesish ishlarini bajarish vaqtida o'rmon osti o'simlik dunyosiga, shuningdek, o'spirin daraxtlarga katta zarar yetkaziladi. Natijada o'rmonning tuproqni, suv manbalarini va atrof-muhitni himoyalash qobiliyati susayadi.

Katta javobgarlikka ega bo'lgan daraxt kesish ishlarini bajarish vaqtida har xil turdagi texnika vositalari va agregatlardan foydalaniladi. Masalan, shoxlardan tozalash mashinalari LP-30B, LP-18A, LO-72, benzin yordamida ishlaydigan «Drujba»-4A, «Tayga»-214, «Ural»-2 va «Ural»-5 arralardan foydalaniladi. TDT- 55A, TT-4, TB-1, yog'och to'dalaydigan VM-4, LP-33, LP-2, yog'ochni paketlab to'dalaydigan LT-154 agregatlari islatiladi.

Yuqoridagi ishlarni bajarishdan oldin kesish maydonlari ajratiladi. Yog'och olib chiqish yo'llari belgilanadi. Uning eni 5 — 6 metr, kesish maydonining eni esa 35 — 40 metrdan iborat bo'ladi. Daraxtni kesishda 45° burchak ostida yo'naltirilib kesish ishlari bajariladi. Kesish vaqtida diametri 25 sm gacha bo'lgan o'spirin daraxtlar iloji boricha 90% gacha

saqlanib qolinadi.

Daraxt kesish agregatlaridan yuqori samaradorlikda foydalanish kesish maydonlarida ishni yaxshi tashkillashtirishga bog'liq bo'ladi. Ushbu ishlarni o'rganishda talabalar to'g'ri o'rmon xo'jaliklariga yo'l oladilar va ishni o'sha joyda ko'rsatib beradilar.

### **Kesilgan daraxtlar o'tinlari va shox-shabballari zaxiralarni aniqlash va jadvallarni to'ldirish. Yog'ochlarni taxlash**

O'tinlarning qalinligi 50 — 10 sm diametrli (ingichka), o'rtacha — 11 — 15; qalinlari — 15 sm dan oshmaydi. Diametri 3 — 14 sm dan bo'lgan o'tinlar dumaloq shaklda tayyorlanadi, 15 — 15 sm qalinlikdagi ikki qismga yoriladi, 26 — 40 sm dan qalini esa to'rt qismga yoriladi. 40 sm dan qalin bo'lgan qismining uzunligi 20 sm dan oshmasligi kerak. Yorilgan, arralangan o'tinlarning uzunligi 0,25; 0,33; 0,5 m bo'ladi. O'tinlar 1; 1,5; 2 m balandlikgacha taxlanadi.

O'rmon xo'jaligi sohasida ko'pincha har xil kesishlar natijasiga ko'ra o'tinlar tayyorlaniladi. O'tinlar uchun maxsus Davlat standard mavjud, ya'ni uzunligi bo'yicha o'tinlar 1 m, 0,5 m, 0,33 m, 0,25 m, ba'zan tashkilotlarning maxsus talabi bo'yicha 2 m o'tin ham tayyorlanadi. Qalinligi bo'yicha o'tinlar: topomik 3 — 6 sm; mayda o'tinlar 6 — 8 sm; o'rtacha o'tinlar 8—14 sm; katta o'tinlar 14 sm dan yuqori bo'ladi.

O'tinlar ko'pincha tarkibining quvati bo'yicha 3 guruhga bo'linadi:

I Yuqori quvatga ega turlari: qayin, eman, shumtol, qayrag'och, akas, pista va yong'oq;

II O'rtacha quvatga ega bo'lgan turlari: qarag'ay turkumi, zarang va boshqalar.

III Kuchsiz quvatga ega bo'lgan turlari: terak turkumi, tol, jo'ka, aylant.

Saksovuldan tayyorlangan o'tin quvati yuqoridagi uchl guruhdan ham kuchli bo'lib, quvati bo'yicha ko'mirga yaqinlashadi. O'tin hajmi taxlangan va zich taxlangan usulda hisoblanadi. O'tin polennisa ko'rinishida taxlanib, so'ng hajmi aniqlanadi. Bunda taxlangan o'tin ko'chkasi atrofi qoziqlar bilan mustahkamlanadi. Ushbu polennisaning uzunligi, balandligi va eni o'lchanadi. Balandligi 1 metrgacha taxlangan o'tin ko'chkalari uchun 3 sm dan 8 sm gacha chegirma beriladi. Agar taxlangan o'tinlar ko'chkasining uzunligi 6

— 8m gacha bo'lsa, uning uzunligini uch joyidan o'lchab hisob olinadi. Hisoblashda quyidagicha formuladan foydalaniladi:

$V = a \cdot h \cdot l$  ( $m^3$ ) bundan:  $a$  — taxlangan o'tin ko'chkasining eni, m;

$h$  — taxlangan o'tin ko'chkasining balandligi, m;  $l$  — taxlangan o'tin ko'chkasining uzunligi, m.

Masalan,  $a=0,5$  m;  $h=1$  m va  $l=3$  m. Natijada  $V = a \cdot h \cdot l = 0,5 \text{ m} \cdot 1 \text{ m} \cdot 3 \text{ m} = 1,5_{\text{tax}} \text{ m}^3$  hisobida.

Shox-shabbalar hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V = a \cdot h \cdot l \cdot 0,5 \text{ (m}^3\text{)}.$$

Yog'och zaviralarni hisoblashda yog'ochlarning yumalok ko'rinishda panjarasimon taxlash usulida, shuningdek barcha tomoni attdan chiqarilgan bmslar holda taxlab, so'ng uning hajmi hisoblanadi.

### Q'rimon daraxtlari tarkibini (nomlanishini) aniqlash

Daraxtlar tarkibini aniqlashda o'rimonning asosiy turdagi mahsulotining nomi birinchi yoziladi, agar bu daraxt turi boshqalarga nisbatan oz bo'lsa ham baribir u birinchi yoziladi.

Agar ma'lum bir daraxt turi daraxtlar tarkibida 0,2 dan 0,5 gacha bo'lsa, (+) orqali yoziladi. Agar 0,2 dan kichik bo'lsa, so'z bilan «alohida» deb yoziladi.

Daraxtlar tarkibi har bir o'rimon daraxtlari qavati uchun alohida holda aniqlanadi.

Daraxtlar tarkibini ko'ndalang kesim yuzalarining yig'indisi orqali ham aniqlash mumkin. Daraxtlar tarkibining umumiy koeffitsienti 10 ga teng bo'lishi kerak. Hisoblash natijalari quyidagi jadvalda berilgan.

5-jadval

### Daraxtzorlar tarkibini aniqlash

| No | Daraxtlar turi    | Ko'ndalang yuzalari, m <sup>2</sup> | kesim     | Daraxt daraxtzorda necha foizni tashkil etadi | Koeffitsient qiymati |
|----|-------------------|-------------------------------------|-----------|---|----------------------|
| 1  | Eman              | 8,5                                 |           | 50  | 5                    |
| 2  | Shumto!           | 4,5                                 |           | 26,5  | 3                    |
| 3  | Qayrag'och        | 2,0                                 |           | 11,7  | 1                    |
| 4  | Akas              |                                     | 1,5       | 8,8   | 1                    |
| 5  | Tikansimon daraxt |                                     | 0,5       | 3   |                      |
|    |                   |                                     | If = 17,0 | 100   | 10                   |

Masalan:  $17 \cdot 100 \times \frac{17,0}{100} = 50\% (1) = 5$  koeffitsient 8,5 - 8;

Hisoblashlardan so'ng biz quyidagicha tartibda daraxtzorlar tarkibining

formulasini yoza olamiz:  $5E3Shtl + 1Ak + Td$ .

**Daraxtlarning sifatli xom-ashyo berishi.** Daraxtlarning (yog'ochlarning) ishga yaroqli yog'och mahsulotlari berishi deganda daraxtlarning umumiy zaxirasidan kelib chiqadigan sifatli, yaroqli yog'ochlar miqdorining foiz hisobidagi umumiy qiymatidan kelib chiqishi tushuniladi.

O'rmonning ishga yaroqli mahsulot berish sinfi (turlar) uchun, ya'ni igna bargli yoki yaproq bargli turlari uchun o'rmon taksatsiyasi qo'llanmasidan topiladi.

O'rmonning ishga yaroqli mahsulot berish sinfi o'rmon sharoitidagi hisob-kitoblar uchun umumiy daraxtlar soni asosida hisoblanadi ( $N_{gm}$ ) yaroqli daraxtlar ( $N_{yaroq}$ ) yarim yaroqli ( $N$ )

### 6-jadval

| Daraxt turi   | Yaroqli           | Yarim yaroqli | O'tinbop | Hammasi |
|---------------|-------------------|---------------|----------|---------|
| Qarag'ay      | 86                | 1             | 1        | 88      |
| Qora qarag'ay | 102               | 10            | 123      | 123     |
| Jami          | 188               | 11            | 124      | 211     |
| Qayin         | 51                | 5             | 3        | 59      |
| Qora terak    | 6                 | 1             | 1        | 8       |
| Jami          | 57                | 6             | 4        | 67      |
| Hammasi       | $N=245$<br>yaroqb | $N=17$<br>n/g | 128      | 278     |

Yaroqli daraxtlar bilan yarim yaroqli daraxtlarning yarmini o'zaro qo'shib, daraxtlarning umumiy sonini topamiz:

$$N = N + N \times 0.5$$

gm yar d-t yaroq yar yar

Ishga yaroqli daraxtlarning foiz hisobidagi miqdorini formuladagi daraxtlarning umumiy sonidan topish mumkin.

$$p = \frac{\text{var}; \text{qii}}{\text{umum}} \cdot 100\%$$

Shu formula orqali topilgan foiz qiymati orqali ishga yaroqli mahsulot berishi belgilanadi:

$$N = 245 + 17 - 0.5 \cdot 245 + 8 = 253 \text{ dona}$$

um yaroq

yaroqli yog'ochlar (daraxtlar) foiz hisobida:





orqali belgilash kerak. Bir xil turdagi daraxtlar miqdorini hisoblash uchun quyidagicha formula berilgan:

$$M_{\text{may}} = \frac{M_{\text{sin}}}{\sin \alpha} \cdot \frac{H \cdot F}{m} \quad \text{bunda } M_{\text{sin}} = \text{sinash maydonidagi}$$

daraxtlar miqdori,  $\alpha$  - sinash maydonidagi daraxtlar ko'ndalang kesim yuzasi,  $m$  - balandlik ko'rsatkichi. Balandlik ko'rsatkichi,  $(HF)$  jadvaldagi ma'lum daraxt o'rtacha balandligi bo'yicha aniqlanadi.

Quyidagi misolga qaraymiz: qarag'ay daraxtlar berilgan; ko'ndalang kesim yuzalari  $g_m = 5,5903 \text{ m}^2$ . O'rtacha balandhgi 30,2 m ni tashkil etadi. «O'rmon taksatsiyasi» qo'llanmasining 23-betida qarag'ay daraxti uchun balandlik darajasi — 1a ga teng. Balandlik ko'rsatkichi — 14,04. Bu qiymatlarni formulaga qo'ysak (sinash maydoni) bo'yicha:

$$M_{\text{sin}} = Y \cdot g \cdot m^{HF} = 5,5903 \cdot 14,04 = 78,5 \text{ m}^2$$

1a ga dagi o'rmon daraxtzorlarining zaxirasini hisoblash uchun

quyidagicha formula berilgan:  $M_{\text{zaxira}} = \frac{M_{\text{sin}} \cdot g \cdot H \cdot F}{g_a} = 18,63 \cdot 14,04 =$

216,6 yoki  $M_{\text{zaxira}} = \frac{M_{\text{sin}} \cdot m \cdot v}{g_a} = 78,5 \cdot 261,5$  bundan:

$$M_{\text{zaxira}} = \frac{M_{\text{sin}} \cdot m \cdot v}{g_a} = 78,5 \cdot 261,5$$

Xfi-l ga dagi daraxtlarning ko'ndalang kesim yuzasi  $m^2$  formula orqali topiladi.  $HF$  — balandlik ko'rsatkichi.  $M_{\text{sin}}$  — sinash maydonidagi daraxtlar miqdori,  $m^2$ ,  $S_m$  — tajriba maydoni, ga.

Daraxt diametrlarining zaxirasi (yaruslarning zapasi) qavatlarining miqdori shu (yarns) daraxtlar miqdorining umumiy yig'indisiga teng:  $M_{\text{yarus}} = M_{\text{sin}} \cdot m^2 / g_a$ . Daraxtzorlar zaxirasi — diametrlar ko'ndalang kesim yuzalarining yig'indisiga teng boiadi:

$$M_{\text{yarus}} = M_{\text{sin}} \cdot m^2 / g_a$$

$$M_{\text{yarus}} = 5,5903 \text{ m}^2 \cdot 14,04 = 78,5 \text{ m}^2 / g_a; H \cdot F = 30,2 = 30 \text{ m} \cdot 14,04$$

$$M_{\text{zaxira}} = M_{\text{sin}} \cdot m \cdot v = 78,5 \cdot 261,5$$

$$M_{\text{zaxira}} = 18,63 \cdot 14,04 = 261,6 \text{ m}^2 / g_a$$

| 1  | 2  | 3    | 4    | 5   | 6      | 7     |
|----|----|------|------|-----|--------|-------|
| 7  | 36 | 36,2 | 32,4 | 105 | 0,1029 | 1,482 |
| 8  | 40 | 40   | 33,0 | 112 | 0,1257 | 1,820 |
| 9  | 44 | 43,7 | 33,5 | 120 | 0,150  | 2,175 |
| 10 | 48 | 48,4 | 34,1 | 123 | 0,1840 | 2,781 |

Balandlik darajasi diametrlar bo'yicha taqqoslab olingan va daraxt balandligi qiymati bo'yicha topiladi. Ia, Ib o'rmon razryadlarini aniqlashda liter daraja 1 deb qabul qilinadi, keyinchalik 1 birlikka oshiriladi.

Har bir daraja bo'yicha olingan daraxt tanasining yo'g'onligi qiymatlarini daraxtlar miqdoriga ko'paytirgandan so'ng va olingan yig'indini daraxtlar miqdoriga bo'lib, hisoblash uchun balandlik darajasi topiladi.

Bizning misolimizda o'rtacha daraja

$$\frac{2 \cdot 17 + 1 \cdot 26 + 1 \cdot 14}{17 + 26 + 14} = \frac{34 + 26 + 14}{57} = \frac{74}{57}$$

1, 3 dan 1,0 ni ayirib 0,3 ni topamiz, bu Ia darajaga yaqin boiadi va hamma qarag'ay daraxti uchun qabul qilingan. Agar daraxtlarni tanasining yo'g'onligi bo'yicha taqqoslaganda har xil ko'rsatkich berilsa, unda balandlik darajasi daraxtlarning o'rtacha hisoblagandagi soniga (dona) qarab olinadi.

Hisob-kitobdan keyin unga qo'shiladigan 1 olib tashlanadi va oxirida aniq balandlik ko'rsatkichi qoladi.

$$\text{O'rtacha balandlik ko'rsatkichi} = \frac{1,35 + \dots}{136} = \frac{2,30}{\dots}$$

$$\frac{35 + 142 + 60 \cdot 237}{\dots} = 1,74 (1,74 - 1,0) = 0,74 \text{ yoldi birinchi}$$

balandlik ko'rsatkichiga yaqin bo'ladi va hisoblash varaqasiga balandlik ko'rsatkichi deb yozib qo'yiladi. Agar balandlik jadvaldagi qiymatga to'g'ri kelmasa, unga yaqinroq balandlik olinib, balandlik ko'rsatkichi aniqlanadi.

Umumiy formula yordamida daraxtzorlarning zaxirasini hisoblash uchun o'rmonzorlarni tashkil etgan daraxt turi bo'yicha yams (qavat) lari orqali miqdorini hisoblash va ularni tartib sonlari

orqali belgilash kerak. Bir xil turdagi daraxtlar miqdorini hisoblash uchun quyidagicha formula berilgan:

$$M_{\text{sin may}} = \frac{Y \cdot j \cdot \pi \cdot A \cdot f \cdot S \cdot n}{H \cdot F} \quad \text{bunda } M_{\text{sin may}} \text{ — sinash maydonidagi}$$

daraxtlar miqdori,  $g_m$  - sinash maydonidagi daraxtlar ko'ndalang kesim yuzasi,  $m^2$ .  $H \cdot F$  — balandlik ko'rsatkichi  $m$ . Balandlik ko'rsatkichi,  $(HF)$  jadvaldagi ma'lum daraxt o'rtacha balandligi bo'yicha aniqlanadi.

Quyidagi misolga qaraymiz: qarag'ay daraxtlar berilgan; ko'ndalang kesim yuzalari  $g_m = 5,5903 \text{ m}^2$ . O'rtacha balandhgi 30,2 m ni tashkil etadi. «O'rmon taksatsiyasi» qo'llanmasining 23-betida qarag'ay daraxti uchun balandlik darajasi — I ga teng. Balandlik ko'rsatkichi — 14,04. Bu qiymatlarni formulaga qo'ysak (sinash maydoni) bo'yicha:

$$M_{\text{sin may}} = Y \cdot j \cdot \pi \cdot m^{HF} = 5,5903 \cdot 14,04 = 78,5 \text{ m}^2$$

I ga dagi o'rmon daraxtzorlarining zaxirasini hisoblash uchun

quyidagicha formula berilgan:  $M_{\text{iga}} = \frac{M_{\text{sin may}} \cdot H \cdot F \cdot n}{ga} = 18,63 \cdot 14,04 =$

216,6 yoki  $M_{\text{iga}} = \frac{M_{\text{sin may}} \cdot 78,5}{261,5}$  bundan:

$$M_{\text{iga}} = \frac{M_{\text{sin may}} \cdot g^* \cdot C}{Q \cdot Q'}$$

Xfi-l ga dagi daraxtlarning ko'ndalang kesim yuzasi  $m^2$  formula orqali topiladi.  $HF$  — balandlik ko'rsatkichi.  $M_{\text{sin may}}$  — sinash maydonidagi daraxtlar miqdori,  $m^2$ ,  $S_m$  — tajriba maydoni, ga.

Daraxt diametrlarining zaxirasi (yaraslarning zapasi) qavatlarining miqdori shu (yarns) daraxtlar miqdorining umumiy yig'indisiga teng:  $M_{\text{yarus}} = \frac{M_{\text{sin may}} \cdot m^2}{ga}$ . Daraxtzorlar zaxirasi — diametrlar ko'ndalang kesim yuzalarining yig'indisiga teng boiadi:

$$M_{\text{nasaj}} \sim I \cdot yams \cdot W / 8^{\wedge}$$

$T \cdot Y^{\wedge} = 5,5903 \text{ m}^2$ ;  $Y^{\wedge} = 18,63 \text{ m}^2/ga$ ;  $H^{\wedge} = 30,2 = 30 \text{ m}$ ;  $H \cdot F = 14,04$

$$1) \quad M_{\text{sin may}} \cdot H \cdot F = 5,5903 \cdot 14,04 = 78,5$$

$$1) \quad = i, \quad ga \cdot H \cdot F = 18,63 \cdot 14,04 = 261,5 \text{ rr}^2/ga$$

$$M_{\text{nor}} = S^{\text{q}} \cdot HF = 3,4023 \cdot 11,67 \cdot 39,7 \text{ m}^3$$

Demak zaxira — 39,7 m<sup>3</sup> ga teng.

### Zaxirani o'sish jadvallari asosida aniqlash

Daraxtzorlar zaxirasini aniqlashda ko'pchilik vaqtlarda me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jadvallardan foydalanayotgan vaqtda oldin daraxtzorlarning o'rtacha balandligi, yoshi va toiiqligini aniqlash zarur.

Daraxtzorlar va yams (pog'ona) larning zaxirasi formulalar yordamida aniqlaniladi:

$$M = M_{\text{nor}} \cdot P \text{ m}^3/\text{ga}$$

Ushbu formuladan:  $M_{\text{nor}}$  — 1 ga dagi hisoblash ishlari o'tkazilayotgan daraxtzorlar zaxirasi, m<sup>3</sup>/ga;  $M_{\text{nor}} = 1,0$  o'rmon toiiqligiga teng bo'lgan ma'ium turdagi daraxtzorlar zaxirasi, m<sup>3</sup>/ga;  $P$  — ma'ium turdagi daraxtzorlarning formula asosida hisoblangan to'liqligi.

*O'rtacha modul daraxt bo'yicha zaxirani aniqlash.* O'rtacha modul daraxt bo'yicha hajmini aniqlash o'rmonning asosiy elementlari uchun hisoblaniladi.

O'rtacha modul daraxt daraxtlarning o'rtacha diametri bo'yicha modulni daraxt uchun tuzilgan hisob-kitob jadvalidan aniqlanadi. Miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$M = V_m \frac{Y_g}{g} ; \text{ m}^3/\text{ga}$$

bunda:  $M$  — zaxira, m<sup>3</sup>/ga;  $g$  — modul

daraxtning kesim yuzasi, m<sup>2</sup>;  $Y_g$  — ko'ndalang kesim yuzasi, m<sup>2</sup>/

ga;  $V_m$  — o'rtacha modul daraxtning hajmi, m<sup>3</sup>;  $V_m$  — hajmining qiymatlarini, ko'ndalang kesim yuzaning qiymatlarini jadvaldan olinadi, ma'ium daraxtning diametri bo'yicha.

Ko'ndalang kesim yuza ( $Y_g$ ) — formula, ya'ni

$$Y_g = \frac{\pi \cdot d^2}{4} \text{ m}^2$$

orqali hisoblab topiladi. Quyidagi misolni

qaraymiz:

Qarag'ay daraxtining o'rtacha diametri 28,4 sm. Jadval bo'yicha modul daraxt bo'yicha quyidagicha ko'rsatkich (parametr) lar berilgan:  $D_{mod}=28,1$  sm;  $A_{mod}=30,2$  m;  $V_m=0,803$  m<sup>3</sup> va  $g_m=0,0620$  m<sup>2</sup>.

Formula asosida ko'ndalang kesim yuza yig'indisi (qarag'ay) bo'yicha hisoblangan edi. Formulaga qo'yib shuni topamiz:

$$M = V_m = 0,863 \cdot g_m = 259,3 \text{ m}^3/\text{ga}$$

O'rmonzorlarning asosiy turi bo'lgan qarag'ayning zaxirasi 259,3 m<sup>3</sup>/ga tengdir.

*Uchta o'rtacha modul daraxt bo'yicha zaxirani aniqlash.* Quyidagicha misolni qaraymiz: O'rmonzorning asosiy turi bo'yicha jadvaldan o'rtacha modul daraxt qiymatlarini olamiz:

$D_{0>\pi}=28,1$  sm;  $V_m=0,863$  m<sup>3</sup>;  $g_m=0,0620$  m<sup>2</sup>; qarag'ayning qiymatlari qolgan ikki tur qiymatlari bo'yicha quyidagicha:  $D_{\pi}=23,8$  sm;  $V_m=0,562$  m<sup>3</sup>;  $g_m=0,0445$  m<sup>2</sup>;  $D_{0<\pi}=31,7$  sm;  $V_m=1,064$  m<sup>3</sup>;  $g_m=0,0789$  m<sup>2</sup>, u holda daraxtzorlar zaxirasi:

$$M = (V + V + VJ) \frac{X^*}{g^{\wedge} + g^{\wedge} + g_n^{\wedge}} = 0,562 + 0,863 + 1,064 -$$

$$\frac{18,630}{10,0445 + 0,062 + 0,0789} = 250,1 \text{ m ga.}$$

Bunday usulda o'rmonzorlarning umumiy miqdori bizga ma'lum bo'lgan quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M = \sum g M^m V g^o \text{ bunda: } M \text{ — daraxtzorlarning zaxirasi,}$$

$\sum V g a$ ;  $V_m$  — modul daraxtlarning diametrlari yo'g'onligi bo'yicha olingan zaxiralarning umumiy yig'indisi (m<sup>3</sup>) hisobida;

— o'rmonzorlardagi daraxtlarning ko'ndalang kesim yuzalarining umumiy yig'indisi, m<sup>2</sup>/ga formula orqali hisoblanadi;

$\sum g$  modul daraxtlarning diametrlari yo'g'onligi bo'yicha kesim yuzalarining umumiy yig'indisi.

Qiymatlari hisoblab chiqarilgan daraxtlarning diametrlari yo'g'onligini e'tiborga olib daraxtzorlarning zaxirasini hisoblab jadval to'ldiriladi.

9-jadval

Daraxtlar zaxirasini aniqlash

| Dia<br>metr<br>(sm) | Kesim yuzasi (m <sup>2</sup> )                            |   | Bir<br>dona<br>modul<br>daraxt<br>ning<br>hajmi<br>(m) | X*     | Daraxtzorlarning<br>zaxirasi (m <sup>3</sup> )                               |                                       |
|---------------------|---|---|--|--------|--|---------------------------------------|
|                     | Modul<br>daraxtning<br>ko'ndalang<br>kesim yuzasi<br>(gm) | Daraxtlar<br>diametr-<br>lari ning<br>kesim<br>yuzasi |  |        | Diametrlari<br>bo'yicha<br>ko'ndalang<br>kesim<br>yuzalarining<br>yig'indisi | I ga da                               |
| 12                  | 0,0121  | 0,0113  | 0,108  | 0,934  | 0,101  | M. .<br>taj. may<br>- 76,268 ;<br>0,3 |
| 16                  | 0,0199  | 0,0804  | 0,202  | 4,040  | 0,816  |                                       |
| 20                  | 0,0324  | 0,3768  | 0,394  | 11,630 | 4,582  |                                       |
| 24                  | 0,0445  | 0,7684  | 0,562  | 17,267 | 9,704  |                                       |
| 24                  | 0,0445  | 0,7684  | 0,562  | 17,267 | 9,704  |                                       |
| 32                  | 0,0789  | 1,1256  | 1,064  | 14,266 | 15,179   |                                       |
| 36                  | 0,1029  | 0,9162  | 1,482  | 8,904  | 13,195   |                                       |
| 40                  | 0,1257  | 0,3771  | 1,820  | 3,000  | 5,460  |                                       |
| 44                  | 0,1500  | 0,1520  | 2,175  | 1,013  | 2,204  |                                       |
| 48                  | 0,1840  | 0,1809  | 2,785  | 0,983  | 2,734  |                                       |

«To'g'ri o'sish» jadvali bo'yicha daraxtzorlarning zaxirasini aniqlash. Daraxtlar miqdori aniqlanayotgan vaqtda ko'pincha har xil qo'llanmalarda ko'rsatilgan me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi (masalan: ko'ndalang kesim yuzalar jadvali, to'g'ri o'sish jadvali va boshqalar).

To'g'ri o'sish jadvaliga murojaat qilib, zaxirani aniqlash uchun oldin balandlik, yoshi va daraxtzorlarning to'liqligini aniqlashimiz kerak.

Daraxtlar zaxirasi har bir o'rmon daraxt turi uchun quyidagicha formula yordamida hisoblanadi:

$M = M_{\text{nor}} R$  m<sup>3</sup>/ga, bunda:  $M_t$  - 1 ga dagi hisoblash o'tkaziladigan daraxtlar zaxirasi, m<sup>3</sup>/ga;  $M_{\text{nor}}$  - tayyor jadvalda beriigan daraxtzorlar zaxirasi, m<sup>3</sup>/ga;  $P$  - ma'lum o'rmon daraxtining toiiqligi formula yordamida hisoblangan.

Maium o'rmon daraxt turiga to'g'ri keladigan toiiq daraxtzorlarning zaxirasi ( $M_{\text{to.ijq}}$ ) — «To'g'ri o'sish» jadvali orqali aniqlaniladi.

*Misol:* qora qarag'ayli daraxtzorlarning yoshi 83, toiiqligi 0,37 va Ia sinf bonitetdan iborat boiganda, o'rtacha miqdorga ega boigan qarag'aylarning zaxirasini interpoliyatsiya usuli orqali aniqlaymiz: bunda  $M_{\text{nor}} = 668,3$  m<sup>3</sup>, bu qiymatni formulaga qo'yamiz:

$$M_{\text{nor}} = M_{\text{nor}} P = 668,3 \cdot 0,37 = 247,3 \text{ m}^3/\text{ga}.$$

Yarus (qavatlar) ning zaxirasi umumiy formulalar orqali hisoblanadi.

*Ommaviy jadval yordamida daraxtzorlarning zaxirasini aniqlash.* Bu jadval yordamida zaxirani aniqlash uchun (o'rmon daraxt turi, pog'onalari turi) daraxtning 1,3 m balandlikdagi diametri, balandlik darajasi va maium boigan o'rmon daraxt turining balandligi (yarusning balandligi) olinadi. Har bir o'rmon daraxt turi yamslardagi daraxt turlari bo'yicha zaxira miqdori aniqlaniladi.

Tajriba maydonida olib borilgan hisob-kitoblar yordamida oldin 1 va 2-grafa (qatorlar) toidiriladi. Bir daraxtning hajmi esa, 3- grafa bizning misolda qarag'ay, «Umumiy ommaviy yog'ochlar hajmini po'stlog'i bilan, balandlik darajasi va o'rtacha shakl koeffitsienti» jadvali orqali hisoblaniladi.

### **Ommaviy jadval bo'yicha zaxirani aniqlash**

Daraxt turi — qarag'ay

| Diametrlari bo'yicha daraxtlar yo'g'onligi, sm | Daraxtlar soni, dona | Umumiy ommaviy jadval bo'yicha bitta yog'ochning hajmi, m <sup>3</sup> | Zaxirasi (m <sup>3</sup> )                                     |                            |
|--|----------------------|--|--|----------------------------|
|  |                      |  | Diametrlari bo'yicha ko'ndalang kesim yuzalari, m <sup>2</sup> | dagisi, m <sup>2</sup> /ga |
| 12   | 1                    | 0,102  | 0,102  | 255,02                     |
| 16   | 4                    | 0,221  | 0,884  | 255,02                     |
| 20   | 12                   | 0,389  | 4,668  | 255,02                     |
| 24   | 17                   | 0,584  | 9,928  | 255,02                     |
| 28   | 26                   | 0,839  | 21,814   | 255,02                     |
| 32   | 14                   | 1,120  | 15,680   | 255,02                     |
| 36   | 9                    | 1,450  | 13,050   | 255,02                     |
| 40   | 3                    | 1,820  | 5,460  | 255,02                     |
| 44   | 1                    | 2,240  | 2,240  | 255,02                     |
| 48   | 1                    | 2,680  | 2,680  | 255,02                     |
| Hammasi  | 88                   | -  | M = 76,506<br>prpl   |                            |

Har bir talabalar brigadasi tajriba maydoni bo'yicha hisoblangan hisoblash ishlarini xuddi yuqoridagi jadvaldagidek todiradilar.

### Daraxt kesish uchun maydon ajratish

*O'rmonlarda daraxt kesish ishlarini o'tkazish, o'rmon mahsulotining pul-tovar qiymati.* O'rmon xo'jaligida o'rmonchi mutaxassislar har yili kesish maydonalari (lesoseka) ajratadilar va uni belgilaydilar. Bu ishlar asosan yirik o'rmon xo'jaliklari hududlarida, ya'ni kesish ishlari uzluksiz bajariladigan II va III

guruh o'rmonlarida olib boriladi. O'rmon kesish maydonlarining uzunligi ba'zan 1 yoki 2 km gacha, eni esa 500 — 1000 m gacha boradi. Maydoni 50 — 200 gektarni tashkil etadi. O'rmon kesish maydoni oldin yaxshilab tozalangach, singan shoxlar, daraxtlar,



yong'inda qolgan daraxt to'nkajari olib tashlanadi. So'ng vizir yo'nalishi bo'yicha lesoseka maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida o'rnatilib, har bir burchagida 2 m uzunlikda, 20 sm diametrli stolbalar o'rnatiladi. bu stolbalarda o'rmon kesish maydoni ajratilgan yil va maydoni belgilab qo'yiladi. Yozuvlar qora rang bilan belgilanadi. Kesish ishlarini boshlashdan oldin o'rmon kesish maydonlari bo'yicha o'rmon tuzish ishlari razryadlarini ham bilishimiz zamm.

O'rmon daraxtzorlarida kesish uchun joy ajratishda va uni asoslash ishlarini ko'rsatish to'g'ridan-to'g'ri dala sharoitida olib boriladi.

O'rmonlarda kesish maydonlarini to'g'ri tanlashda o'rmon xo'jaligi texnik xodimi (master lesa) har bir kesish uchun ajratilgan maydon uchun texnologik karta tuzadi. Ushbu kartada barcha kesish ishlarini bajarish uchun ishchi-xodimlar yuradigan yo'llar va so'qmoqlar belgilanadi. Texnologik karta bosh muhandis tomonidan tasdiqlanadi.

11-jadval

O'rmon tuzish razryadlari bo'yicha kvartai va videllar o'lchami

| O'rmon tuzish razryadi | O'rtacha o'lchamdagi |            | Videllar o'lchami (ga) | O'rmon kesish ishlarini o'tkazishda qatnashadi |
|------------------------|----------------------|------------|------------------------|--|
|                        | O'lcham, km          | Maydon, ga |                        |  |
| Ia                     | 0,5x0,5              | 25         | 1-2                    | Bosh o'rmonbegi                                |
| I                      | 1,0x0,5              | 50         | 3-5                    | O'rmon qorovuli " I                            |
|                        | 1,0                  | 100        | 3-5                    |  |
| II                     | 1,0x1,0              | 100        | 6-15                   | O'rmon ustasi —1                               |
|                        | 2,0x1,0              | 200        | 6-15                   |  |
| III                    | 2,0x2,0              | 400        | 16-35                  | Uchta ishchi — 3                               |
|                        | 4,0x2,0              | 800        | 16-35                  |  |
| IV                     | 4,0x4,0              | 1600       | 36-80                  |  |
|                        | 8,0x1,0              | 1600       | 36-80                  |  |

O'rmon kesishda ishlayotgan ishchilar brigadasi zimmasida bajarilishi lozim bo'lgan quyidagicha vazifalar teradi: yuqori omborni tayyorlash, barcha boimlardagi daraxtlarni benzinli arralarda kesish, kesilgan maydonlarni tozalash, chuqurlashib qolgan yerlarni todirish, yuklash maydonlarini tayyorlash va dam olish. Ushbu kesish maydoni (lesoseka) da barcha ishlar ma'lum brigadalar va zvenolar tomonidan bajarilishi

uchun ulami mutaxassislar hisobga kiritib, pul-mablag' miqdori belgilab beriladi.

Mehnatga haq to'lash va hisobga olish ishlarning oxirgi natijasiga bog'liq bo'ladi. Ishning miqdori kishi kuniga va mexanizm vositasida bajarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ish haqini brigada a'zolari o'rtasida taqsimlanishi maxsus ta'rif koeffitsienti asosida belgilab boriladi. Brigada a'zolari 6 — 7 kishidan iborat bo'ladi: daraxt kesuvchi; traktor haydovchisi; bog'lab boruvchi; shox-shabba kesuvchilar (3 — 4 kishi).

Ishchilarning texnika vositalaridan uzluksiz foydalanib borishlari ularning ish samaradorligini oshirib boradi. Bunda ular traktor, avtomobillar va lebyotkali agregatlardan unumli foydalanishadi.

Ushbu ishlarni talabalar to'g'ridan-to'g'ri o'rmon xo'jaliklarida o'rganib boradilar va bu ishlarni bajarishda qatnashadilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida» gi qonuni. T. 1999.
2. Атрохин В.Г. и др. «Рубки ухода и промежуточного пользования» М. 1985.
3. Белов С.В. «Лесоводство». М. 1983.
4. Гладков Н.А. и др. «Охрана природы». М. 1975.
5. Горшенин Н.М., Швиденко А.И. «Лесоводство». Л. 1977.
6. Григорьев В.П., Рихтер И.Э. «Практикум по лесоводству». Минск, 1989.
7. Зарудный И.Н. «Рубки главного пользования и рубки ухода». Л. 1974.
8. Мелехов И.С. «Лесоводство». М. 1989.
9. Мелехов И.С. «Лесоведение». М. 1980.
10. Наумов В.М. «Лесоэксплуатация». М. 1972.
11. Сеннов С.Н. «Рубки ухода за лесом». М. 1977.
12. Хонназаров А.А. «O'zbekistonda o'rmonzorlar barpo qilish asoslari». T. 2002.
13. Хонназаров А.А. «O'rmonshunoslik». T. 2002.
14. Червонный М.Г. «Охрана лесов». М. 1981.
15. Яскина Л.В. «Дендрология». Т.1980.
16. Qalandarov M.M. «O'rmon taksatsiyasi» T. 2007.
17. Каландаров М.М. «Влияние рубок ухода на санитарное состояние лесных полос в Каршинской степи». Журнал «Лесное хозяйство», №2, 2003.

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Kirish.....  | 3  |
| <b>i- BO'LIM. O'RMON VA DARAXTLAR HAQIDA</b>                           |    |
| <b>TUSHUNCHA</b>   |    |
| 1.1. O'rmonlarning tuzilishi, kelib chiqishi va ko'rinishlari .....    | 8  |
| O'rmon haqida tushuncha va uning tabiati .....                         | 8  |
| Toza va aralash daraxtlar, oddiy va murakkab o'rmonlar .....           | 10 |
| Niholxona tashkiliy-xo'jalik ishlarini tashkillashtirish tadbirlari    | 14 |
| Sun'iy o'rmonzorlar barpo qilish usullari .....                        | 19 |
| Urug'idan ko'payuvchi daraxtzorlar .....                               | 23 |
| Tabiiy o'rmonlar va o'rmon tiplari .....                               | 26 |
| O'rmon daraxtzorlari tarkibi va to'liqligi .....                       | 31 |
| Daraxtlarning o'rtacha yoshi va bonitet sinflari .....                 | 35 |
| Daraxtlar hayotining davomiyligi.....                                  | 38 |
| 1.2. O'rmon va ekologik omillar munosabati .....                       | 39 |
| Ekologiya teoriyasi va uning mazmuni .....                             | 39 |
| O'rmon biotsenozi .....  | 42 |
| Ekotizmlar va mamlakatdagi ekologik muammolar .....                    | 44 |
| Iqim va issiqlikning o'rmon bilan munosabati .....                     | 47 |
| Issiqlikning o'simliklar hayotidagi vazifasi .....                     | 51 |
| O'rmon va harorat .....  | 54 |
| O'rmon va yorug'lik orasidagi bog'lanish .....                         | 56 |
| O'rmon va namlik .....   | 62 |
| Daraxtlarni suvga bo'lgan talabi bo'yicha guruhlariga bo'linishi .     | 65 |
| Shamolning daraxtlarga va daraxtlarni shamolga ta'siri .....           | 67 |
| O'rmon va edafik omillar .....   | 69 |
| Tuproq muhiti. O'rmon va biotik omillar .....                          | 72 |
| Daraxt va faunaning bir-biriga bog'liqligi. Antropogen omillar .       | 74 |
| 1.3. Daraxtlarning o'sish va rivojlanishi .....                        | 76 |
| Daraxtlarning o'sish tezligi va uning sinflanishi .....                | 76 |
| 1.4. Yer yuzida daraxt turlarining tarqalishi va introduksiya qilish . | 78 |
| Dendroflarini introduksiya qilish va iqlimlashtirish .....             | 80 |
| Yer yuzida dendrofloraning mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi .         | 84 |

|                            |    |
|----------------------------|----|
| Tundra hududi .....        | 84 |
| O'rmon-tundra hududi ..... | 85 |
| O'rmon hududi .....        | 87 |
| O'rmon-dasht hududi .....  | 87 |
| Dasht hududi .....         | 88 |
| Dasht-cho'l hududi.....    | 89 |
| Cho'l hududi .....         | 90 |

## 2-BO'LIM. O'RMONCHILIK

|  |            |
|--|------------|
| O'rmonlarda asosiy kesish ishlari.....   | 92         |
| Tanlab kesish . . . . .  | 96         |
| Kesish, nazorat qilish, daraxtlarga tang'a berish tartibi .....                                      | 97         |
| O'rmonlarni kesishga ajratish va tayyorgarlik ishlari .....  | 98         |
| Daraxt kesish texnologiyasi .....  | 100        |
| Kesilgan daraxtlarni joylash .....   | 105        |
| Terak va boshqa tez o'suvchi daraxtlarda asosiy kesish ishlari.                                      |            |
| Kesish pattalarini pullik va moddiy baholash .....   | 107        |
| Parvarishlash maqsadida daraxtlarni kesish .....   | III        |
| <b>2.1. O'rmonlarni parvarishlash, sog'lomlashtirish va qayta tiklash uchun kesish ishlari .....</b> | <b>122</b> |
| Parvarishlash maqsadida daraxtlarni kesish usullari va yoshi . . .                                   | 122        |
| O'rmonni parvarish qilishda kesish texnologiyasi va rejalash . . .                                   | 124        |
| Sanitar maqsadida daraxtlarni qisman kesish .....  | 129        |
| O'rmonchilik fanining ahamiyati .....  | 130        |
| Daraxtlarni saqlash, himoya qilish va qo'riqlash ishlarini rivojlantirish .....                      | 132        |
| O'rmonchi va o'rmon ustasining vazifalari .....  | 133        |
| O'rmon ustasi .....  | 134        |

## AMALIY MASHG'ULOTLAR 1-BO'LIM. O'RMON HAQIDA TUSHUNCHA

|   |     |
|---|-----|
| O'rmonlarda nihollarning miqdorini aniqlash .....             | 137 |
| Daraxtzorlar zichligini aniqlash .....                        | 138 |
| Daraxtlarni hisoblash va sinflarni aniqlash .....             | 139 |
| O'rmon daraxtlari to'liqligi va mahsuldorligini aniqlash..... | 139 |
| O'rmon yaruslarini aniqlash .....                             | 140 |
| Daraxt turlarining havo haroratiga bog'liqligi.....           | 141 |

|  |     |
|--|-----|
| Daraxtlarning suvga bo'lgan talabi .....               | 142 |
| Daraxtlarning o'sish va rivojlanishini hisoblash ..... | 143 |

2- BO'LIM. O'RMONCHILIK

|   |     |
|---|-----|
| Asosiy kesish usullarini qo'llashni o'rganish .....                                     | 145 |
| O'rmonda parvarishlash kesish ishlarini bajarish vaqti .....                            | 145 |
| Daraxtzorlarda tang'alash ishlarini bajarish va kesish<br>chiptalarini to'ldirish ..... | 147 |
| Daraxtlarni kesishga ajratish va uning bajarish texnologiyasi ..                        | 148 |

|  |     |
|--|-----|
| Kesilgan daraxtlar o'tinlari va shox-shabhalari zaxiralarini aniqlash va jadvalni todirish. Yog'ochlarni taxlash ..... | 149 |
| O'rmon daraxtlari tarkibini (nomlanishini) aniqlash .....  | 150 |
| Daraxzorlar zaxiralarini aniqlash usullari .....   | 152 |
| Zaxirani o'sish jadvallari asosida aniqlash .....  | 156 |
| Daraxt kesish uchun maydon ajratish .....  | 160 |
| Foydalanilgan adabiyotlar .....  | 163 |

*O'quv adabiyoti* M.M. QALANDAROV O'RMONCHILIK

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma* Toshkent — «Yangi

nashr» — 2007

Muharrir  
Texnik muharrir  
Musahhah

M. To'ychiyev  
T. Smirnova  
F. Kornilova

Original maketdan bosishga ruxsat etildi 30.01.2008-y. Bichimi 60x90<sup>o</sup>/<sub>16</sub>, Kegli 11,0. TimesTAD gamiturasi. Shartli bosma tabog'i 10,5. Nashr tabog'i 10,5. Adadi 540 nusxada bosildi. Buyurtma № 26. Bahosi shartnoma asosida.

«Yangi nashr» MChJ nashriyoti, Toshkent, Jar-ariq, 15/108.

«Amaprint» MChJ bosmaxonasida bosildi.  
100182, Toshkent, H. Boyqaro, 41-uy.

